

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“Bank ishi” kafedrası

“Bank risklari” fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Tuzuvchilar: i.f.d. Abdullaeva Sh.Z..
i.f.n. Qulliev I.Ya.

TOSHKENT – 2014

1-mavzu: “Bank risklari” fanining predmeti, vazifalari va banklar faoliyatida risklar

Reja:

1. Bank risklari kursining tarkibi va yo‘nalishlari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi.
2. Iqtisodiyotning turli bo‘g‘inlarida risklar.
3. Banklar faoliyatining risklarga bog‘liqligi.
4. Iqtisodiy risklar, ularning turlari va ularda bank riskining o‘rni.
5. Risk konsepsiyasi, fikrlar va muammolar.

1. Bank risklari kursining tarkibi va yo‘nalishlari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi.

«Bank risklari» fani tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi xavf-xatar va risklarni tasniflash sohasida kasbiy bilim beruvchi, bo‘lg‘usi banklarni mazkur risklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirishga yo‘naltiruvchi, hamda risklarni baholash va boshqarishning asosiy qonunlarini o‘rgatuvchi fandır.

Ma’lumki, tijorat banklarida risklarni minimallashtirishga risk strategiyasini ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Bank riskini boshqarish tizimi riskning yuzaga kelishini oldindan xom-cho‘t qilish, risk tufayli yuzaga keladigan salbiy xolatlarga yo‘l qo‘ymaslik yoki ularning ta’sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

Bank riskini boshqarish tizimining ob’ekti banklar faoliyatida yuzaga keluvchi risklar bo‘lsa, uning sub’ekti sifatida riskga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi gurux, bank bo‘limi hodimi yoki menejeri xisoblanadi.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish uchun bank faoliyatini chuqur bilish, bank bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay bilish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyatlari bo‘yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo‘jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlari va boshqalarni bilish lozim.

Bankning risklarni boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to'la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollarini belgilab berish va bank risklarini oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoni tijorat banklarining barqaror faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Chunki tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri xisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir.

Markazlashgan iqtisodiyot sharoitida barcha xo'jalik sub'ektlari qat'iy yo'riqnomalar, buyruqlar, me'yoriy xujjatlar bo'yicha faoliyat olib borganligi uchun risk va uning darajasini o'ylashga to'g'ri kelmasdi. Oldindan qancha foyda olish yoki zarar ko'rish mumkinligi aniq bo'lar edi. Ko'rilgan zarar odatda, korxonaning yuqori tashkiloti yoki vazirlik tomonidan, ba'zi xollarda turli xil yo'qotishlar bilan birga byudjet mablag'lari xisobidan qoplanardi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatish korxonalardan faoliyatning yuqorida keltirilgan tamoyillarini o'zgartirishni talab qiladi. Endi har bir bozor munosabatlari sub'ektining faoliyati qonun doirasida o'z me'yorlariga ega bo'ldi. Nobarqaror, tez o'zgarib turuvchi bozor munosabatlari sharoitida banklar o'z mijozlari, raqobatchilari tomonidan bo'ladigan harakatlar va qonun xujjatlari o'zgarishi bilan bog'liq turli xil natijalar va ularning bank faoliyatiga ta'sirini inobatga olib borishi lozim. Chunki bunday o'zgaruvchan xolatlar bank faoliyati davomida yuqori risk qilishga olib keladi. Zamonaviy bank tizimini risksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bankning risksiz operatsiyasi yo'q, uning barcha operatsiyalari risk bilan bog'liq bo'lib, ularning darajasi operatsiya turiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Bank amaliyotida riskni umuman yo'q qilish mumkin emasligi bois, uni oldindan ko'ra bilish, uni kamaytirish choralarini ko'rish lozim.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan fikrlar kursning asosiy yo'nalishlarini tashkil etib, ushbu yo'nalishlarning mazmun va mohiyatini chuqur o'rganish va bo'lg'usi bankirlarga o'rgatish «bank risklari» fanining asosiy maqsadini tashkil etadi.

«Bank risklari» fani tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi risklar, ularning turlari, taxlili va ularni xisoblash yo‘llari, tijorat banklari kredit siyosati va uning mezonlari, tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha yuzaga keluvchi risklar, kreditlash jarayoni bilan bog‘liq risklar, mijozning kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichlari va ularni takomillashtirish yo‘llari, tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi boshqa risklar va ularni boshqarish masalalarini o‘z ichiga olgan.

2. Iqtisodiyotning turli bo‘g‘inlarida risklar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida risk bu - tadbirkorlikning eng asosiy elementlaridan biri xisoblanadi. Riskning o‘ziga xos xususiyatlari bu – noaniqlik, kutilmagan xolat, ishonchsizlik va tahmin. Siyosiy va iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida risk darajasi oshadi.

Riskning ikkita funksiyasibor: rag‘batlantiruvchi va himoyalovchi.

Riskning rag‘batlanturuvchi funksiyasining ikkita jihati bor, ya’ni konstruktiv va destruktiv. Konstruktiv jihati shunday bir xolatda yuzaga keladiki, bunda risk iqtisodiy qarorlarni xal qilishda katalizator rolini o‘ynaydi, ayniqsa innovatsion, investitsion qarorlarni qabul qilishda. Destruktiv ko‘rinishi esa asoslanmagan risk bilan qabul qilingan va amalga oshirilgan qarorlar natijasida yuzaga keladi.

Riskning himoyalovchi funksiyasi ham ikki jihatga ega: tarixiy-genetik va ijtimoiy-huquqiy. Tarixiy-genetik jihati shundan iboratki, insonlar doimo stixiyali tarzda kutilmagan noxush voqealardan o‘zlarini asrash shakllari va vositalarini izlaydilar. Amaliyotda bu sug‘urtalangan rezerv fondlarini tashkil etish, tadbirkorlik risklarini sug‘urtalash kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-huquqiy jixati esa, xo‘jalik, mexnat, jinoiy qonun hujjatlari to‘plamida risk kategoriyalarini joriy qilishda namoyon bo‘ladi.

Bulardan tashqari riskning yana quyidagi xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular qarama-qarshilik, alternativlilik va noaniqliklardir.

Qarama-qarshiliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladilar: risk bir tomonlama muhim iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-ahloqiy natijalarga olib keladi, ya’ni ijtimoiy, texnik rivojlanishni tezlashtiradi, jamiyatning fikr va ma’naviy muhitiga ijobiy ta’sir qiladi. Ikkinchi tomonlama esa, aksincha ta’sir qilishi mumkin, ya’ni risk ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Alternativlilik, bu bir yoki bir qancha ko‘rinishdagi qarorlarni tezlik bilan tanlashda namoyon bo‘ladi. Tanlash lozim bo‘lmagan joyda riskli jarayonlar ham vujudga kelmaydi va risk bo‘lmaydi.

Noaniqlilik, bu albatta noaniq, ya’ni kutilmagan xolatlar bilan bog‘liq. Uning yuzaga kelish va tus olish shakli noaniq bo‘lib qolaveradi. **A.Marshall, Dj.fon Neyman, O.Morgenshtern, F.Naytlar** riskga quyidagicha yondashganlar: «Risk va noaniqlilik kategoriyasi iqtisodiy munosabatlarda katta rol o‘ynaydi. Xo‘jalik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lgan noaniqlilik barcha murakkab va muxim iqtisodiy xodisalarning asosida yotadi. Noaniqlilik mohiyati riskda namoyon bo‘ladi».

O‘tgan asrning 20-yillarida **F.Nayt** birinchilardan bo‘lib daromad doim noaniqlilik bilan bog‘liq degan fikrni olg‘a suradi. **P.Samuelson** esa, quyidagilarni ta’kidlagan: «Noaniqlilik qarama-qarshiliklar natijasida kelib chiqadi, ya’ni insonlar nimalarni kutmoqdalar-u, nimalar sodir bo‘lmoqda, buning natijasi esa foyda yoki zararda namoyon bo‘ladi».

Samarali tashkil qilingan bozor iqtisodiyotida mahsulot ishlab chiqarish kam xarajat qilish bilan, uning taqsimoti esa bozor talabiga asosan amalga oshiriladi. Raqobat korxonalarning xarajatlarini iloji boricha minimum darajagacha kamaytirishga, tovarlar ishlab chiqarishni strategik rejalashtirishga va faqat bozor talabiga mos keluvchi tovarlar ishlab chiqarishga majbur qiladi.

Ma’lumki, faqat iqtisodiy erkinlik, mulkchilik xuquqi, raqobat va boshqa bozor atributlari mavjud bo‘lgan xolda iqtisodiyot samarali bo‘lishi mumkin.

Bozorning eng muhim atributlaridan biri – bu iqtisodiy erkinlik hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy erkinlik asosida faoliyat ko‘rsatish **makro, mezo va**

mikro darajada turli xil risklarga bog‘liq bo‘ladi. Agar O‘zbekistonda davlat taktikasini shartli ravishda:

- davlat boshqaruvi bilan bozor mexanizmining samarali bog‘lanishi bo‘yicha;
- ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolgan holda raqobatbardosh soxalarni rivojlantirish, tadbirkorlik yo‘lini tanlash;
- aholi daromadlarini adolatli taqsimlash yo‘nalishini bosh yo‘nalish deb tanlash kabilar bo‘yicha o‘tkazilishini inobatga oladigan bo‘lsak, shu ochiq maqsadli siyosat modelida ham bir necha gurux risklar – ijtimoiy-siyosiy, fiskal-monetar va iqtisodiy risklarning bo‘lishi muqarrar.

Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma’noga ega bo‘lgan ko‘p qirrali tushuncha. SHuning uchun bank faoliyatining samaradorligiga erishish, uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun iqtisodiyotdagi mavjud risklar, ularning bank faoliyatiga ta’sir qilish tomonlarini chukur o‘rganib chiqish zarur.

Iqtisodiyotning tabaqalashgan darajasida risklarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

- iqtisodiy risk;
- ijtimoiy-siyosiy risk;
- fiskal-monetar risk.

Iqtisodiy risk deganda, umumiy yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, agar bunday tizimning umumiqtisodiy muvozanatini va uning YAIMning o‘sinh sur’atini jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotni chiqarish orqali o‘rnatish maqsadi qo‘yilgan bo‘lsa, u holda ishlab chiqarish shakllarini oqilona uyg‘unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi, davlatning antitsiklik usullar va boshqalardan foydalanib samarali chora-tadbirlar o‘tkazishini taqozo qiladi (*iqtisodiy risk 4-rejada olohida ko‘riladi*).

Ijtimoiy-siyosiy risk deganda, umuman yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, davlatning narxni shakllantirish siyosatiga, shuningdek, mulk va intellektual boylik jamg'armalarining manbalarini:

- aholining barcha guruhini umumiy tavsifdagi risklardan ijtimoiy himoyani ta'minlashga;

- daromadlarning adolatli taqsimlanishiga;

- ishsizlikni qisqartirishga;

- taklif yoki talabning jismoniy xajmlarini narx va boshqalar orqali tartibga solishga safarbar etish va jamlash bo'yicha masalalarni echishga aralashuvida yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi.

Siyosiy risk – bu korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga siyosiy ahvoldagi o'zgarishlar ta'siridir, bunga chegaralarning bekilishi, boshqa davlatlarga mahsulot, xom ashyo olib chiqish taqiqlanishi va aksincha boshqa davlatlardan mahsulot, xom ashyo olib kirilishining ta'qiqlanishi.

Fiskal-monetar risk davlat o'tkazayotgan moliyaviy va byudjet siyosati yordamida, narhlar darajasini barqarorlashtirish va optimal soliq me'yorlarini, pul massasining ta'minoti va kon'yukturasini tartibga solish bo'yicha Markaziy bankning samarali aralashuvi va boshqalar orqali yirik, murakkab tizimlar barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha masalalarni echishda yuzaga keladigan risklar majmuidan iborat.

Tarmoqlar riski ham mavjud bo'lib, u ma'lum bir tarmoqning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatidagi boshqa tarmoqlarga nisbatan o'zgarib turish darajasi bilan tug'ridan-tug'ri bog'liqdir. Tarmoq riskini boshqarishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak bo'ladi:

- alternativ tarmoqlar faoliyati qay darajada, tarmoqlar natijalari o'rtasidagi farq va sabablari;

- yaxshi faoliyat ko'rsatib kelayotgan tarmoqda keskin o'zgarishlar bor bo'lsa, sababi nimadan iborat;

- bank mablag'idan foydalanmoqchi bo'lgan korxonaning moliyaviy natijasi bilan o'z tarmog'i ichidagi o'xshash korxonalar moliyaviy natijalari o'rtasidagi farq.

Tarmoq riskini boshqarishda ishlatiladigan tushuncha bu **sistematik risk** deb yuritiladi. U orqali tarmoqlarda yuz berayotgan tebranishlar darajasi butun iqtisodda yuz berayotgan tebranishlar darajasiga nisbatan solishtiriladi.

3. Banklar faoliyatining risklarga bog'liqligi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek, tijorat banklari faoliyatidan ko'zlangan natija ham birinchi navbatda foyda olishdir. U esa albatta risk bilan bog'liq bo'ladi. SHu tufayli tijorat banklari oldida turgan birinchi maqsad – bu risk va foydalilik o'rtasidagi optimal darajaga erishishdir.

O'zbekistonda bozor munosabatlari tamoyillarining amal qilishi tijorat banklaridan o'z faoliyatlari bilan bog'liq risklarni boshqa xo'jalik sub'ektlariga nisbatan ko'proq o'rganishlarini talab etadi. CHunki tijorat banklari o'z faoliyatlari bilan bir tomondan, o'z aksiyadorlari oldida javobgar bo'lsalar, ikkinchi tomondan, o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar.

Rivojlangan mamlakatlar banklariga nisbatan MDH davlatlari shu jumladan, respublikamiz banklari faoliyati yanada ko'proq riskka ega bo'lmoqda. **Buning asosiy sababi** rejali iqtisodiyot davridagi bank faoliyatini bugungi davr talabiga javob beradigan holda qayta tashkil etilmaganligi va yangi turdagi bank operatsiyalarini amalga oshirishda etarli tajribaning yo'qligi banklar faoliyatidagi risk darajasining yanada oshishiga olib kelmoqda.

Shu tufayli bank riski, uning mohiyati, turlari, kelib chiqishi sabablarini chuqur o'rganish amaliyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bank riski iqtisodiy risklarning bir qismini tashkil qilib bank bilan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga tayanadi.

Mablag'larning kreditlash tamoyiliga rioya qilingan holda mijozlarga berilishi, banklar ishining ma'lum tamoyillar asosida tashkil qilinishi ular faoliyatining turlari risk bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu xol bank riskining **ob'ektiv**ligini ifodalasa, bank faoliyatiga boshqa omillarning ta'siri, ularning natijasini hisoblash imkoniyatining mavjudligi va bir turdagi riskning turli sharoitda bo'lishi, uni turlicha qabul qilish va hisoblay olish uning yuzaga kelishining **sub'ektiv** sabablari hisoblanadi.

Bank faoliyatida riskning yuzaga kelishi ba'zi bir salmog'i, ta'siri, shakli jihatdan turlicha bo'lgan noaniqliklar bilan bog'liq bo'ladi. Chunki bank faoliyati tashqi muhitga bog'liq bo'lib, unga ob'ektiv iqtisodiy va siyosiy jarayonlar va ulardagi bo'ladigan o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o'rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma'lumotlarning etarli emasligi;
- kreditlanadigan loyiha, ob'ekt va mijozlar to'g'risida, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarning to'liq emasligi;
- tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;
- sub'ektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi, mablag'lardan foydalanish bo'yicha bilimi va maqsadlarining turli xilligi va boshqalar hisoblanadi. Shu sababli bank risklarining iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rifi uning ob'ektiv va sub'ektiv sabab va oqibatlarini o'zida ifoda qilmog'i lozim.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, bank riski bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larining bir qismini yo'qotish, yoki daromad ololmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o'tkazishdir, degan ta'rif kelib chiqadi. Bunda birinchidan, banklarning turli operatsiyalari, hox u resurslar jalb qilish bilan bog'liq operatsiya bo'lsin, xoh u mablag'larni investitsiya qilish yoki kredit berish, yuqori daromad olish maqsadida havfli

valyuta operatsiyalarini o'tkazish bo'lsin – bankning barcha operatsiyalari uning ma'lum bir yo'qotishlar bilan bog'liq sharoitda ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ikkinchidan, bank doimo har bir operatsiyasi unga ijobiy natija keltirishga umid qilgan holda bir turdagi operatsiyani amalga oshiradi.

Bank faoliyatining risk bilan bog'liq bo'lishi harajatlar, zararlar va yo'qotishlar kabi kategoriyalarning doimiy uchrab turishini va ular bank amaliyotining kunlik monitoringida bo'lishini taqozo qiladi. Banklarda harajatlar, zarar yoki yo'qotishlar - bular o'z-o'zidan risk hisoblanmaydi. Bu tushunchalarning har biri o'zining mohiyatiga ega.

Bankning depozitlar, jamg'armalar va boshqa jalb qilingan mablag'lar bo'yicha foiz to'lash, boshqa moliya-kredit institutlaridan jalb qilingan mablag'lar uchun foizlar to'lash, bank hodimlari uchun ish haqi to'lash va boshqa operatsion harajatlari bilan bog'liq risklari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: bozor iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar aholi jamg'armalari bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalarini oshirishda, kredit resurslarining etarli emasligi, kredit resurslarini sotib olish qiymatining oshishi, bank hodimlarining ish haqi bilan bog'liq harajatlari oshirish kabilarda o'z ifodasini topadi. Bank harajatlarning me'yordan oshishi, daromad ola olmasligi bankga zarar olib keladi.

Bankning zarar ko'rishi bank faoliyatida uchraydigan risklarning oldini ololmaslik, undan qocha olmaslik natijasida yuzaga keladi. Bank faoliyatida risklar kelajakda amalga oshiriladigan operatsiyalarni oldindan obdan tahlil qilmaslik, holatni yaxshi o'rganmaslik, mablag'larni samarali joylashtirmaslik, bozor imkoniyatlariga to'g'ri baho bermaslik, bank faoliyati uchun salbiy natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa holatlarni oldindan seza olmaslik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Zararlarning yuqori bo'lishi banklarda yo'qotishlar bo'lishiga olib keladi. Yo'qotishlar esa bank foydasini kamaytiruvchi omil hisoblanib, u bank faoliyatining risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Riskning hajmi bank amalga oshiradigan operatsiyalarining risklilik darajasiga, bankning risk soxasidagi strategiyasi sifatiga bog'liq bo'ladi. Bank rahbariyatining

foydani ko‘paytirishga intilishi extimoliy zararlarni imkon qadar kamaytirish bilan birga kechadi. Ushbu ikki maqsad bir-biriga muayyan darajada zid bo‘lib, bu bank ma‘muriyati va uning omonatchilari manfaatlarining qarama-qarshiligi bilan bog‘liqdir. Bank ma‘muriyati foydani ko‘paytirishga intiladi va qo‘shimcha foyda olish uchun risk qilishga tayyor turadi. Omonatchi uchun esa mablag‘larining saqlanishi va bankga ishonch masalasi muhimroqdir. Daromadlilik va risk o‘rtasidagi maqbul nisbatni saqlab turish bankni boshqarishning eng asosiy va murakkab muammolaridan biridir.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari buyicha aniq guruhlariga bo‘lish bilan bog‘liq. Risklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularni har birining umumiy tizimdagi o‘rnini belgilash, ularni boshqarishning samarali usullarini qo‘llash imkonini beradi.

Risk turlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ular banklar faoliyatiga turli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat risklarning odini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va riskning aniq bir turlarini tahlil qilish, ularning yuzaga kelishi sabablarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Bank faoliyati natijalariga ta’sir etish darajasiga ko‘ra bank risklarini **past, o‘rtacha va to‘liq risklarga** bo‘lish mumkin. Bank riskining darajasi bank yo‘qotishlariga olib boruvchi voqealar extimoli bilan xarakterlanadi. Ular foizlarda yoki muayyan koeffitsientlarda ifodalanadi. Chet el tijorat banklari, jumladan, Britaniya banklari risklarni 5 toifaga ajratadi. Bular:

1. **A toifa** – kichik yoki nol risk.
2. **B toifa** – oddiy risk.
3. **V toifa** – oshgan risk.
4. **G toifa** – katta yoki yuqori risk.
5. **D toifa** – nomaqbul risk.

Bizda risk toifalarining darajalanishi bank aktivlarini risk darajasini xisobga olgan holda guruhlash ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Vujudga kelish shakllariga ko‘ra bank risklari: tizimli yoki tizimsiz risklarga bo‘linadi. **Tizimli risklar** – bank tizimidagi umumiy vaziyat natijasida bankning moliyaviy ahvoli o‘zgarishi ehtimoli sifatida ta’riflanadi. **Tizimsiz yoki nomuntazam risklar** – bank tizimida umumiy ahvol barqaror saqlangan holda alohida olingan bankning moliyaviy ahvoli yomonlashish ehtimolini bildiradi. Bank riskining bu turlari odatda bir-biri bilan juda bog‘liq bo‘lganligi uchun amaliyotda bu turdagi risklarni bir-biridan ajratish juda qiyin.

Vujudga kelish sabablariga ko‘ra risklar: sof va sun’iy risklarga bo‘linadi. **Sof risklar** – ko‘pincha ob’ektiv xususiyatga ega bo‘ladi va salbiy («0») natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu risklarga tabiiy, ekologik, transport risklari, tijorat riskining bir qismi kiradi. Chayqovchilik risklari iqtisodiy faoliyat, jumladan bank faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. U ijobiy yoki salbiy natijaga erishish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Bu risklarga paydo bo‘lish sabablariga qarab tabiiy, ekologik, siyosiy va boshqa kategoriyalar vositasida yuzaga keluvchi moliyaviy risklar kiradi.

Ta’sir vaqtiga ko‘ra risklarni: retrospektiv, joriy yoki istiqboldagi risklarga ajratish mumkin. **Retrospektiv risklar** – bank faoliyatining o‘tgan davrdagi turli risklarga bog‘liqligini ifodalaydi va joriy hamda istiqboldagi risklarni baholashga yordam beradi.

Boshqarish usuli buyicha bank risklari: ochiq va yopiq bo‘ladi. **Ochiq risklarni** – tartibga solib bo‘lmaydi. **Yopiq risklarni** – esa boshqarish mumkin. Yopiq risklar diversifikatsiya siyosatini o‘tkazish yo‘li bilan tartibga solinadi. YA’ni bunda bank operatsiyalari umumiy hajmini saqlash maqsadida bir necha mijozlarga berilgan kreditlarni kichik summalarda keng miqyosda taqsimlash yoki yirik kreditlarni konsorsional asosda berish; depozit sertifikatlarini joriy qilish; qayta hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish, kredit va depozitlarni sug‘urtalash amalga oshiriladi. Banklarda ko‘pincha mijoz tanlashga nomunosib yondashuv natijasida balanslashmagan

likvidlilik riski paydo bo'lib, u beqaror iqtisodiy vaziyatdagi tashkilotlarni kreditlashga ustunlik berilganda kelib chiqadi.

Hisoblash usuliga ko'ra risklarni: umumiy yoki xususiy risklarni ajratish mumkin. **Umumiy risk** bank riskining hajmi, uning daromadi va bank likvidligi me'yorlariga bog'liq ravishda baholanadi yoki taxmin qilinadi. **Xususiy risk** alohida bank operatsiyasi yoki ularning guruhlariga bo'yicha risk koeffitsientlari shkalasi asosida baholanadi.

Vujudga kelish sohasiga ko'ra bank risklari: tashqi va ichki risklarga bo'linadi.

Tashqi risklar – makromuhit darajasida yuzaga keladi. Ular bank faoliyati bilan bevosita bog'liq emas. **Ichki risklar** – bankning faoliyati natijasida yuzaga keladi. Risklarni ichki va tashqi hamda sof va chayqovchilik risklariga bo'lib tahlil qilishda ularning o'xshashlik tomonlarini ochib berishi mumkin. Haqiqatdan ham tashqi va sof risklar tushunchasi mohiyatan bir-biriga o'xshab ketadi. Biroq ichki risk chayqovchilik riskidan kengroq bo'lib keyingisini ham o'z ichiga oladi. Tashqi risklar darajasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy-iqlim risklarini alohida ajratib ko'rsatish zarur. Tashqi risklarning **o'ziga xos xususiyati** shundaki, ular bank faoliyati natijalariga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu bank oldida pul majburiyatlariga ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlarining ushbu riskga aloqadorligi va munosabatiga bog'liq.

Tashqi risklar orasida ko'pincha ta'sir darajasi bog'liqligiga ko'ra siyosiy risklar, iqtisodiy risklar va tabiiy-iqlim risklari ajratib ko'rsatiladi. **Siyosiy risklar** mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog'liq. **Iqtisodiy risklar** mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi (*4-rejada iqtisodiy risklar alohida kurib utiladi*).

Tabiiy-iqlim risklari tabiiy ofat va halokatlar — zilzila, suv toshqini, bo'ron, yong'in, epidemiya; odamlarning noo'rin faoliyati natijasida ekologik muvozanatning buzilishi va boshqalarga bog'liq.

Mamlakat riski, halqaro bank amaliyotida va bank tashkilotlari, qo'shma banklar faoliyatida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo'lgan risklar bilan

bevosita bog‘liq. Bu risklarning bo‘lishi va ularning darajasi esa importyor yoki eksportyor davlatlar yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog‘liq. Har bir mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo‘shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo‘lgan bank tashkilotlari uchun dolzarbdir. Bank amaliyotida uning rahbariyati chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto‘g‘ri baho berish natijasida ancha xatolarga yo‘l qo‘yadilar. SHuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o‘rnatishda, ayniqsa kredit va hisob-kitoblar bilan bog‘liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim.

Mamlakat riskini baholashda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish lozim:

- iqtisodiyotning samaradorligi (bunda davlat bo‘yicha yalpi milliy mahsulotning o‘rtacha yillik o‘sishi hisoblanadi);

- siyosiy risk darajasi;

- jahon banki ma’lumotlariga asosan olingan kreditlar miqdori, ular bo‘yicha qarzdorlik darajasi, kreditni qaytib to‘lash jarayonining amalga oshirilish sifati, eksport hajmi, tashqi qarzlar, tashqi savdo oboroti va boshqalar;

- bank kreditlarini olish imkoniyati;

- qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;

- uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;

- fors-mojor holatlarining yuzaga kelishi;

- mamlakatning kreditga layoqatlilik darajasi; tashqi qarzlar bo‘yicha to‘lanmagan majburiyatlar va boshqalar.

Riskning asosiy turlari bir-biri bilan bog‘liq va amaliyotda ularni ajratish ko‘pincha murakkabdir. O‘z navbatida siyosiy va iqtisodiy risk ham ichki, ham tashqi bo‘lishi

mumkin. Alohida olingan bank faoliyatiga sezilarli ta'sir qiluvchi risklar **ichki risklar**dir. Banklar ichki risklariga bankning o'z faoliyati, uning mijoz (qarzdor)lari yoki uning muayyan kontragentlari bilan bo'lgan faoliyatiga bog'liq risklar kiradi. Bankning o'z rahbariyatining tadbirkorlik faolligi, optimal marketing strategiyasi siyosati va taktikasini tanlash hamda boshqa omillar ichki risk darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ichki risklar bank operatsiyalarining xususiyati, bank mijozlarining tarkibi va tijorat banklarining turlari bo'yicha guruhlariga bo'linadi.

Bank operatsiyalari xususiyatiga ko'ra risklar:

- balans operatsiyalari riski;
- balansdan tashqari operatsiyalar riski;
- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklarga bo'linadi.

O'z navbatida **balans operatsiyalari risklari** bankning aktiv operatsiyalari riski, bankning passiv operatsiyalari riski, aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq riskga bo'linadi.

Aktiv operatsiyalar riskiga kredit, hisob-kitob, kassa, bozor, valyuta, lizing, faktoring risklari, moliyalash va investitsiyalar bilan bog'liq risklar kiradi.

Kredit riski mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi. Bank kredit berib, uning o'rniga mijozning tegishli hujjatlarini oladi. Bu hujjatlar mohiyati jihatidan to'lash to'g'risidagi va'da xalos. Qarzdorlar tomonidan va'da qilingan foizlar va kredit asosiy summasining bir qismi yoki hammasining to'lanmasligi, oxir oqibatda bank uchun zarar olib keladi, bu esa o'z navbatida bank kapitalini kamaytirishi mumkin. Odatda bank kapitali jami berilgan kreditlar va riskli qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar summasining 10% dan oshiq bo'lmagan miqdorda bo'ladi. Kredit va investitsion faoliyatdagi bir necha xatolar bank kapitali olingan zararlarni qoplashga ham etmay qolishi holatiga olib kelishi mumkin. Buning oqibatida bank (davlat organlari tegishli tartibda moliyaviy yordam

bermasa) bankrot bo‘ladi va yopiladi. Bank kreditlari risklarining eng ko‘p ishlatiladigan ko‘rsatkichlari:

- harakatsiz (muammoli) kreditlarning kreditlar va lizing bo‘yicha majburiyatlarning jami hajmiga nisbati;
- kreditlar bo‘yicha hisobdan chiqarish (zararga olib borish) summasining kreditlar va lizing bo‘yicha majburiyatlarning jami summasiga nisbati.

Risk darajasini baxolashga hamda uni kamaytirishga qaratilgan eng qadimiy choralardan biri bu risklarni sug‘urta qilish usulidir. Bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarining bu usuldan foydalanishlari bir muncha kiyyinroq bo‘lmoqda, chunki o‘tish davrida barcha MDH davlatlaridagi kabi bizning respublikamizda ham sug‘urta faoliyati yangi davr talablari ostida qayta tashkillashtirilmoqda va yangi o‘zlashtirilayotgan sohalar qatoriga kirmoqda. Bank risklarini paydo qiluvchi faktorlar asosida eng avvalo iqtisodiy hamda siyosiy faktorlar yotadi.

Quyidagi 1–jadvalda bank risklarini boshqarish jarayonining vazifalarini belgilovchi to‘rtta asosiy bosqichi ko‘rsatilgan:

Bank risklarini tahlil qilish va baholash.	Risk miqdorini aniqlash.	Bank risklarini boshqarish.	Bank risklarini boshqarish.
Bank axborot manbalari-dan kredit risklarini va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganib chiqish hamda ularni nazorat qiladigan risklarga ajratish kerak.	Riskning miqdoriy ko‘rsatkichini aniqlash extimo-liy yo‘qotishlar miqdorini aniqlashga va aktiv boshqarish instrumentlari vosita-sida risk daraja-sini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.	Boshqariladigan risklar va ularning miqdori aniqlanga-nidan keyin, kredit risklarini boshqarish metodologiyasi va strategiyasi ish-lab chiqilishi zarur.	Risklarni boshqa-rish bo‘yicha tadbirlar natijalari nazorat ostida bo‘li-shi lozim.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi **2004 yil iyun** oyida tijorat banklari kapitali etarliligini ta'minlash muammosi hamda ular tomonidan iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni yaxshilash masalalariga bag'ishlangan yangi yondashuv «Kapitalni o'lchash va kapital standartlarining halqaro konvergensiya (Bazel II ni) e'lon qildi. Bu talablar uchta komponentga asoslanadi:

1. Kapital etarliligiga minimal talab (kredit, operatsion va bozor risklarining baholash jihatlarini aks ettiruvchi tijorat banklari kapitali etarliligi minimal talab). Bundan asosiy maqsad, bank regulyativ kapitalining mavjud iqtisodiy risklarga nisbatan ta'sirchanlik darajasini yanada aniqlashtirishdan iborat.

2. Nazorat jarayonlari (joriy nazorat). U banklar va nazorat organlari o'rtasidagi aloqalarni yanada yaxshilashga urg'u beradi. Bazel qo'mitasi risklarni hisoblashda nafaqat kapitalga nisbatan minimal talablarga rioya qilinishini tekshirish, balki tijorat banklari va nazorat organlarining tahlil imkoniyatlarini rivojlantirish, xususan kapital etarliligini ichki baxolash metodlari bilan baxolashda stress-testni yo'lga qo'yishni taklif etadi. Stress-test aktivlarni baxolashda yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

3. Bozor dastaklaridan samarali foydalanish (bozor intizomi). Bu komponent yuqoridagi ikkita komponentni to'ldiradi, shuningdek bozor intizomining mustahkamlanishiga imkon yaratadi. Buning uchun banklar tomonidan o'z faoliyatiga taalluqli axborotlarni oshkor etishga bir qator talablar belgilangan.

4. Iqtisodiy risklar, ularning turlari va ularda bank riskining o'rni.

Iqtisodiy risklar – bular mamlakat yoki bankning iqtisodiy ahvolidagi salbiy o'zgarishlar oqibatida yuzaga keladigan risklar. Eng ko'p tarqalgan iqtisodiy risk turiga balanslashmagan likvidlik riski kiradi, ya'ni majburiyatlar bo'yicha tulovlarni o'z vaqtida bajara olmaslik.

Iqtisodiy risk deganda, umumiy yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, agar bunday tizimning umumiqtisodiy muvozanatini va uning YAIMning o'sish sur'atini jahon borzorida raqobatbardosh mahsulotni chiqarish orqali o'rnatish maqsadi qo'yilgan bo'lsa, u xolda ishlab chiqarish shakllarini oqilona uyg'unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi, davlatning antitsiklik usullar va boshqalardan foydalanib samarali chora-tadbirlar o'tkazishini taqozo qiladi.

Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi. Tuzilish belgilariga ko'ra iqtisodiy risklar mulkiy, tarmoq va moliyaviy risklarga bo'linadi. **Mulkiy risklar** o'g'rilik, diversiya, terrorchilik harakati, ekologik tanglik va boshqa sabablarga ko'ra mulkni yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq. **Tarmoq risklari** iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahvolning o'zgaruvchanligi tufayli yuzaga keladi. **Moliyaviy risklar** pulning xarid quvvati o'zgarishi natijasida pul mablarlarini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq. Unga pulning qadrsizlanishi va deflyasiya risklari kiradi.

2-jadvalda maqsadning funksionalligi, vazifalarning umumiyliigi, operatsiyalar o'xshashligining darajasi va boshqa omillarga qarab risklarni iqtisodiyotning makro, mezo va mikro darajada tasniflanishi ko'rsatilgan.

2-jadval: Risklar tasnifi.

Iqtisodiyotni boshqarish darajasi	Boshqarish sohasi	Risklar nomi
I. Makrodjarajada	Iqtisodiyotni umumiy tartibga solish, ichki raqobat qonunlari va boshqalar.	Iqtisodiy
	Siyosiy barqarorlik, davlatning etakchi roli va boshqalar.	Ijtimoiy-siyosiy
	Davlatning byudjet yoki moliyaviy siyosati.	Fiskal-monetar
II.	Mulkchilikning korporativ shakllari, to'la xo'jalik mustaqilligi, firmalarning tarmoqqa kirish va undan chiqish xuquqi	Sanoat Agrar

Mezodarajada	va boshqalar	Xizmat ko'rsatish soxasi
III. Mikrodarajada	Namoyon bo'lish bosqichi bo'yicha - sub'ektlarning xo'jalik faoliyati riski va loyixa riski.	I. Tadbirkorlik
	Funksional maqsadi - moliyaviy va tijorat operatsiyalarini boshqarish.	
	Funksional maqsadi - anik loyixa turlariga bog'lash.	II. Investitsiya
	Xo'jalik sub'ektining xo'jalik faoliyati	Tadbirkorlik riski uchun: 1.Moliyaviy. 2.Tijorat.
		Moliyaviy bank riski uchun: 1.1.Valyuta. 1.2.Kredit. 1.3.Foiz. 1.4.Bozor (portfel). 1.5.Marketing. 1.6.Ishbilarmonlik.
		Valyuta riski Kredit riski.

Iqtisodiy risk **Makrodarajada** iqtisodiy risk tashqi va ichki, oldindan aytib bo‘ladigan va aytib bo‘lmaydigan, **mezodarajada** – sanoat, agrar va xizmat ko‘rsatish sohasi risklariga bo‘linadi. **Mikrodarajada** sanoat riski, firmaning xo‘jalik faoliyati riski – tadbirkorlik va investitsiya riski va boshqalarga bo‘linadi.

Mamlakat miqyosida makrodarajada iqtisodiy risklarni aniqlash juda muhim bo‘lib, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatish, chetdan investitsiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy qo‘yilmalar jalb qilishda katta ahamiyatga egadir.

Har bir mamlakatning rivojlanish mavqei bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy risklar, halqaro bank amaliyotida pul oqimi, kredit va xisob operatsiyalari sohasida bo‘lgan risklar bilan bevosita bog‘liq. Bu risklarning bo‘lishi va ularning darajasi esa importchi yoki eksport davlatga yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog‘liq. Har bir mamlakatda iqtisodiy yoki siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi iqtisodiy risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo‘shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo‘lgan bank tashkilotlari uchun dorlzarbdir. Bank amaliyotida uning raxbariyati chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto‘g‘ri baho berish natijasida ancha xatolarga yo‘l qo‘yishlari mumkin. SHuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o‘rnatishda, ayniqsa kredit va xisob-kitoblar bilan bog‘liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim. Jaxon amaliyotida shu maqsadda tavsiya etiladigan yo‘llardan biri bu mamlakat iqtisodiy risklari hajmini taxlil qiluvchi BERI indeksidan foydalaniladi. Uning yordami bilan oldindan mamlakat iqtisodiy risklarining hajmi belgilanadi.

Mamlakat iqtisodiy riskini bashorat qilish davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdek amaliy ma’lumotlar va nisbatlarni o‘rganishga asoslangan miqdor ko‘rsatkichlariga tayanishi kerak.

Taxlilning ikki turi (sifat va miqdor)ning uyg‘unlashuvi aniq va ravon bo‘lishi barcha jadvallar va taqqoslangan ma’lumotlar taxlilni engil qilish va uning samaradorligini oshirish uchun qisqartmalarni ochib berilishini o‘z ichiga olishi kerak.

Shu asosiy tamoyillar mamlakat riskini aniqlashda taxlil qilinayotgan statistik va analitik yo'nalishlarning ikki pog'onali tizimini tashkil qilishga olib keladi. Birinchi pog'onada o'lkadagi holat to'g'risidagi xisobot tashkil kilinadi (qiskacha iqtisodiy ahvol ta'rifi). Eng avvalo tahlilning muhim bo'limi keltiriladi, ya'ni mamlakat iqtisodiy riskining darajasi haqida xulosa, ya'ni mamlakatning iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lgan asosiy ma'lumotlar va asosiy xulosalar tahlil qilinadi.

Tahlilning ikkinchi pog'onasida aniq iqtisodiy-siyosiy vaziyat taxlil qilinadi, marketing tadqiqining natijalari ko'rib chiqiladi va omillar riski chizmasi bo'yicha davlatning iqtisodiy riski darajasi aniqlanadi.

Makrodarajada mamlakat iqtisodiy riskini baholashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar tahlil qilinishi mumkin:

- iqtisodiyotning samaradorligi (bunda YAMMning o'rtacha yillik o'sishi hisoblanadi);
- siyosiy risk darajasi;
- jahon banki ma'lumotlariga asosan olingan kreditlar miqdori, ular bo'yicha qarzdorlik darajasi, kreditni qaytib tulash jarayonining amalga oshirilish sifati, eksport xajmi, tashqi qarzlar, tashki savdo oboroti va boshqalar;
- bank kreditlarini olish imkoniyati;
- qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;
- uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;
- fors-mojor xolatlarining yuzaga kelishi;
- mamlakatning kreditga layoqatlilik darajasi;
- tashki karzlar bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar.

Iqtisodiyotning mezo va mikrodarajalarida risklarning turlari va ta'sirchanlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bu o'z navbatida risklarga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq

bo'ladi. Xo'jalik sub'ektlari faoliyatida mavjud risklarga ta'sir etuvchi barcha omillarni shartli ravishda ikki guruhga: ob'ektiv va sub'ektiv yoki boshqarilmaydigan va boshqariladigan omillarga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga korxona yoki firmaga bevosita bog'liq bo'lmagan omillar (inflyasiya, raqobat, iqtisodiy inqirozlar, ob-havo sharoitlari) kiradi. Ikkinchi guruhga muayyan korxona yoki firmaning faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan omillar (ishlab chiqarish – texnikaviy imkoniyati, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish, texnika havfsizligi darajasi va h.k.), shuningdek firmaning xo'jalik-moliyaviy faoliyatida juda muhim xisoblangan kontragent firmalar (mol etkazib beruvchilar, subpudratchilar, loyixalashtiruvchilar) va raqobatchi firmalarni tavsiflovchi omillar kiradi.

Iqtisodiyotning mezodarajadagi risklarining salmoqli turi - sanoat riski ma'lum tarmoqning ichida ham, boshqa tarmoqlarga nisbatan ham alohida olingan tarmoq iqtisodiy ahvolning o'zgarishi, uning rivojlanishi va amal qilishining o'ziga xosligi bilan bog'liq.

Xo'jalik tarmog'iga nisbatan soliq me'yorlaridagi, tarmoq yo'riqnomalari, kredit olish shartlari va boshqalardagi o'zgarishlar risk manbai bo'lib xisoblanadi. Sanoat riskini baholashda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

- alohida olingan tarmoqning bir-biriga bog'liq tarmoqlar bilan o'zaro aloqada ma'lum vaqt mobaynidagi faoliyati (tarmoqning hayotiy davri);
- bir-biriga bog'liq tarmoqlar faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan qanchali barqaror bo'lishi;
- korxona yoki firmalarning o'z kapital qo'yilmalarini boshqa tarmoqlarga o'tkazish imkoniyati;
- firmalarning bajarayotgan ish xajmi, ishlaydiganlar soni, tarmoq ichidagi ularning xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalari bo'yicha qay darajada tasnif qilinganligi va h.k.

Ijtimoiy-siyosiy risklarga avvalo huquqiy omillar kiradi. Davlat savdo va valyuta orqali iqtisodiyotni tartibga solishni amalga oshiradi, valyuta cheklovlari va valyuta

intervensiyalari, kvotalash, litsenziya berish, bojxona bojlari, subsidiyalar va boshqalardan foydalanadi. Bunda barcha vositalar o‘zaro uzviy bog‘liq. Ijtimoiy siyosatdagi o‘zgarishlar ish bilan bandlik, daromadlar darajasi, milliy mahsulot ishlab chiqarish xajmi, import va eksport miqdorlariga ta’sir qiladi. Risklar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning barcha vositalariga ta’sir darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish muhim. Chunki har bir harakat risk bilan bog‘liq bo‘ladi va demak, risklar bir-biridan alohida amal qilolmaydilar.

Fiskal-monetar risk ham ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida bo‘lib, u davlatning fiskal-monetar siyosatini o‘tkazishda namoyon bo‘ladi. Davlatning fiskal va monetar siyosati iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlashtirishga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. Fiskal-monetar risklar davlatning daromadlar va xarajatlar sohasidagi antitsiklik chora-tadbirlar yordamida tarmoq va firmalarning ish bilan faollik sohasini aniqlashni talab qiladi. Fiskal risklarning tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy-byudjet siyosati hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, iqtisodiyotning tabaqalik darajasidagi risklarning asosiy qismi banklar faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu risklar bankning turi va xususiyatiga, uning faoliyati, xarakteri, hamda uning mijozlari tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Ixtisoslashgan, tarmoqlashgan va universal tijorat banklarining har birida riskning hamma turlari mavjud bo‘ladi, lekin ularning paydo bo‘lish extimoli va xususiyati bank muassasasining turiga bog‘liqdir. Halqaro bank amaliyotida universal tijorat banklarining faoliyati turlicha bo‘lib, ular iqtisodiyot bilan bog‘liq hamma xizmat turlari bilan shug‘ullanadilar. Ixtisoslashtirilgan tijorat banklari asosan o‘z faoliyatlarini aniq bir soxaga xizmat ko‘rsatishga, ya’ni aniq bir ob’ektga yo‘naltirilgan faoliyatga qaratgan bo‘ladi. SHu jihatdan iqtisodiyotning shu sohasida mavjud risklar ixtisoslashgan banklar faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Misol uchun, faoliyati bo‘yicha innovatsion, investitsiyaviy, ssuda, jamg‘arma, ipoteka, depozit, kliring, ma’lum bir mijozlar turiga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan, tarmoq bo‘yicha yoki funksional belgisi bo‘yicha faoliyat olib boruvchi banklar keng qamrovli faoliyat ko‘rsatib turli xil iqtisodiy risklarga duchor bo‘lishlari mumkin.

Undan tashqari halqaro bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ixtisoslashtirilgan tijorat banklarining faoliyati iqtisodiyotning rivojlanishiga, bozorga yo'naltirilgan bo'lib, ular hududiy, hududlararo va transmilliy bo'lishi va hududlar, mintaqalarda yuzaga keluvchi ob'ektiv va sub'ektiv risklar ular faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin.

Ichki risklarning har xil turlari va darajalari bilan tijorat banklarining to'qnashishi asosan ular faoliyatining xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining sub'ektlari xisoblangan korxonalar, xorijiy investorlar, davlat, yakka xujaliklar va ular bilan bog'liq ashyoviy (tovar) va monetar (pul) oqimi tebratadi. Xujalik oborotining g'ildiragi bu – pul mablag'lari bo'lib, ular banklar va boshqa moliyaviy muassasalar orqali oqib o'tadi. SHuning uchun iqtisodiyotning qaysidir bir sohasi yoki kanalida mavjud risklar banklar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqtisodiyotda nafaqat pul oqimida, balki barcha jarayonlarda riskning yuzaga kelishi uni yuzaga keltiruvchi manbalarga bog'liq bo'ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, risk bu faoliyat ko'rsatuvchi sub'ektlar amaliyotida yuzaga kelib iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda aniq va echimi bo'lmagan holatning son va sifat jihatdan bog'liq bo'lgan vokeliqni anglatadi.

5. Risk konsepsiyasi, fikrlar va muammolar.

Risk insoniyat faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan tarixiy va iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilar faoliyatida yoki tabiiy hodisalarda mumkin bo'lgan yuqotishlar salmog'ini bildirgan, hamda tarixan jamiyat rivojlanishi bilan odamlarning halokatdan qo'rqish darajasiga moslashib turgan.

Tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va sub'ektlar faoliyatida mustahkam o'rinish olishiga imkoniyat yaratdi. SHuning uchun ham risklar bizni tunu-kun, har er va har joyda o'rab kelmoqda. U bizning hayotimizda har doim ham qochib bo'lmaydigan va echish lozim bo'lgan bir jarayon bo'lib biror-bir natijani yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bunday natija salbiy va ijobiy bo'lishi mumkin. Riskning sinonimi sifatida biz ishonchizlikni, imkoniyatsizlikni,

bir voqea bo'lish bo'lmashligini oldindan aytib bera olmaslik kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz ham mumkin.

Insoniyat tabiatan riskdan qochishga intiladi. Agar biz riskni nazorat qila olmasak, odatda, undan qochishga harakat qilamiz. CHunki, har qanday ishonchsizlik o'ziga xos tarzda ma'lum darajadagi yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Endi riskning tub mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, «**risk**» so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, «**suv ostidagi qoya**» degan ma'noni bildiradi. SHuning uchun ham risk xavf tug'dirish ehtimoli mavjudligini ifoda qiladi. Taniqli lug'atchi **S.N.Ojegov**ning rus tili lug'atida «risk» bu «muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid» degan ma'noni anglatadi deyilsa, mashhur Vebstera lug'atida riskga «havf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli», deb qaralgan. **V.T.Sevruk** «risk - bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir» degan ta'rif beradi.

Professor **V.M.Usoskin** «Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxirgi o'z navbatida oldindan ko'ra bilish kiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi» deb izohlaydi. Ba'zi mualliflar tomonidan risk bu noaniqlik deb ta'riflanadi.

E.S.Stoyanova «Risk - bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir» deb ta'rif keltirgan.

P.G.Grabovyy, S.N.Petrova, S.I.Poltalsevlarning «Riski v sovremennom biznese» kitobida «Risk - bu korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha xarajatlar qilish havfidir», deb ta'rif berganlar.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarning barchasida risk qandaydir havf-xatar va zararlar ko'rishdan iborat ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan. Riskni ta'riflaganda, uni zarar bilan bog'liq havf-xatar, noaniqlik deyish risk tushunchasining mohiyatini to'la ifodala olmaydi.

Yuqoridagilarga o'xshagan ta'riflarni mahalliy iqtisodchilarimizning ishlarida ham uchratish mumkin. Undan tashqari, ohirgi yillarda chop qilinayotgan ko'pgina

mualliflarning ishlarida «risk» soʻzini oʻzbekchaga tarjima qilishga harakat qilingan. Natijada hozirgi kunda turli mualliflar tomonidan «risk» termini turlicha nom bilan talqin qilinmoqda. Baʼzi bir iqtisodchilar riskni «tavakkalchilik» deb ifodasalar, boshqalari riskga «hato», «ikkilanish», «noaniqlik», «mavhumiylik» va hokazolar deb taʼrif berish toʻgʻriroq degan xulosa qiladilar.

Har bir faoliyatni amalga oshirishda ikkilanish yoki havf-xatar boʻlishi mumkin. Lekin ularni risk mazmunida ifoda qilib bulmaydi.

Havf-xatar deganda biz oldindan biron salbiy natija beruvchi, yoki biron-bir salbiylikka yoki zarar, talofatga olib keluvchi jarayon mavjudligini bilamiz va biz qoʻrquv, hadiksirash bilan shu voqelikka yondashamiz.

Bank risklari toʻgʻrisida iqtisodchi olimlarning fikrlari xilma-xil boʻlib, ular bu tushunchaning **mohiyatini** turlicha talqin qilganlar. Buning sababi shundaki, risk keng maʼnoli, faoliyatning, jarayonlarning turli bosqichlarida uchrab turuvchi koʻp qirrali tushunchadir. Bank riskining mohiyati koʻpgina mahalliy iqtisodchilar tomonidan masalan, «Kredit. 100 savolga – 100javob» kitobi muallifi Yo.Abdullaev, T.Boboqulov bank tavakkalchiligi, «kredit havf-xatari», «Iqtisodiyot nazariyasi» kitobi muallifi A.Oʻlmasov, M.Sharifxoʻjaevlar tomonidan esa «bank xatari» deb yuritiladi. Bank foyda koʻrishi uchun esa bu xatarni kamaytirishi lozim.

Iqtisodchi olim **O.I.Lavrushin** «Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat oʻlchovi boʻlib, u yoʻqotishlarga olib keladi» degan fikrni ilgari suradi.

Rossiyalik yana bir iqtisodchi **G.Panova** «Risk kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yoʻqotish havfi yoki imkoniyatidir» deb taʼrif beradi. U oʻz taʼrifi orqali ikki asosiy yoʻnalishni asoslab bermoqchi boʻladi. Bular, birinchidan, Professor O.Lavrushinning risk toʻgʻrisidagi fikri bilan hamohang boʻlib, u ham risk bu yoʻqotishlarni ifodalaydi deb oʻqtirsa, ikkinchidan risk bu kutilmagan hodisa ekanligini taʼkidlamoqchi.

Lekin, «Bank risklari va kreditlash» kitobi muallifi **Sh.Z.Abdullaeva** G.Panovanning yuqorida riskga berib oʻtgan taʼrifiga qoʻshilmagan va quyidagicha taʼkidlagan: «Bank

amaliyotida risk har doim ham kutilmagan xodisa emas. Bank faoliyatining barcha turi risk bilan bog'liq. Bank shu faoliyat turi yoki operatsiya riskli ekanligini bilib turib, shu operatsiyani amalga oshirishga qaror qiladi yoki amalga oshiradi va u barcha xollarda shu operatsiya natijasida yuqori daromad olishni rejalashtiradi. Shu sababli biz G.Panovanning bank riskiga bergan ta'rifiga to'la qo'shila olmaymiz».

«Bank ishi» kitobi muallifi **I.R.Toymuxamedov** esa bank riskiga quyidagicha ta'rif bergan: «Risk - bu ma'lum maqsadni ko'zlagan xolda olib borilayotgan faoliyat natijasida bo'lgan ishonchsizlik, ba'zan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yo'qotishlardan iboratdir. Risklar bank faoliyatida o'lchash mumkin bo'lgan ko'rsatkichdir va ular doim bankning bajarayotgan operatsiyalaridan olgan zarariga, yo'qotgan daromadiga teng bo'ladi».

Ba'zi xorijiy iqtisodchi olimlarning shu sohadagi ishlari bilan tanishib, ular tomonidan ham bank risklarining mohiyatiga turli xil ta'rif va tasnif berilganligini ko'rish mumkin.

Chet ellik olimlar risklarni ta'riflashdan ko'ra ularning aloxida olingan turlarini ko'rishni afzal xisoblaydilar. Masalan, **K.D.Valravenning** fikricha G'arb mamlakatlari banklari ko'proq likvidlik riski, kredit, portfel, sanoat, mamlakat, valyuta, foiz riskiga duchor bo'ladilar. «Bankovskiy menejment» kitobi muallifi **P.S.Rouz** risklarga kengroq tushuncha berib, u bank riski oltita asosiy turdagi risk - kredit riski, foyda ololmaslik riski, likvidlik riski, bozor riski, foiz riski, to'lay olmaslik riskidan tashkil topgan bo'lib, bu risklar bank faoliyatida juda muhim, xal qiluvchi risklar hisoblanadi, deydi. Bank uchun ikkinchi darajada bo'lgan risklarga P.Rouz siyosiy riskni, suiste'mol riskini, valyuta riskini kiritadi.

Tadbirkorlik riskining **klassik va neoklassik** ko'rinishi ham ishlab chiqilgan bo'lib, Klassik nazariyada tadbirkorlik riski qabul qilingan qarorlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning matematik kutilishi bilan tenglashtiriladi deyilgan. Ushbu qarashlar klassik nazariya namoyandalari **Dj.Mill** va **I.U.Seniorlar** tomonidan bildirilgan.

XX-asrning 30-yillarida iqtisodchilar **A.Marshall** va **A.Pigu** tadbirkorlik riskining neoklassik nazariyasini yaratdilar. U quyidagilardan iborat: noaniqlilik sharoitida ishlayotgan, daromadi o'zgarib turadigan tadbirkor, bitim tuzayotganda ikkita kriteriyaga asoslanadi:

- kutilayotgan foyda hajmiga;
- uning ikkilanishlarining hajmiga.

Bu shundan dalolat beradiki, bir xil daromad beradigan ikkita kapital qo'yilmalari orasidan tadbirkor qaysi biriga ko'proq ikkilanayotgan bo'lsa, o'sha kapital qo'yilmani tanlamaslikka harakat qiladi.

A.Smit tadbirkorlik faoliyatining ba'zi bir xususiyatlari haqida gapirib o'tganda, quyidagilarni ta'kidlagan: «Foydaning odatdagi ko'rinishi doimo ozmi-ko'pmi risk bilan o'sib boradi. Lekin unga proporsional tarzda o'smaydi. Insonlar tavakkal qilib ishlashlari riskga olib keladi».

2-mavzu: Bank risklarini boshqarish tizimi va uning tuzilishi

Reja:

1. Bank risklarini boshqarish strategiyasi.
2. Bank risklarini boshqarish usullari.
3. Diversifikatsiya, sug'urtalash, kreditning ta'minlanganligi: garov, kafolatlar.
4. Valyuta risklari va ularni xedjirlash.

1. BANK RISKLARINI BOSHQARISH STRATEGIYASI.

Bank faoliyatini risksiz tasavvur qilish mumkin emas. Albatta risk har qanday biznesda ham bo'ladi. Lekin faoliyat xususiyatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, bank biznesi uchun risk albatta va darhol yuz beradigan jarayon hasoblanadi. Shu tufayli, bu erda gap bank faoliyatida riskdan umuman qochish to'g'risida emas, balki uni oldindan ko'ra bilish va minimal darajaga tushirish haqida boradi. Riskni boshqarish aksariyat hollarda bankning o'z mablag'larining bir qismini yo'qotish "xavfi", daromad ololmay qolish yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida qo'shimcha xarajatlarga yo'l qo'yib bo'lsada jarayonni ijobiy natija bilan yakunlashni maqsad qilib qo'yadi.

Bank faoliyati jamg'arma egalariga foizlar to'lash, boshqa moliya-kredit institutlaridan xarid qilingan kredit resurslariga to'lovlar, bank xizmatchilari ish haqqisi uchun mablag'lar ajratish va boshqa operatsion xarajatlarga bevosita bog'liqdir. Bu erda risk jamg'armalarga bo'lgan foizlarning, kredit resurslari qiymatining, ish haqi to'lovlarining oshishi muhim bo'lib qolganda paydo bo'ladi.

Risklarni aniqlab uni boshqara olmaslik natijasida yuzaga keluvchi to'liq daromad ololmaslik yoki kutilgandan ko'ra ko'proq xarajat qilib yuborishlik riski bo'lg'usi operatsiyalarning, hisobotlarning etarli tahlil qilinmaganligi, vaziyatni to'g'ri baholanmaganligi yoki ko'zda tutilmagan holatning paydo bo'lishi natijasida yuz beradi. Hozirgi vaqtda ixtisoslashgan, tarmoq va universal banklarning mavjudligi banklar uchun bank riski ko'lamlarini har xillashtiradi. Ixtisoslashgan banklarning bir soha, bir tarmoqni kreditlashga moslashuvi ular faoliyatida risklarning yuqori bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu holat bank riskini boshqarishning asosiy usullarini jumladan, hukumat kafolatini olish, garov huquqini joriy qilish va boshqalarni talab qiladi.

Bank riskini boshqarish tizimi riskning yuzaga kelishini oldindan xomcho't qilish, risk tufayli yuzaga keladigan holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig'indisini o'z ichiga oladi. Bank riskini boshqarish tizimi ikki asosiy kichik tizim: boshqarish ob'ekti va boshqarish sub'ektidan iborat bo'ladi.

Riskni boshqarish tizimida boshqarish ob'ekti- bu bank faoliyatidagi risk, bank bilan mijoz o'rtasidagi yoki kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, bankning mablag'larini jalb qilish va ularni joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalarda yuzaga keluvchi risklar bo'lsa, risklarni boshqarish tizimining sub'ekti bu riskda o'z ta'sirini o'tkaza oluvchi guruh, tadbirkor, bank, risk bo'yicha menejerlar hisoblanadi.

Bank riskini boshqarish banklar faoliyatini chuqur bilish, ular bajaradigan operatsiyalarining samaradorligini aniqlay olish bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Bank riskini boshqarishda bank boshqaruvchisining asosiy vazifasi bank faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan daromad bilan unda yuzaga keluvchi risklar o'rtasidagi optimal variantini topishdan iborat.

Tijorat banklarida riskni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda korxonalardagi foydalanilmagan rezervlarni baholash va bank xizmatining asosiy yo'nalishini aniqlab olish uchun o'rtacha tarmoq riskining hajmini hisobga olish zarur. Hozirgi kunda tijorat

banklari tomonidan kreditlash jarayonini olib borishda tarmoq risklari deyarli inobatga olinmaydi.

Tarmoq riski kredit riski bilan bog'liq bo'lib, unga bevosita ta'sir qiladi. SHunga asoslangan bank tarmoq siyosatini tuzishda nafaqat mijozlar, balki sohalar to'g'risida keng axborotlarga ega bo'lishi, tarmoq riskini baholashda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- aniq davr mobaynida ushbu tarmoqning hamda qo'shimcha sohalarning faoliyati;
- ularning mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan barqarorligi;
- turli xil firmalarning bir yoki boshqa sohadagi faoliyatlari natijalariga sezilarli mos kelmasliklarning mavjudligi va boshqalar.

Tarmoq riskini baholovchi ko'rsatkichlaridan biri biror iqtisodiy faoliyat natijalariga nisbatan soha faoliyati natijasining o'zgarishidir. Bu xil risk xalqaro amaliyotda biz oldin ta'kidlaganimizdek «beta» harfi bilan belgilanadi. Beta ko'rsatkichi birga teng bo'lsa, bu bozor iqtisodig'ini uchun me'g'r hisoblanadi. Ko'rsatkich birdan kam bo'lsa u nisbatan barqaror soha bo'ladi va katta o'zgarishlar bo'lmaydi. Beta ko'rsatkichi birdan katta bo'lganda tarmoqda katta o'zgarishlar mavjudligi kuzatiladi. SHu sababli «beta» ko'rsatkichi qancha yuqori bo'lsa, tarmoq riski shunchalik kuchli bo'ladi. «Beta» ko'rsatkichini hisoblash uchun keng axborotlar kerak. Odatda tarmoq riskini tahlil qilishda ushbu ko'rsatkichni hisoblash sohaning kelajakdagi ishi bilan bog'liq holati maxsus agentliklar tomonidan amalga oshirilgan regressiv tahlil bilan solishtiriladi.

Xalqaro amaliyotda tarmoq riski uchun axborotlar ushbu axborotlarga ega bo'lgan tashkilotlardan olinadi. Birok ko'rib o'tilgan analitik yondoshuv bo'lmasa, unda muqobil sifatida:

- sohaning hayotiy sikli bosqichi;
- sohada ichki raqobat muhiti kabi maxsus omillar ko'rib chiqiladi.

Sanoatni olib qaraydigan bo'lsak, unda hayotiylik sikli bir nechta bosqichga bo'linadi. Kelajak va hozirgi rejada xususiyatiga ega bo'lgan risklarning o'rnini aniqlash muhimdir.

Raqobatning ichki muhiti biror bir tarmoqqa qarashli firmaning barqarorligi haqidagi axborotning qo'shimcha manbai hisoblanadi. Raqobatning soha ish muhitini baholashda baho va nobahoviy raqobatning darajasi, tarmoqqa kirishning engilligi yoki murakkabligi, baho bo'yicha raqobatdosh o'rin bosuvchilarning etishmasligi yoki borligi, sotib oluvchining bozor qobiliyati, siyosiy va ijtimoiy muhit kabi axborotlar qo'llaniladi.

Bank mijozlarining tarkibiy tuzilishi bank riski va uning darajasini hisoblash usulini

aniqlab beishi mumkin. Kichik qarzdorning faoliyati yirik qarzdornikiga nisbatan bozor iqtisodiyotining kutilmagan vaziyatlariga ko'proq bog'liq bo'ladi. SHu bilan bir vaqtda, bir mijozga yoki biri bilan aloqador qarzdorlar guruhiga berilgan yirik kreditlar ko'pincha banklarning inqiroziga sabab bo'ladi. Bank riski darajasini boshqarishda bank o'tkazaligan operatsiyalarning kafolatlanganligi, sug'urtalanganligi va boshqa tartibga solish usullaridan foydalanganligiga qarab to'la, o'rtacha va past risklar yuzaga kelishini hisobga olish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklarni vaqt bo'yicha taqsimlash muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Banklarning asosiy operatsiyalari o'tgan va hozirgi risklarga, boshqalari esa kelgusi risklarga tortilgan bo'ladi. Hozirgi risklarga kafolat berish bo'yicha operatsiyalar, hujjatlashtirilgan akkreditiv operatsiyalari, regress huquqi bilan aktivlarni sotish va boshqalar kiradi. Lekin kafolatning o'zini ma'lum muddatdan so'ng to'lab berish, bank krediti hisobidan akkreditivni amalga oshirish ehtimolligi shu operatsiyalarni kelgusi riskga tortadi. Bank riskini boshqarish jarayonida e'tiborga molik soha risklarining hisobga olish xususiyatidan kelib chiqqan holda balans operatsiyalari bo'yicha va balansdan tashqari operatsiyalar bo'yicha risklarga bo'linishidir.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risklarning quyidagi asosiy turlariga e'tiborni jalb qilish lozim:

1. Depozitlarni shakllantirish riski;
2. YAngi faoliyat turi riski;
3. Lizing kelishuvi riski;
4. Qarzdorning o'z moliyaviy majburiyatlari yuzasidan bajarmagan faoliyat bilan bog'liq kredit riski;
5. Bozor foiz stavkalarining tebranish ehtimoli bilan bog'liq foiz risklari;
6. Qimmatli qog'ozlarning qadsizlanish ehtimoli bilan bog'liq bozor riski;
7. Valyuta kurslari tebranishi bilan bog'liq valyuta risklari. Bank bunday riskka chet el valyutasida turli xildagi operatsiyalarni o'tkazish va valyuta oldi-sotdisi, valyutaviy kreditlar berish natijasida duch keladi.

Bank risklarini boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to'la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollari belgilab beradi va bank risklarining oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Risklarni boshqarish strategiyasining maqsadi va vazifalari ko'p darajada bank ishlaydihag tashqi iqtisodiy muhitga bog'liq. Oxirgi yillarda bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi iqtisodiy muhit sifatda inflyasiyaning mavjudligi, banklar va ularning shu'balarining sifatli faoliyat ko'rsatishlari, banklar faoliyatining Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirilib borilishi, banklar yangi xizmatlarining yuzaga kelishi, banklar o'rtasidagi raqobatning yuzaga kelishi va yirik banklar tomonidan mayda kredit muassasalarining qamrab olinishi, xo'jalik sub'ektlari faoliyatining o'zgarishi, bozor munosabatlariga moslashuvi natijasida aylanma kapitallarga bo'lgan ehtiyojning o'sishi

natijasida bankning kredit resurslariga bo'lgan talab ortib borishi tufayli faqat bank risklarini o'z vaqtida sezish va boshqarish yo'li bilan bank faoliyatining ijobiyligiga erishish mumkin.

Banklar o'z faoliyatida mavjud riskni aniqlashi, uni qabul qilishi, kuzatib borishi va boshqarish qobiliyatiga tayyor ekanligini o'z zimmasiga olishi lozim. Buning uchun bank rahbariyati o'z faoliyati, bank ishi jarayonlari bo'yicha to'liq bilimga ega bo'lishi lozim. Bank risklarini boshqarishda ma'lum tamoyillarga rioya qilish katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, bank risklarini boshqarishning asosi qilib quyidagi tamoyillar olinishi lozim:

- o'z kapitalidan ortiq summaga risk qilmasligi;
- riskning oqibatlari to'g'risida o'ylashi, zararlarni qoplash manbalarini prognozlashtirish, ularni sifat jihatidan o'lchash lozimligi;
- risklarni moliyalashtirish, ularni kamaytirishni rag'batlantirish;
- kam daromad olish imkoniyatida yuqori risk qilishiga intilmasligi;
- bankning barcha bo'limlarida risklarni nazorat qilish.

Bu tamoyillarga asosan bank o'zida mavjud resurslar atrofida risk qilishi, risk qilishi uchun uni zararlarga olib kelmasligini va faoliyat natijasini o'lchay olishi lozim. Risklarni boshqarish samaradorligini kuzatib borish va boshqa operatsiyalar bo'yicha risklarni ilmiy boshqarishning asosiy vazifasi u yoki bu riskning tabiiyligi va mumkinligi darajasini aniqlash, risklilik holatlarining yo'nalishini aniqlash va tez orada amaliy choralar ko'rish, u yoki bu operatsiyalarni o'tkazishdan bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish imkoniyatini beradi.

Risklarni boshqarishning asosiy usullari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- risklarni o'lchash usullaridan foydalanish;
- tashqi risklarni hisobga olish;
- bank mijozining moliyaviy ahvolni muntazam nazorat qilib borish, to'loqqa layoqatlilik ko'rsatkichlari, reytingini aniqlash va boshqalar;
- riskni taqsimlash yo'lini qo'llash, kreditni qayta moliyalashtirish;
- diversifikatsiya siyosatini o'tkazish;
- banklarning hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish;
- kreditlar va depozitlarni sug'urtalash;
- garov asosida kreditlashni kengaytirish va boshqalar.

Agar risklarni oldini olishning to'liq imkoniyati bo'lmasa, u holda oxirgi manba – bu riskni boshqarish usuli, ya'ni riskni qoplash hisoblanadi.

Riskni qoplash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Banklar tomonidan umumiy va maxsus rezerv fondlarini tashkil qilish;

2. Ma'lum yig'indilarni zararlarga o'tkazish;
3. Kreditlar bo'yicha foizlar belgilashni to'xtatish va boshqalar.

Risklarni boshqarish daromad bilan risk o'rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud riskni minimallashtirishni o'z ichiga oladi.

Risklarni bu bosqichlar bo'yicha boshqarish ma'lum nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishni, xarajatlarni talab qiluvchi jarayondir. SHu bilan birga riskni inkor qilish juda salbiy hollarga olib kelishi mumkin. Risklarni boshqarishda ssudalar bo'yicha to'lovsizlik riskidan himoyalaniish uchun kredit portfelini diversifikatsiyalash usulidan foydalanish yuqori samara berishi mumkin.

2. BANK RISKLARINI BOSHQARISH USULLARI.

Albatta yuqori darajada daromadli faoliyat ko'rsatishni ta'minlash masalasi bankirlarni juda qiziqtiradi, ammo bir paytning o'zida ular bank operatsiyalarining riskli ekanligini e'tirof qilishadi. YAqin va uzoq perspektivada bankning daromadliligini ta'minlovchi eng asosiy omillardan biri bank risklarini samarali boshqarish bo'lib qoladi. Ssudalar va boshqa bank operatsiyalari bilan bog'liq muammolarning ko'payib borishi, bankirlardan bank risklarini aniqlash, baholash va nazorat qilish imkoniyatlarini alohida e'tibor bilan o'rganishni talab qilmoqda.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilar bo'yicha aniq guruhlariga bo'lish bilan bog'liq. Risklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularni xar birining umumiy tizimdagi o'rnini belgilash, ularni boshqarishning samarali usullarini qo'llash imkonini beradi.

Bank riskini boshqarish jarayonining ikkinchi bosqichida bank riski son va sifat jixatdan baholanadi. Bank riskini sifat jixatdan baxolanishi uning darajasini belgilanishidan iborat buladi. Ushbu riskning qiymatdagi ifodasi uning son jixatdan baxolanish jarayoni maxsuli bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklar tomonidan bank riskini rejalashtirish boshqarishning navbatdagi bosqichni tashkil etadi. Bu bosqichda bank strategiyasiga muvofik riskni qabul qilish me'yorlari belgilanadi. YA'ni tijorat banklar agressiv yoki konservativ strategiya qabul qilishlariga qarab bank tomonidan qabul qilinadigan riskning me'yori belgilanadi.

Tijorat banki tomonidan qabul qilingan strategiyaga muvofik, qabul qilingan riskning me'yori belgilangandan so'ng boshqarishning yakuniy bosqichiga - foiz stavkasi riskining chegaralash va uning ma'lum darajada ushlab turishga qaratilgan chora -

tadbirlarni ishlab chiqish bosqichiga o'tiladi. Mazkur bosqich foiz stavkasi riskini tahlil etish, chegaralash va nazorat qilishga doir xujjatlar, uslublar va usullarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Bank riskining boshqarishga qaratilgan mazkur jarayon tijorat banklar tomonidan bir butun yaxlitlikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv banklarga nafaqat bank risklarini to'g'ri baholash, rejalashtirish va nazorat qilishga, balki bankning foyda va risk kombinatsiyasini optimallashtirishiga xam ko'mak beradi.

Risklarni o'lchash va identifikatsiya qilish bank sektorida risklarni boshqarish va nazorat ostiga olishning birinchi bosqichidir. Bankirlar risklarni boshqarish jarayoniga muammoni qo'yish va uni hal qilishning logik davomi tariqasida qarashlari kerak. Bank sektorida risklarni boshqarish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Bankning risklarga ta'sirchanligini o'lchash va identifikatsiya qilish. Bank rahbariyati bankning turli bo'linmalariga risklarning qanday omillari xavfli ekanligini aniqlashi hamda ushbu risklarning hajmi va darajasini qanday o'lchash kerakligi yuzasidan qaror qabul qilishi kerak.

2. Bankning har bir bo'linmasining joriy siyosati va risk omillarining har biri adekvat tarzda kompensatsiya qilinayotganligini aniqlash uchun bu siyosatning har kunlik amaliyotga joriy qilinishining holati. Bank rahbariyati bo'linmalar faoliyatidagi eng asosiy va jiddiy risk omillarini bartaraf qilish uchun joriy faoliyat yoki strategik maqsadlarni o'zgartirilish zarurati mavjudligini (yoki zarurat yo'qligini) aniqlashi lozim.

3. Risklarni boshqarish sohasidaga chora – tadbirlarni tahlil qilish bilan bankning qisqa va uzoq muddatli rejalarini muvofiqlashtirish. Bank rahbariyati risk faktorlarining boshqarilish darajasi qo'yilgan maqsadlarga mosligini aniqlashi kerak.

4. Risklarni boshqarish sohasida (har bir hisobot davri davomida va yakunida) olib borilgan tadbirlar va qarorlar tahlili. Bank rahbariyati risk omillarini to'liq aniqlab olganligi va ularni bartaraf qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlar bankning qisqa va uzoq muddatli rejalarida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishni ta'minlay olishiga ishonch hosil qilishi zarur.

Banklar amaliyotida eng keng tarqalgan, kredit riskini kamaytirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Qarzdorning kreditga bo'lgan layoqatlilikini baholash. Bu usul mijoz reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotidagi mavqeidan kelib chiqishi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi lozim.

2. Bir qarzdorga beriladigan kreditning hajmini kamaytirish. Bu usul mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

3. Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha harajatlar ssuda oluvchilar tomonidan to'lanadi.

4. Etarli ta'minlanishni talab qilish. Bunday usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoyalanişda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan etarli ta'minotni jalb qilishga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdor kreditga layoqatliligini tahlil qilishga qaratadi.

5. Diskontli ssudalar berish. Diskontli ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usulda kredit berish kreditga minimum to'lov olishni ta'minlaydi.

Agar kredit riskidan himoyalanişning boshqa usullari qo'llanilmasa, uning qaytishi muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Banklarda foiz riski quyidagi usul vositasida pasaytirilishi mumkin:

1. Foiz riskini quyi bo'g'indagi tegishli sug'urta tashkilotiga o'tkazish yo'li bilan sug'urtalash.

2. Kreditlarni suzuvchi foiz stavkasida berish. Bu narsa bankka berilgan kreditlarining foiz stavkasiga bozordagi foiz stavkalarining tebranishni hisobga olib tegishli o'zgarishlar kiritishga imkoniyat beradi va bank ssuda foizining bozor normasi oshishi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlardan qochish uchun sharoit yaratib beradi.

3. Muddatli kelishuvlar Mijoz va bank o'rtasida belgilangan hajmva o'rnatilgan foizda, ma'lum bir kelishilgan kunda ssuda bilan ta'minlash to'g'risida maxsus forvard bitim imzolaniadi. Bunday bitimni tuzish bilan bank ssudalarni berish vaqtida bozor foiz stavkalarining tushib ketishi xavfidan o'zini ximoyalaydi. Bunda ancha past to'lov evaziga kredit olgan mijoz esa yutadi. Xedjirlashning bu usuli foiz stavkalari tebranishi bilan bog'liq riskni mijoz bilan taqsimlab olishga imkoniyat beradi.

4. Foizli fyuchers kontraktlari. Foiz fyucherslari bozor foiz stavkalarining tebranishidagi spekulyasiyalar hamda foiz riskini qoplash uchun qo'llaniladi.

5. Foiz opsionlari. Foiz opsioni – bu opsion egasiga qat'iy o'rnatilgan bahoda kelgusida belgilangan kunda yoki ungacha qisqa muddatli depozit yoki ssudani sotish yoki sotib olish huquqini (majburiyat emas) beruvchi kelishuvi.

6. Foiz svoplari. Bitta summaga, lekin turli shartlarda tuzilgan kredit majburiyatlari bo'yicha bashslar o'rtasida bo'ladigan foiz to'lovlari (asosiy qarz

bo'yicha to'lovlarni emas) almashinuvi foiz svoplari deyiladi. Masalan, foiz stavkasi suzuvchi, qat'iy belgilangan yoki har xil ssuda kapitallari bozordagi stavkalarga moslashtirilgan bo'lishi mumkin.

Bozor riski quyidagi vositalar orqali kamaytirilishi mumkin:

1. Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga tuzilgan fyuchers kontraktlari. Ular kontrakt egalariga oldindan o'rnatilgan kurs bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. F'yucherslar qimmatli qog'ozlar bozor qiymatidagi tebranishlarda «o'ynash» yoki bunday tebranishlarning zarar keltiruvchi risklarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

2. Fond opsiionlari. Fond opsiioni-bu aksiyalarni (yoki boshqa qimmatli qog'ozlarni, agar ular fond birjasida aylanayotgan bo'lsa) kelishilgan muddat mobaynida sotish yoki harid qilish huquqini beradi.

3. Investitsiya portfelining difersifikatsiyasi. Qimmatli qog'ozlarni qadrsizlanishdan himoya qilishning eng muhim vositasi bank investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishdir.

Valyuta riskini kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalanilish mumkin:

1. Kredit shartnomasida o'rnatilgan forvard kursini hisobga olib boshqa valyutada qaytarish sharti bilan biror bir valyutada ssuda berish. Bunday tadbirlar bankni kredit valyutasi kursining pasayishi ehtimolligidan himoya qiladi.

2. Forvard valyuta kontraktlari. Bu valyuta riskini pasaytirishning asosiy usulidir. Bunday operatsiyalar bitim summasini va forvard almashuv kursini shartnomada qat'iy o'rnatib xorijiy valyutani oldi-sotdisi bo'yicha bank va mijoz o'rtasida muddatli kelishuv imzolashini ko'zda tutadi.

3. Valyutaviy f'yuchers kontraktlar. F'yucherslar ma'lum birmiqdordagi xorijiy valyutani kelgusida aniq bir kunda sotish yoki sotib olish kelishuvini o'zida aks ettiradi. Lekin forvard kontraktlaridan farqli ravishda uning shartlari nisbatan oson va engil ko'rib chiqiladi.

4. Valyuta opsiionlari.

5. Valyuta svoplari. Valyuta svopi ikki tomon o'rtasida turli valyutalardagi to'lovlarning almashinishi (albatta, kelajakda) haqidagi kelishuvdir.

6. Valyuta riskini sug'urtalash. Hamma riskni sug'urta tashkilotiga o'tkazishni ko'zda tutadi.

Banklarning o'z faoliyatlari jarayonida duch keladigan turli xildagi risklarni kamaytirish usullari bo'yicha tadbirlarning ishlab chiqishi risk sohasida bank strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday turdagi operatsiyalarni bank o'z mablag'lari hisobidan ham (bu holda tegishli moliyaviy riskni pasaytirish yoki u uchun bozar shartlari qulay kelgan taqdirda imzolangan shartnomalardan olingan daromadlarni kuzatib borishi kerak) hamda mijoz

topshirig'iga asosan ham (bu holda vositachi sifatida ishtirok etib mukofot oladi) amalga oshiradi.

3. Diversifikatsiya, sug'urtalash, kreditning ta'minlanganligi: garov, kafolatlar.

Diversifikatsiya so'zi lotincha so'z bo'lib "diyersus" har xil, + sacere - qilish, ya'ni har xillashtirish, turli-tumanlashtirish degan ma'noni bildiradi. Diversifikatsiya - firmaning asosiy faoliyatidan tashqari yangi faoliyat turini o'zlashtirish borasida olib boradigan yangi marketing strategiyasidir. Diversifikatsiya darajasi firmaning asosiy va qo'shimcha faoliyat turlari ob'ektlari orasidagi nisbati firmaning tarmoqlar miqyosida mustaqil faoliyat turlari mavjudligi bilan o'lchanadi. Diversifikatsiyaning maqsadi bozor kon'yukturasi o'zgarishini o'z vaqtida ilg'ay olish va korxonaning iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirishdan iborat.

Diversifikatsiya, bu - investitsiya va boshqa resurslarni turli xil tovarlar ishlab chiqarish va har xil xizmatlar ko'rsatish sohalari bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi yo'nalishlarga taqsimlash orqali firmaning riskini kamaytirish strategiyasidir. Yuqori diversifikatsiyalangan firmalar konglomerantlar deyiladi.

Riskni kamaytirish maqsadida investitsiya yoki boshqa mablag'larni bir necha yo'nalishlar bo'yicha taqsimlab chiqish deb ta'riflash diversifikatsiya mohiyatini to'liq bo'lmasada boshqa keltirilgan fikrlarga nisbatan aniqroq ifodalashi mumkin. Diversifikatsiya - bu korxonaning faoliyat sohasini o'zgartirish: ishlab chiqarishni maydalashtirish, korxonalarni aholi ehtiyoji uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'tkazishdir.

Ba'zi iqtisodiyotchilar tomonidan bank faoliyatida diversifikatsiyaga bir tomonlama ta'rif berilganligini uchratish mumkin. Masalan, V. Konoplikiy, A. Filina "Bank diversifikatsiyasi bu:

- kredit riskini qisqartirish;
- ssuda portfelini muvofilashtirish masadida bank aktivlarini imkoniyati boricha ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlash demakdir", degan ta'rifni berishadi.

Bank faoliyatida diversifikatsiya o'tkazish faqat aktivlarini joylashtirishni o'z ichiga olmasdan bankning barcha faoliyati bilan bog'liq jarayonlardagi risklarni kamaytirish soxasida qo'llaniladigan usul bo'lib, uni nafaqat bank aktivlarini joylashtirish bo'yicha balki banklar tomonidan resurslarni jalb etish, mijozlarning o'zni bankning umumiy strategiyasini olib borish va boshqa soxalarda ham qo'llash mumkin.

Shu sababli diversifikatsiyaning bank ishida ishlatilishi bankning passiv operatsiyalarida bank jalb qiladigan mablag'lar turli tarmoqlarni ko'p sonli jamg'armachilar tomonidan bo'lishini toki qilsa bank aktiv, kreditlash, investitsiyalash operatsiyalarini bajarganda pul mablag'larini turli tarmoq, soxaga kam miqdorda ko'p sonli mijozlarga taqsimlashni ko'zda tutadi. Mablag'larni yuqoridagi usul bilan taqsimlashdan asosiy maqsad mablag'larning qaytib kelmaslik bilan bog'liq risklarni oldini olish va minimallashtirishga bo'lgan intilishdir.

Bankning passiv operatsiyalari bo'yicha diversifikatsiya o'tkazilishi bankning kredit potensialining mustaxkamlanishini ta'minlaydi. Bank resurslarining asosiy summasini cheklangan sanoqli mijozlarga to'g'ri kelishi va shu mijozlarning moliyaviy axvolini yomonlashuvi natijasida ularning bankdan ko'p miqdorda o'z depozitlarini qaytarib olishi natijasida banklarning resurs bazasining kamayishiga, bu o'z navbatida tijorat banklarining kredit potensialiga zaiflashuviga olib keladi.

Passiv operatsiyalar bo'yicha diversifikatsiyalarning ahamiyati shundaki bir biri bilan aloqador bo'lmagan turli tarmoqdagi mijozlarning zarur bo'lgan xollarda mablag'larni bankdan olishi bankning kredit potensialiga katta ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

Kredit resurslarining kam miqdorda ko'p sonli, turli tarmoqlarga ta'lukli bo'lgan bir-biri bilan aloqador bo'lmagan soxalarga taqsimlanishi bankni har xil risklardan zarar ko'rishdan saqlaydi. Tijorat bankining sezilarli miqdordagi resurslarining bir yoki bir necha mijozlar faoliyati uchun yunaltirishi bank uchun juda katta riskni yuzaga kelishiga olib keladi. Chunki miqdorda bank resursini olgan xujalik sub'ektining moliyaviy axvolini yomonlashuvi, uning to'lovga layokatligi va likvidligini tushib ketishiga olingan kreditlar va ular bo'yicha foizlar stavkasi bankga qaytib tulanishida katta muammolar tug'dirishi mumkin.

Kredit risklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanish bo'yicha diversifikatsiya o'tkazishdir.

Shundan kelib chiqqan xolda bankning kredit portfelining diversifikatsiyasi bankning ba'zi mijozlardan ko'rgan zararlarini boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan ko'plash imkoniyatini beradi.

Diversifikatsiyani uch xil yunalish bo'yicha olib borish mumkin.

1. Portfel.
2. Geografik
3. Kreditlarni to'lash muddatiga karab o'tkaziladigan diversifikatsiya turlaridir.

Banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qilish bankning kreditlarini har xil soxadagi bir necha mijozlar o'rtasidagi taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Diversifikatsiya qilinmagan kredit portfelni doimo yuqori risk bog‘liq bo‘ladi.

Bankning kredit portfelini diversifikatsiya qilish yo‘li bilan kredit portfelini boshqarish bankning strategik rejalashtirish jarayoni bilan uzluksiz bog‘liqdir.

Diversifikatsiyaning xususiyatlari shundakim:

-birinchidan- diversifikatsiya hamma vaqt riskni yoqtirmaydigan banklar uchun qulay keladi, chunki u riskni kamaytiradi;

-ikkinchidan kredit bo‘yicha foyda harakati qancha kam mos kelsa, riskni kamaytirish hisobiga diversifikatsiyadan shuncha ko‘p naf ko‘rish mumkin.

Diversifikatsiyalangan portfel bu risk jixatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan kichik kreditlar tuplamini o‘zida mujassamlashtiradi.

Kredit portfelni yigirmadan ortiq kreditdan tashkil topgan bo‘lsa, bunday portfel yaxshi diversifikatsiya qilingan portfel deyiladi. Diversifikatsiya talab darajasida bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak.

-portfel ko‘p sonli nisbatan mayda kreditlardan tashkil topishi.

-kreditlar risk jixatidan bir biriga bog‘liq emas, ya‘ni biron bir kredit bo‘yicha tulay olmaslik extimoli boshqa kredit bo‘yicha tulay olmaslik extimoli bilan bog‘liq bo‘lmaligi kerak.

Diversifikatsiya yordamida kredit portfelining umumiy risk darajasini kamaytirishga erishish mumkin. Ba’zida alohida olingan kredit bo‘yicha risk o‘zgarmagan holda haqiqiy olinadigan daromad kutilayotgan daromadga tenglashishi mumkin.

Banklar uchun kredit portfelini diversifikatsiyalash oson, kreditni kam summada turli soxalarga turli mintakalarga ajratishga erishish lozim.

Kreditlarni ta’minlanganligi bo‘yicha diversifikatsiya qilishda ta’minlash asos qilib olingan ob’ektning likvidlik darajasiga e’tibor berish zarur. Kredit ta’minlanganligi likvidlilik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, kredit va u bo‘yicha foizning ham o‘z vaqtida qaytishi oson va tez bo‘ladi.

Bankning kredit siyosatini va kredit portfelini tahlil qilishning asosiy maqsadi- ssuda bo‘yicha asosiy qarz va u bo‘yicha foizlarni o‘z vaqtida to‘lashga erishishdan iborat. Albatta barcha kreditlar bo‘yicha ma’lum bir sabab bilan to‘lay olmaslik sharoiti yuzaga kelishi mumkin. Agar bank kreditni faqat juda ishonchli mijozga beradigan bo‘lsa, uning yuqori foyda olishi imkoniyati

qisqarishi mumkin. SHu bilan birga agar kreditni to'lash bo'yicha muammolar yuzaga kelsa, bu bankka juda qimmatga tushishi mumkin. SHuning uchun bankning kredit siyosati ehtiyotkorlik bilan bank resurslarini oqilona joylashtirishi asosida yuqori foyda olish o'rtasidagi balansni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kredit portfelini diversifikatsiyalash usulidan foydalanishda bank kreditlarini turli soxalardagi kompaniyalarga, kichik miqdorda qisqa muddatlarga va ko'proq mijozlarga berishni afzal ko'rishi lozim.

Yana kreditlarni diversifikatsiya qilishda berilgan kreditlarning ta'minlanganligini hisobga olish yo'li bilan kreditlar bo'yicha risklarni kamaytirib, bank undan foyda olishga erishishi mumkin. SHunday qilib, kredit portfelini diversifikatsiya qilish usuli quyidagi to'rt asosiy xususiyatni o'zida ifoda qilishni e'tiborga olish zarur. Bular:

birinchidan, kreditni ko'p sonli, turli tarmoqqa taaluqli mijozlar o'rtasida taqsimlash;

ikkinchidan, kreditni kam miqdorda berish va bir mijozdan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni boshqa mijozlardan keladigan foyda orkali qoplash;

uchinchidan, kreditning umumiy hajmini saqlab turg'an holda qisqa muddatlarga kredit berish;

to'rtinchidan, kreditlarning ta'minlanganligi bo'yicha diversifikatsiya o'tkazish.

Kreditlarni diversifikatsiya qilishda kreditlarni kam miqdorda ko'proq mijozlarga berishga alohida e'tibor qilish lozim.

Kreditlarni ta'minlanganligi bo'yicha diversifikatsiya qilish quyidagi belgilar bo'yicha o'tkaziladi:

- Kreditning tovar moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligi.
- qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan ta'minlanganligi.
- Bank garantiyasi bilan ta'minlanganligi darajasi.
- Boshqa huquqiy shaxslarning kafolati asosida ta'minlanganligi va boshqalar.

Tijorat banklari kredit berishda 2 xil foiz stavkasi bilan kreditlar beradi. Birinchisi-o'zgarmas foiz stavkasi, ikkinchisi esa so'zib yuruvchi foiz stavkalari. Foiz stavkalarini urnatishda bank ichki va tashqi bozorda yuzaga kelgan urta foiz

stavkalaridan mamlakatdagi inflyasiya darajasi va bankning daromadligiga karaydi. Kredit berayotganda bank kredit bo'yicha foizlar qanday to'lanilishini inobatga olishi kerak, o'z mablag'lari hisobidanmi yoki boshqa manbalardanmi, bu holda diversifikatsiyaning yana bir turi foiz to'lash manbalari bo'yicha diversifikatsiyalash maydonga chiqadi. Diversifikatsiyani yana kreditni qaytarish yoki to'lash muddati bo'yicha; oylik; kvartallik; ma'lum vaqtdan so'ng; odatda investitsion kreditlar bo'yicha; oldindan, diskontirlangan kreditlash usuli bo'yicha, kredit berish muddatiga qarab diversifikatsiyalashni qo'llash mumkin.

Kredit portfelini muddati bo'yicha diversifikatsiyalash ham ahamiyatga ega, chunki turli muddatli ssudalar bo'yicha foiz stavkalari turli o'lchovdagi tebranishlar ta'siri ostida bo'ladi va qarz oluvchining bilvostita zimmasiga tushuvchi risklar ham ssudalarning muddatiga bog'liq.

Diversifikatsiyaning keyingi turi-bu geografik diversifikatsiyalash bo'lib, unda geografik mintakani nazarda tutadi. Diversifikatsiyaning ushbu turi yirik banklarga xosdir. O'zbekiston Respublikasida ushbu usul qarz oluvchining kelib chiqish joyiga qarab qo'llaniladi, ya'ni bank kredit portfelini O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga va norezidentlariga berilgan kreditlarga bo'ladi. Bank kreditlashning geografik limitlarini o'rnatish ijobiy samara berishi mumkin.

Mulkchilik shakllariga ko'ra bankning kredit portfelini davlat korxonalariga, nodavlat korxonalariga xorijiy kapital katnashuvchisiga berilgan kreditlarga ajratiladi. Diversifikatsiyaning barcha usullari kredit riskidan ximoyalanish usuli bo'lib xizmat qiladi. Bank tomonidan berilgan kreditning samaradorligi, uning o'z vaqtida bankga qaytib kelishi tijorat bankining kredit portfelining sifatiga, uning diversifikatsiyalanganligiga bog'liq.

Tijorat banklari kreditni qaytmaslik xatarini oldini olish maqsadida quyidagi (ikkilamchi) ta'minot turlarini qabul qiladi:

- mol-mulk (ko'chmas va ko'char mulklar);
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kafilligi (kafolati);
- uchinchi (jismoniy) shaxslarning kafilligi;
- qarz oluvchining muddatli va jamg'arma omonatlari (depozitlari);
- qimmatli qog'ozlar;
- sug'urta polislari va boshqa ta'minot turlari;

Ta'minot sifatida olinayotgan mol-mulk va kafillar (tashkilotlar) kredit olinayotgan hududda (filialda) joylashgan bo'lishi shart. Boshqa hududlarda joylashgan mol-mulk va kafillar (tashkilotlar) ta'minot sifatida tan olinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kreditlarni qaytarish ta'minoti sifatida olingan ko'chmas mol-mulk va boyliklarning mavjudligi va saqlanishi ssuda berishga qadar oldindan, mustaqil baholovchi yoki bank xodimi tomonidan baholanishi hamda kreditning amal qilish davrida bank xodimlari tomonidan garov ta'minoti saqlanayotgan yoki joylashgan joyga chiqib har chorakda kamida bir marta tekshirilishi zarur.

Garovga olingan boyliklar hisobidan berilgan kreditlar - bu qarz oluvchining xususiy mulki hisoblangan, kreditor bankning talablari bo'yicha aniq mulkiy boyliklar yuzasidan garov xuquqlari bilan ta'minlangan kreditlardir. Kreditlar moddiy garov bilan faqat kredit berish chog'ida emas, balki kreditlarning butun amal qilish davri mobaynida ta'minlanishi shart.

Qarz oluvchining molk-mulkiga bo'lgan bankning garov xuquqi O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq rasmiylashtiriladi. Garov shartnomasi notarial idorada rasmiylashtirilishi va belgilangan tartibda qayd etilgan bo'lishi lozim.

Qarz oluvchi bir vaqtning o'zida kreditni ta'minoti sifatida bir nechta ta'minot turlaridan foydalanishi mumkin.

Garov predmeti har xil mol-mulkdan, shu jumladan, buyum, jixozlar va boshqa qimmatliklardan iborat bo'lishi mumkin. Muomaladan chiqarilgan garov ob'ektlari, qarz oluvchining shaxsiyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan talabnomalar, jumladan, shaxs xayotiga yoki sog'ligiga etkazilgan zararni qoplash, aliment to'g'risidagi talabnomalar bundan istisno hisoblanadi va bu ob'ektlar ta'minot sifatida qabul qilinmaydi.

Garovga qo'yilayotgan mol-mulkni baholash O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga asosan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari ta'minotning turlari quyidagilar kiritish mumkin: qimmatbaho toshlar va metallardan tayyorlangan zargarlik buyumlari, Moliya Vazirligi, banklar, boshqa kredit institutlar va sug'urta kompaniyalarining kafolatlari.

Tijorat banklari, kreditni qaytarish qobiliyati 2-toifadan past bo'lmagan kredit oluvchilardan, kreditni qaytarilish ta'minoti sifatida "Madad", "O'zbekinvest", "Ishonch" BSK, "Kafolat", "Alskom" shuningdek, "O'zdavlat sug'urtanazorat" ning litsenziyasiga ega bo'lgan boshqa sug'urta kompaniyalaridan, kreditning qaytmaslik xatarini sug'urtasi bo'yicha bank-benefitsiar foydasiga sug'urta polislarini qabul qilishlari mumkin.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga berilgan kreditlar ta'minotiga "O'zagrosug'urta" davlat - aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan kredit oluvchining kreditni qaytarmaslik xatari bo'yicha bank - benifitsiar foydasiga berilgan sug'urta polislarini qabul qilinishi

mumkin. Bunda kreditlash faqat, sug'urta to'lovi sug'urta kompaniyasining bankdagi hisob raqamiga o'tkazilib, kredit oluvchi tomonidan bankka sug'urta polisi taqdim etilgach amalga oshiriladi. Berilayotgan kredit hisobidan sug'urta to'lovini to'lash man etiladi

O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 52-moddasiga muvofiq qarzdorning oilasi normal turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan uy-joy va boshqa mulklarni kredit ta'minoti sifatida olishga ruxsat etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdagi 119-1-sonli qarorining 1 va 2-ilovalarida ko'rsatilgan ro'yxatdagi korxona va mol-mulklar (2-ilovada) garov ashyosi bo'lishi mumkin emas.

YUqori likvidlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar ham garov ashyosi bo'lishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

- davlatning qimmatli qog'ozlari;
- aksiya va obligatsiyalar;
- boshqa emitentlarning depozit sertifikatlari.

Garovga olinayotgan mol-mulkni turiga qarab mustaqil yoki bank ichki baholovchisi (kredit komissiyasi) baholashi mumkin. Tashqi baholovchi tomonidan mol-mulk baholanganda qarz oluvchi tomonidan uning xizmat xaqi to'lanadi.

Garovga olinayotgan mol-mulkni kredit komissiyasi joyiga chiqib quyidagi shartlarni hisobga olgan holda baholashi kerak:

- mol-mulkga bo'lgan egalik xuquqi;
- garovga olinayotgan mol-mulkning boshqa majburiyatlardan xolisligi;
- uzoq muddat davomida saqlanish xususiyati;
- mol-mulkning jismoniy va ma'naviy eskirishi darajasi;
- garovga olinayotgan mol-mulk bahosining barqarorligi;
- iste'mol va ishlatish chegaralari (garovga olingan ta'minot turi tor doiradagi ixtisoslashtirilgan soxalarda ishlatilmasligiga e'tiborni qaratish lozim).

Garovga olinayotgan mol-mulk turiga qarab, bank filiallari qarz oluvchi bilan ipoteka, ko'chmas mulk va boshqa turlar bo'yicha yozma shartnoma imzolaydi. Bu shartnomalar notarial idoralarda tasdiqlanishi kerak.

Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha shartnoma rasmiylashtirilib, qarzdor tomonidan ushbu qog'ozlar bankka saqlash uchun taqdim etiladi. Qarzdor tomonidan asosiy qarz va foiz to'lovlari to'liq qaytarib berilgan taqdirdagina garovga olingan qimmatli qog'ozlar unga qaytarib beriladi. Garovga olingan qimmatli qog'ozlarni qisman berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Garovga olingan vositalar bo'yicha monitoring o'rnatilishi lozim. Monitoring jarayonida garovga olingan vositalarning narxi bozorda garovga olinayotgan davrga nisbatan pasayib ketganligi yoki yaroqsiz holga kelib qolganlik holati aniqlansa, bank qo'shimcha ta'minot turlarini talab qilish huquqiga ega bo'ladi va bu holat bank hamda mijoz o'rtasidagi tuziladigan kredit shartnomasida o'z aksini topishi kerak.

Kredit ta'minoti sifatida tovarlar, valyuta, valyuta boyliklari, shuningdek, avtotransport olinishi mumkin. Bu holda garovga qo'yilgan mol-mulk zakalat sifatida bankka (garovni saqlab turuvchiga) topshiriladi. Avtotransport vositalari bundan mustasno bo'lib, sotish, ijaraga berish, xadya qilish va boshqalar xuquqisiz garovga qo'yuvchi ixtiyorida qoldiriladi. Zakalat garov shartnomasi kabi rasmiylashtiriladi va notarius tomonidan tasdiqlanadi.

Kafillik. Kredit oluvchi to'lov qobiliyatini yo'qotgan taqdirda uning qarzlarini to'lashga roziligi to'g'risidagi uchinchi shaxslarning majburiyati (kafilligi) - kredit ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunday majburiyat - kafillik shartnomasi tarzida rasmiylashtiriladi.

Kafillik shartnomasida, kafillik beruvchi ssuda oluvchining kredit bo'yicha bank-benefitsiar oldidagi majburiyatlarini kredit shartnomasida belgilangan muddatda bajarmagan taqdirda, uni bajarish bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga olishi ta'kidlanadi.

Kafillik beruvchining majburiyati qarzdorning kredit summasi va unga hisoblangan foizlar (shu jumladan hisoblangan penya summalari) miqdori bilan chegaralanadi.

To'lovga qobiliyatli, obro'li yuridik hamda jismoniy shaxslar kafillik beruvchi bo'lishlari mumkin. Quyidagi jismoniy va yuridik shaxslarni kafilligi bank tomonidan ta'minot sifatida qabul qilinmaydi:

- oylik ish xaqi maoshidan ijro hujjatlariga asosan majburiy tarzda 20 va undan ortiq foiz miqdorida (fuqarolik sudlari qarorlariga muvofiq, aliment to'lovchilar va boshqa shunga o'xshagan toifadagi fuqarolar) ushlab qolinadigan jismoniy shaxslar;

- yangidan ish boshlagan yuridik shaxslar;

- yangidan ish boshlagan yoki depozit hisobvagi bo'yicha oylik debet (kredit) aylanmasi eng kam ish xaqining 1000 (ming) barobaridan kam miqdorda bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Kafillik shartnomasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- kafillik beruvchining bankdagi hisobraqami bo'yicha debet va kredit aylanmalar to'g'risida ma'lumotnoma;

- kafillik beruvchining boshqa banklardagi barcha hisobraqamlari (ulardagi mablag' qoldiqlarni ko'rsatgan holda) to'g'risida ma'lumot;

- kafillik beruvchining o'z banki oldida ssuda yoki boshqa qarzlari yo'qligi xaqida ma'lumotnoma;

- kafillik beruvchining №2 kartoteka bo'yicha xech qanday qarzlari yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Yuqoridagi ma'lumotnomalar kafillik beruvchining asosiy "talab qilib olinguncha" depozit hisobraqami ochilgan bank muassasasining rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi hamda dumaloq muhr bilan tasdiqlanadi. Qayd etilgan barcha ma'lumot va ma'lumotnomalar umumlashtirilgan holda, bitta xujjat ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Bundan tashqari kafillik beruvchi tomonidan:

- mustaqil auditorlik tashkiloti yoki auditorning kafil tashkilotning qoniqarli moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi xulosasi (tekshirilganligi 1 yildan oshmagan muddatda bo'lishi lozim);

- shaxsning kafil nomidan kafillik to'g'risidagi shartnomani imzolash xuquqini tasdiqlovchi hujjatlar (Nizomi, ta'sis shartnomasi nusxalari olinadi va ushbu nusxalarning har bir varagi mijoz muhri va imzosi bilan yoki notarial idoradan asliga to'g'riligi tasdiqlanadi.);

- aksiyadorlik jamiyatlari ko'rinishida tashkil etilgan bo'lsa, aksiyadorlarning kafillik berilishiga roziligi to'g'risidagi majlis bayoni;

- qo'shma korxona ko'rinishida bo'lsa, chet el sherigining kafillik berilishiga roziligi to'g'risidagi majlis bayoni;

- sho'ba korxona ko'rinishida bo'lsa, chet el sherigining yoki yuqori organining kafillik berilishiga roziligi to'g'risida majlis bayoni;

- fermer xo'jaligi yoki shirkat xo'jaligi shaklida bo'lsa, fermer xo'jaligi yoki shirkat xo'jaligi a'zolarining kafillik berilishiga roziligi to'g'risida majlis bayoni;

- mas'uliyati cheklangan jamiyat yoki xususiy korxona (firma) ko'rinishida bo'lsa, ta'sischilarning kafillik berilishiga roziligi to'g'risida majlis bayoni taqdim etiladi.

Kreditni qaytarish muddati etib kelganda qarzdorning mablag'i bo'lmagan taqdirda, kreditni bergan bankning yozma xabarnomasi asosida, kafillik beruvchi o'zining "talab qilib olinguncha" depozit hisob raqamidan to'lov topshiriqnomasi bilan bevosita qarzdorning ssuda hisob raqamiga qaytarilmagan kredit hamda, u bo'yicha hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlar summasini o'tqazib beradi.

4.VALYUTA RISKLARI VA ULARNI XEDJIRLASH.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tovar va xizmatlarning almashinuvida ularning aniq bir ekvivalent qiymatlarini aniqlash ba'zi qiyinchiliklar tug'diradi. Xalqaro savdo va to'lov munosabatlarini har doim valyuta harakati bilan bog'langan va shu bois xalqaro iqtisodiy aloqalarning har qaysi sub'ekti uchun hisob-kitoblar uchun chet el valyutasida amalga oshiriladi. Natijada, turli xil iqtisodiy omillar ta'sirida xalqaro shartnoma amalga oshirilgunga qadar bo'lgan davr mobaynida bitim imzolangan valyuta kursi boshqa valyuta kursiga nisbatan tushib ketishi mumkin va bu shartnoma ishtirokchilaridan birining faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri yoki egri moddiy yo'qotishlar bo'lishiga olib kelishi mumkin.

70- yillarning boshida suzib yuruvchi valyuta kursi rejimiga o'tilishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'dirdi.

Valyuta riski deganda keng ma'noda valyuta kurslarining tebranishi oqibatida xalqaro iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining xalqaro iqtisodiy aloqalari va xo'jalik faoliyati natijalarining o'zgarish imkoniyatlari tushuniladi. Valyuta riskiga xalqaro iqtisodiy operatsiyalarning barcha sub'ektlari duch kelishadi. Bularga davlat, banklar, savdo va sanoat kompaniyalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni misol qilish mumkin.

Valyuta kurslarini beqaror o'sishi xalqaro mehnat taqsimotining buzilishiga sabab bo'ladi, tovar va xizmatlarning ekvivalent qiymatlarda almashinuvini qiyinlashtiradi, xalqaro savdo hajmi va uni balanslashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kurslarining nobarqarorligi eksportyor va importyorlarning chet eldan mahsulot sotib olish va chet elga mahsulot sotish hajmlarini qisqartirishlariga sabab bo'ladi. Chunki ular kelgusida valyuta kurslari qanday o'zgarishlarini aniq bilishmaydi. Masalan, importyor valyuta risklariga yo'liqishdan xavfsirab tovarni chet eldan sotib olishdan ko'ra o'z mamlakatidan sotib olishni afzal ko'radi.

Valyuta risklariga xalqaro savdo operatsiyalarida eksportyor ham, importyor ham to'qnash keladi. Agar shartnoma importyor mamlakat valyutasida yoki uchinchi bir mamlakat valyutasida tuzilgan bo'lsa va tovar puli ma'lum muddatdan keyin to'lanishi rasmiylashtirilgan bo'lsa, eksportyor valyuta riskiga yo'liqadi. Shartnomada ko'rsatilgan valyuta kursi eksportyorning milliy valyuta kursiga nisbatan tushib ketganda eksportyor

zarar ko‘rishi mumkin. Chunki u milliy valyutasida hisoblab qo‘ygan summani olmaydi va rejalashtirilgan foydaga ham ega bo‘lmaydi.

Importyor uchun valyuta riski qo‘yidagi paytda namoyon bo‘ladi: ya’ni agar u bahosi chet el valyutasida fiksatsiyalangan tovarni sotib olayotgan paytda chet el valyutasining kursi milliy valyuta kursiga nisbatan oshib ketsa. Bunda importyor shartnoma imzolangan vaqtdagiga qaraganda o‘z milliy valyutasida ko‘proq summa to‘lashga majbur bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, shartnoma tuzilgan vaqt bilan uning bajarilishi o‘rtasidagi muddat qanchalik uzoqlashib borar ekan, valyuta xavf-xatari ham shunga proporsional ravishda ortib boradi.

Valyuta risklarining yuzaga chiqishi shakli sifatida shartnoma ishtirokchisi bitim imzolamayotgan vaqtda olishni yoki to‘lashni rejalashtirgan summa bilan kelib tushgan yoki to‘langan summa orasidagi farqni hisoblashimiz mumkin.

Bozor iqtisodiyoti korxona, jamoa birlashmalari, kooperativlar, banklar va fuqarolar tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishlari valyuta xo‘jalik mustaqilligi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Lekin, sir emas, jahon kapital bozorida faoliyat yuritish xavf-xatar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pincha riskdan butunlay qutulib bo‘lmaydi, balki uning darajasi pasaytiriladi. Valyuta riskini pasaytirishda banklarning o‘rni muhim. Bank tizimini erkinlashtirish va korporativ banklar faoliyatini universallashtirish sharoitida bank riskini baholash va nazorat qilish g‘oyatda muhim ahamiyatga ega.

Valyuta riski valyuta bozorlarida operatsiyalar bajarish, bank operatsiyalari bozorining baynalminallashuvi trans milliy korxonalar tashkil etilishi bilan bog‘liq.

Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyatda turli valyuta operatsiyalar o‘tkazish jarayonida ayirboshlash kurslarining o‘zgarishi natijasida nisbatan zarar ko‘rish yoki yuqori foyda olish ehtimoli tushuniladi.

Valyuta riski ko‘lami valyutani sotib olish qobiliyatining pasaytirishi (ko‘tarilishi) darajasiga bog‘liq.

Agar eksporyor shartnomalarni to‘lov valyutasi kursi tushgunga qadar imzolasa, u kurs natijasida zarar ko‘rishi mumkin. U holda, tushum mablag‘i milliy valyutaga o‘girilganda ilgari ko‘zda tutilgandan kam bo‘lib chiqadi.

Importyor esa, valyuta kursi oshganda zarar ko‘radi, Chunki mazkur valyuta xaridi uchun ko‘proq valyuta mablag‘i kerak bo‘ladi.

Milliy moliya bozorida faoliyat yuritilganda riskni bashorat qilish mumkin hisoblansa, hududiy va xalqaro moliya bozorlarida bashorat qilish juda qiyin.

Valyuta kursining o'zgarishiga qo'yidagi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Foiz stavkalarining o'zgarishi.
2. Joriy savdo balansining holati.
3. Inflyasiya darajasi.
4. Iqtisodiy va siyosiy sharoitlar.
5. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi.

Valyuta riskini 3 kategoriyaga ajratish mumkin:

1. **Transmetsion risk** – bu hisob amaliyoti bo'lib, unda firma yoki bankning xorijiy valyutadagi aktivlari va majburiyatlari milliy valyutaga o'tkazilayotganda ayirboshlash kurs o'zgarganligi natijasida o'zgarishi sodir bo'ladi. Agar milliy valyutada ifodalangan xorijiy valyuta qimmatlashsa, u holda firma yoki bankning xorijiy aktivlari, majburiyatlari va mulkiy qiymati ham milliy valyutaga nisbatan oshadi. Agarda xorijiy valyuta ayirboshlash kursi qadrsizlansa, teskari hodisa yuz beradi.
2. **Transaksiya riski** ham valyuta riski hisoblanib, u xorijiy valyutada aniqlangan tushum va to'lovlar bo'yicha hisob raqamlarga tegishli bo'ladi. Agar tranzaksion ko'rinish tegishli xedjirlash chora-tadbirlari orqali bartaraf etilmasa, ayirboshlash kursi, firma daromadiga milliy valyutadagi tushumiga va to'lovlar qiymati o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Barqarorlik siyosatini ko'rsatish maqsadida tijorat banklari o'z vaqtida mijozlardan tranzaksion xarajatlar o'zgarish ehtimolini butunlay xedjirlashlarini maslahat berishlari va talab qilishlari lozim.

Shunday qilib, bank minejmentining valyuta savdosi borasidagi eng samarali siyosati qo'yidagilardan iborat:

a) mijozlar tomonidan tashkillashtirilgan tijorat tranzaksiyalar uchun valyuta bitimlarini cheklash;

b) valyuta kassalar uchun overnayt operatsiyalariga qat'iy limitlar o'rnatish va faqat korporativ mijozlar tomonidan muntazam talab qilinadigan asosiy konvertirlanuvchi valyutalar uchun limitlarni cheklash;

v) valyuta savdosiga faol ishtirok etadigan korporativ va bank mijozlar uchun kunduzgi ish kunida valyuta ayirboshlash va overnayt uchun limitlar o'rnatish va mazkur mijozlar aktivligining doimo monitoringini amalga oshirish.

3. **Iqtisodiy risk** - mazkur tur valyuta riskining eng muhim turi bo'lib, u umummilliy firma uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy risk ayirboshlash kursining firma aktivlari qiymatiga uzoq muddatli ta'sirini bildiradi.

Shunday qilib, valyuta operatsiyalaridan zarar ko'rish xavf-xatarini pasaytirish uchun alohida operatsiyalar bo'yicha alohida valyuta riskini nazorat qilish usulidan foydalanadilar. Banklar xorijiy valyutadagi aktiv va majburiyatlarning hajmi va

muddatlariga limitlar qo'yish va har bir alohida valyuta bo'yicha limitlarni muntazam kuzatish va monitoring qilish orqali stabil siyosat ishlab chiqishlari lozim. Muolajalar va limitlar bank kredit siyosati bilan aniqlanilishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekistonda valyuta bozorini erkinlashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilyapti. Bu tadbirlar valyuta operatsiyalari ko'lamini kengaytirib ularni jahon amaliyotiga muvofiqlashtirishga yordam beradi. SHu maqsadda manfaatdor organlar xalqaro valyuta bozorining faoliyat mexanizmini chuqur o'rganishlari lozim. Zamonaviy sharoitda valyuta riskini nazorat qilish vositalarini to'g'ri qo'llash juda muhim, chunki aks holda, valyuta tebranishlari davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

VALYUTA RISKLARINI BOSHQARISH.

Odatda valyuta risklari banklarda turli usullarda boshqariladi. Bank ichki tizimida valyuta risklarini boshqarishning birinchi qadami bo'lib, valyuta operatsiyalariga limitlar o'rnatilishi hisoblanadi. Xususan qo'yidagi bir qator limitlar keng tarqalgan:

1. Xorijiy davlatlarda limitlar (mijozlar va kontrhamkorlar bilan bir kun mabaynida operatsiyalar o'tkazish uchun har bir alohida mamlakat summasida maksimal darajadagi qiymat o'rnatiladi).

2. Kontrhamkorlar va mijozlar bilan operatsiyalarga limitlar (har bir kontrhamkor, mijoz yoki mijozlar turiga operatsiyalar o'tkazish uchun maksimal darajadagi qiymat o'rnatiladi).

3. Dastak limitlari (savdo uchun valyutalar va savdo dastaklari uchun lozim bo'lgan ro'yxatni belgilangan holda foydalanilgan dastaklar va valyutalar bo'yicha cheklovlarni o'rnatish).

4. Har bir kun va dilerga limit o'rnatiladi (savdo qilinayotgan xorijiy valyuta, har bir alohida diler va har bir alohida dastak uchun keyingi kunga o'tkazishning ehtimoliy ulushi bo'yicha, odatda, ehtimoliy ochiq pozitsiyaning maksimal hajmi o'rnatiladi).

5. Zarar limiti (maksimal darajadagi zaralar hajmi o'rnatiladi, bundan so'ng esa, barcha ochiq pozitsiyalar zarar bilan qoplanishi mumkin). Ba'zi banklarda bunday limit har ish kuniga yoki alohida davrga belgilanadi, ba'zi banklarda 7 alohida dastaklarga taqsimlanadi, ba'zilarida esa, alohida dilerlarga o'rnatilishi mumkin. Limitlardan tashqari jahon amaliyotida valyuta xatarlarining qo'yidagi usullari qo'llaniladi:

- aktiv va passivlar bo'yicha valyuta oldi-sotdisining o'zaro hisobi, u «*METching*» usuli deb atalib, unla valyuta chiqimining ko'rsatkichidan valyuti kirimi hisob qilinishi

yordamida bank ularning hajmiga va o'z navbatida o'z xatarlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- «netting» usulining qo'llanilishi, ya'ni bunda valyutalarni mustahkamlash evaziga bitimlar miqdorini qisqartirishning maksimal imkoniyati. Buning uchun banklar bo'linmalar tashkil etib, bu bo'limlar xorijiy valyutalarni oldi-sotdi qilish bo'yicha buyurtmalar tushishini muvofiqlashtirib boradi;

- axborot mahsulotlariga egalik qilish yordamida qo'shimcha axborotlar olish, bunda ixtisoslashgan firmalarning real vaqt tartibida valyuta kurslari va so'nggi axborotlari harakatlari ifodalangan bo'ladi;

- har kunlik asosda valyuta bozorlarini chuqur o'rganish va tahlil etish.

VALYUTA RISKINI BAHOLASH USULLARI VA RISKNI PASAYTIRISH OMILLARI

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan moliya tizimi o'rnatilishi sharoitida moliyaviy munosabatlarni korxona darajasida muvofiqlashtirish mexanizmi iqtisodiy munosabatlar makroregulyatorlari kabi muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, risk so'zi barcha lug'atlarda «zarar ehtimoli» ma'nosida ta'riflanadi. Xavf-xatar amalga oshirilgan bitim, kelishuv yoki bozorning boshqa tranzaksiyasi natijasida qat'iy ishonmaslikni bildiradi.

Bu tabiiy albatta, chunki tijoratda u yoki bu xo'jalik operatsiyalar xususiyatlaridan kelib chiqadigan pul yo'qotishlar xavfi doim mavjud bo'lgan va bo'ladi.

Umumiy holda, **riskni boshqarish** deganda, keyingi zarar miqdorini chegaralashga olib keladigan oldini olish hatti-harakatlar konkret to'plami yordamida favqulotda vaziyatlardagi himoyalaniшни anglatadi. Riskni boshqarish metodi deganda, 2 turdagi xatti-harakatlar tushuniladi: a) bir xil turdagi risk ostidagi tadbirkorlar o'rtasidagi xatarni qayta taqsimlash yoki b) sug'urta firmasiga yordam uchun murojaat qilish.

Moliyaviy riskni boshqarish metodlari amalga oshirish usuliga ko'ra jismoniy va iqtisodiy himoyaga ajratiladi. Investor moliyaviy riskni pasaytirishning ma'lum bir turini tanlaganida qo'yidagi qoidalardan kelib chiqqan holda, ish tutishi lozim:

- o'z kapitalidan ko'proq kapitalga tavakkal qilib bo'lmaydi;

- kichik ish uchun katta mablag'ni riska qo'yish mumkin emas.

Mazkur tamoyillar amaliyotda shuni anglatadiki, avval mazkur tur risk bo'yicha mavjud bo'lgan maksimal zararni hisoblab chiqib, uni o'z kapitali hajmi bilan taqqoslash

lozim, keyin esa ehtimolni maksimal zarar o'z moliya resurslar umumiy hajmi bilan solishtirish kerak. Oxirgi bosqichda mazkur risk bankrotlikka olib kelish-kelmasligini aniqlash lozim. SHunday qilib, moliyaviy risklarni boshqarish nazariyasining barcha jamiyatlari ishtirok etadi: rejalashtirishdan tortib to nazorat qilishgacha.

Shunday qilib, daromadlar va xarajatlar turli valyutada aks etadigan har bir korxona valyuta riski ta'siri ostiga tushadi. SHu sababli, valyuta kursining favqulotda pasayishi juda katta yutuqqa yoki zararga olib kelishi mumkin. SHunday ekan, bu korxona va tashkilotlar o'zlarida valyuta riskini baholash hamda faoliyatini optimal tarzda tashkil qilishlari mumkin.

Faqatgina mazkur tizimlashgan maqsadli tadbirlar orqali xalqaro operatsiyalar ishtirokchilari nafaqat o'z daromadlari qiymatini saqlashlari, balki qulay sharoitda qo'shimcha daromadga ham ega bo'lishlari mumkin. Buning uchun albatta har bir korxonada valyuta riskini baholash bilan maxsus ekspert mutaxassislar shug'ullansalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Valyuta riskini oldini olish yoki undan himoya qilish uchun chet el valyutasining qiymati ko'tarilish yoki qadrsizlanishi riskidan turlicha xedjirlash usullari tarqalmoqda. Valyuta fyuchers bitimlari xedjirlash usullaridan eng keng tarqalgani hisoblanadi. Valyuta fyuchers bo'yicha sotuvchi belgilangan narx bo'yicha chet el valyutasiga kelishilgan summani belgilangan narx bo'yicha chet el valyutasiga kelishilgan summani belgilangan muddatda sotish, xaridor esa, sotib olish qimmatining ko'tarilishi tavakkalidan xedjirlash va bitimni to'lashga olingan valyuta qiymatining pasayishidan xedjirlash farq qilinadi. Birinchi holda, importchi mijoz o'zini tashqi savdo bitimi to'lovini bajarish maqsadida chet el valyutasini sotib olish paytidagi qiymat ko'tarilish tavakkalidan himoya qiladi. Importchi tuzilgan bitim bo'yicha eksportchiga to'lovni bajarish uchun yaqin kelajakda chet el valyutasining sotib olishi zarurligini oldindan bilib, bank vositasidagi eksportchi bilan hisob-kitob qilish paytida uni qoniqtiradigan muayyan qarz bo'yicha fyucherslarni chet el valyutasida sotib oladi. Agar eksportchi bilan hisob-kitob qilish muddati etgunga qadar chet el valyutasining narxi yoki kursi ko'tarilsa, importchi o'sha o'zi sotib olgan fyuchers bitimini yuqori kurs bo'yicha sotadi. Olingan foyda eksportchi bilan hisob-kitob qilish paytida endi amalda sotib oldinadigan chet el valyutasining yuqori qiymatini qoplaydi. Olinadigan chet el valyutasini qiymatining kutiladigan pasayishi riskidan himoya qilish lozim bo'lgan holda eksportchi oldiniga fyuchers bitimini hali ham yuqori narxda sotadi. So'ngra kutilganidek, chet el valyutasining joriy kursi haqiqattan ham pasayganda eksportchi fyuchers valyuta bitimini endi nisbatan arzon narxda sotib oladi. Olingan foyda imkonidan amalda olingan chet el valyutasining pasaygan qiymatini qoplaydi.

Valyuta riskidan himoya qilishning boshqa usullari ham mavjud: - valyuta opsiioni, valyuta svoplari, forvard bitimlar.

Forvard shartnomasi

Muddatli valyuta shartnomalari bir necha turdan iborat. Forvard shartnomasi ularning ko‘rinishlaridan biridir. Forvard odatda 6 oyga, ya’ni asosan 1 yilgacha muddatga tuziladigan shartnomadir. Uning asosiy ishtirokchilari tijorat bank va mijoz.

Mukofot va diskont uslubi orqali aniqlangan kurs «*Autrayt*» kursi deb ataladi.

Muddatiga qarab forvard kurslari – 1 oylik, 2 oylik, 3 oylik va h.k 1 yilgacha kurslar bo‘lishi mumkin. Agarda spot operatsiyasining asosiy maqsadi sotib olish va sotish bahosi farqi sifatida foyda omili bo‘lsa, forvard operatsiyasining maqsadi – bu valyuta xavf-xataridan himoyalash, ya’ni xedjirlash.

Forvard operatsiyasi -- bu muddatli valyuta operatsiyasi bo‘lib, shartnoma 1 yilgacha bo‘lgan muddatda tuziladi, ammo kurs esa shartnoma tuzilgan kunda belgilanadi. SHartnomaning ijrosi esa belgilangan muddatda amalga oshadi.

Amaliyotda forvard kurslari oldindan muddatlariga qarab bankda hisoblangan bo‘ladi va ko‘pincha valyutalarni bir-biriga yoki mukofot kotirovka qilinishiga va kotirovka uslublariga e’tibor beriladi. Forvard kursi zaminida spot kursi yotadi.

To‘g‘ri kotirovkada mukofot spot kursga qo‘shiladi, diskont esa ayriladi. Teskari kotirovkada mukofot spot kursdan ayriladi va diskont esa qo‘shiladi. Forvard shaotnomalariga zarurat asosan eksportyor va importyorlarga tug‘iladi hamda bu zarurat valyuta kursini o‘zgarishi bilan bog‘liq risk tufaylidir.

Fyuchers shartnomalari.

Fyuchers operatsiyalari muddatli valyuta operatsiyalari turkumiga kiradi. Fyuchers operatsiyalari – muddatli valyuta operatsiyalari bo‘lib, shartnomaning kursi shartnoma tuzilayotgan paytda qayd etiladi, shartnomaning o‘zi esa, kelgusidagi ma’lum bir sanada aks etadi. SHartnoma ishtirokchilari bo‘lib sotuvchi va sotib oluvchilar bo‘lib, ular shartlarga asosan bo‘nak to‘lovini kafolat sifatida to‘laydilar. Ishtirokchilar orasidagi hisob-kitoblar kliring palatasi orqali amalga oshadi. Fyuchers shartnomalarining maqsadi tovar etkazib berish emas, balki xedjirlashdir.

Birjadagi marja tizimi hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday kamomadni qoplash imkonini beradi. Mazkur marjaning manbasi ishtirokchilar badallaridir. Badallar ishtirokchilar tomonidan shartnoma amalga oshgunga qadar birjada to‘lanadi. Masalan, 25000 AQSH dollar qiymatga ega shartnomana tuzish uchun 1500 AQSH dollar hajmida sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan bo‘nak hosil qilinishi zarur.

Opsion shartnomalari.

Odatda qo'shimchalar sifatidagi mukofot yoki diskontlar kontragentlarni shu soha bo'yicha qanchalik ma'lumotga ega bo'lganligiga bog'liq va ular shartnoma predmeti bo'lib hisoblanadi. Bu munosabatda opsion shartnomalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Opsion- lotincha so'zdan olingan bo'lib, tanlov ma'nosini bildiradi. Opsion – ma'lum bir aktivni shartnomada qayd etilgan bahoda oldindan kelishilgan sanada yoki kelishilgan ma'lum bir davr ichida sotib olish yoki sotish huquqini boshqalarga berilishi haqidagi ikki taraflama shartnomadir.

Shartnoma bo'yicha bir broker opsionni yozib boshqa brokerga beradi. Boshqa broker esa, uni sotib oladi va opsiosh shartlari ko'zda tutgan muddat ichida uni o'rnatilgan kurs asosida opsionni yozib bergan shaxsdan ma'lum bir miqdordagi valyutani sotib olish yoki unga bir valyutani sotish huquqiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, opsional sotuvchi valyutani sotishga majbur, opsionni sotib oluvchi shaxs esa buni qilishi shart emas, ya'ni u valyutani sotib olishi yoki sotib olmasligi mumkin.

Opsionning 3 turi mavjud:

1. Sotib olishga opsion – bu opsionni sotib oluvchi shaxsni valyuta kursining o'sishi xavfidan o'zini himoya qilish maqsadida uning mazkur valyutani sotib olish huquqidir.
2. Sotishga opsion – bu opsionni sotib olgan shaxsni valyuta qadrsizlanishidan o'zini himoya qilish maqsadida shu opsionni sotishga huquqini bildiradi.
3. Opsion –stellaj. Bu opsion egasiga valyutani bazis bahosi bo'yicha sotib olish yoki sotish huquqini beradi.

Opsionda uning muddati ko'rsatiladi. Opsionning muddati bu sana yoki ma'lum bir davr bo'lib, sana yoki davr muhlati o'tib ketsa, mazkur opsionni ishlatib bo'lmaydi.

Amaliyotda opsionning 2 usuli mavjud: evropacha va amerikacha.

Evropacha stilda opsion faqat ma'lum bir belgilangan sanaga ishlatilishi mumkin.

Amerikacha usulda opsion davrining istalgan paytida ishlatilishi mumkin.

Opsion o'z kursiga ega. Opsion kursi bu strayk bahodir. Bu valyutani sotib olish yoki sotish mumkin bo'lgan bahodir. Opsionni sotib oluvchi shaxs opsionni sotuvchi yoki uni yozib bergan shaxsga mukofot deb ataluvchi komissiya haqini to'laydi. Mukofot - bu opsionning bahosidir. Opsionni sotib oluvchi shaxsning xavf-xatari shu mukofot miqdori bilan cheklanadi, o'z navbatida opsionni sotuvchi shaxsning riski esa olingan mukofot miqdoriga kamayadi. Opsionga egalik qilish uni sotib olgan shaxsga oldindan

bilib bo'lmaydigan kelgusidagi o'zgarishlardan o'zini himoyalash imkonini beradi. Opsion shartnomasi opsion egasi uchun ijro etilishi majburiy bo'lgan shartnoma emas. SHuning uchun ham agarda opsion amalga oshmasa egasi uni berib yuborishi yoki ishlatmasdan qoldirishi mumkin.

Svop shartnomasi.

«Svop» operatsiyasi – bu hisob-kitob sanalari turlicha bo'lgan, ta'minan teng hajmdagi xorijiy valyutani bir vaqtning o'zida sotilishi va sotib olinishidir. «Svop» - bu valyutani so'nggi sotuv kafolati bilan vaqtinchalik sotib olish. Amaliyotda svop bir vaqtning o'zida valyuta almashinuvi bilan bog'liq 2 alohida shartnomani imzolanishini ko'zda tutadi. Bu shartnomalar qarama-qarshi yo'nalishlarga va turli hisob-kitob sanalariga ega. Bu shartnomalarni biri bo'yicha birinchi valyuta ikkinchi valyutaga boshqa sanada etkazib berish sharti bilan sotib yuboriladi. Svop valyuta operatsiyalarini ko'p hollarda banklar amalga oshadi.

Valyuta risklarini boshqarish bilan bog'liq muammolar.

Valyuta risklarini boshqarish bilan bog'liq muammolarni o'rganish va ularning echimini topish, bank tizimini barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotni barcha tarmoqlarini investitsiyalash jarayoni ichki va tashqi mablag'lar bilan ta'minlanmoqda. Bunda xorijiy kredit liniyalari bo'yicha ham turli operatsiyalar bajarilmoqda. Bu jarayonda albatta valyuta risklarini e'tiborga olish bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Banklarni xorijiy valyutada amalga oshiriladigan operatsiyalari yanada ko'payib boradi.

Valyuta risklarini boshqarish muammolari:

Xorijiy valyutada operatsiyalar o'tkazayotgan bank ikkita riskga duch keladi:

- valyuta kurslaridagi salbiy harakat yoki ustama foizlarining ochiq pozitsiyalariga ta'siri;
- ikkinchi tomonning spot, forvard yoki depozit majburiyatlari bo'yicha imzolanishidan oldin bankrot bo'lishi.

Bir qancha yirik banklar tomonidan ko'rilgan zararlarni bu harakatlarni qo'yidagi ikki omil bilan tasniflash mumkinligini ko'rsatadi:

- boshqaruv yoki bank boshqaruvchisining to'liq xabardorligi yoki vakilligidagi bajariladigan operatsiyalari;

- bank boshqaruvi vakolatsiz yoki vakolatidan tashqari xorijiy valyuta operatsiyalari bo'limi dilerlari tomonidan bajariladigan operatsiyalar.

Valyuta risklari darajasini ikki usul qo'llagan holda kamaytirish mumkin:

- 1) valyuta narxini to'g'ri tanlash;
- 2) valyuta pozitsiyalarini shartnomalar bo'yicha muvofiqlashtirish.

3-mavzu: Kredit riski mazmuni, baholash va uni boshqarish usullari

Reja:

1. Kredit riski va uni boshqarish yo'llari.

2. Tijorat banklari kredit portfelinin g tahlili.

1. Kredit riski va uni boshqarish yo'llari.

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi ya'ni kredit summasining (qisman g'ki to'liq) va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi. SHuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish har qanday tijorat bankning rivojlanish va taraqqiy etish maqsadiga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan holda kreditor(bank)da qarz oluvchi tomonidan kredit shartnoma shartlarini, uning o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi. Ma'lumki, bank amalig'tida foyda berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining g'ki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi, g'ki umuman to'lanmasligi bank foydasining kamayishi oqibatida bankning kelajakdagi mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi. SHuning uchun kreditorlar ular bergan mablag'larning qaytishi bilan bog'liq risklarni kamaytirishga harakat qiladilar.

Qarz oluvchi faoliyatida mavjud risklar darajasini kreditor kredit bergunga qadar, keyinchalik kredit bergandan keyin, undan foydalanish davomida aniqlash mumkin.

Riskni minimallashtirish maqsadida kreditor kredit berishdan oldin riskni aniqlashga harakat qiladi.

Bazel II talablari 1988 yilda e'lon qilingan "Kapitalni baholashning xalqaro bir xillashtirish (konvergensiya) va standartlar" (Bazel I) ni takomillashtirish orqali tegishli metodologiyani ishlab chiqish, xalqaro bank tizimini ishonchliligi va barqarorligini ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan. Bazel II talablari kapitalni banklar faoliyatida yuzaga keledigan risklar turlarining kengaytirilgan shkalasi bo'yicha hisob-kitob qilishni taklif etdi. Ya'ni Bazel qo'mitasi taklif qilingan risk turlarini uchta yirik toifaga ajratdi: kredit riski, bozor riski, operatsion risk. Bundan tashqari, nazorat funksiyalari risklarni tijorat banklari tomonidan ichki uslub asosida nazorat qilish, ma'lumotlarning shaffofligi va bozor intizomi nuqtai nazaridan o'zgartirildi. Bu esa Bazel II ning muhim afzalliklaridan hisoblanadi.

Bazel qo'mitasi tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan **kredit risklarini** qarzdor yoki kontragent tomonidan o'z majburiyatlarini kelishilgan shartlarga muvofiq bajara olmaslik ehtimoli deb baholaydi. Majburiyatlarni bajara olshi qobiliyati qarzdorning moliyaviy holati (kredit qobiliyati) ga bog'liq. Mijozning kredit qobiliyatini va kelajakda kredit bo'yicha foiz to'lovlarini amalga oshirish qobiliyatini baholash uchun bank mijozning ahvoli, xususan oylik pul oqimlari (daromad va harajatlarini) to'g'risida axborotlarini olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Shuni hisobga olgan holda, banklarda kredit risklari bo'yicha aniq ma'lumotlarning etarli emasligi bank aktivlari sifatini baholashda qiyinchilik tug'diradi, bu esa kutiladigan zararlarga qarshi zahiralarni shakllantirish uchun qo'shimcha mablag'larga ehtiyoj uyg'otadi. Bank kapitali esa ko'zda tutilmagan zararlar uchun himoya vazifasini o'taydi.

Bazel qo'mitasi **bozor riskini** bozor baholarining tebranishiga asoslangan bank balansi va balansdan tashqari moddalari bo'yicha yo'qotish riski deb ta'riflaydi. Bozor riskining asosiy 4 ta turi mavjud:

- Foiz riski, misol uchun, bank qat'iy belgilagan muddatli foizli obligatsiyalar sotib olinganda, mazkur obligatsiyalarning bozordagi foiz stavkasining o'zgarishi, obligatsiyaning bozor qiymatiga ta'sir ko'rsatadi.
- Valyuta riski, misol uchun, bank tomonidan xorijiy valyutadagi kreditlar berilganda, ichki bozorda milliy valyuta qiymatining oshishi kredit qiymatining pasayishiga olib keladi.
- Aksiyador riski, misol uchun, bank tomonidan kompaniya aksiyalari sotib olinganda, ushbu aksiya qiymatlarining fond birjalarida pasayishi bankka zarar keltiradi.
- Tovar riski, misol uchun, bank tomonidan qimmatbaho metall (oltin) sotib olinganda, tovar birjalaridagi oltin narxining pasayishi bankka zarar keltiradi.

Bazel qo'mitasi **operation riski** ichki jarayonlar va tizimlarning nomuvofiqligi, xodimlarning mas'uliyatsizligi yoki boshqa tashqi omillar hisobiga yuzaga keladigan xavf-xatar deb baholaydi. Mazkur tushuncha bank va uning xodimlari tomonidan qonunchilikka, axloqiy me'yorlarga, shartnoma majburiyatlariga rioya etmaslik hamda sud jarayonining qo'zg'atilishi tufayli yuzaga keladigan huquqiy riskni ham ko'zda tutadi. Operation risk turlari quyidagilardan iborat:

- Ichki bo'xton va firibgarlik, ya'ni dilerlar tomonidan bank holati bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlarning berilishi, xodimlar tomonidan amalga oshirilgan o'g'irliklar, xodimlarga berilgan pora evaziga kredit hujjatlarini soxtalashtirish va boshqalar.
- Tashqi bo'xton va firibgarlik, ya'ni hujjatlarni o'g'irlash va soxtalashtirish, komp'yuter aloqalariga ruxsatsiz kirish, kredit olish uchun noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish.
- Mijozlar, xizmatlar va biznes yuritish standartlariga oid ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va hisobvaraqlardan foydalangan holda firibgarlik.
- Moddiy aktivlarga zarar etkazish, ya'ni qo'poruvchilik, terrorizm, er qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar.

- Ishdagi, axborot va aloqa tizimidagi xatolik va uzilishlar, ya'ni texnikaning ishlamay qolishi, telekommunikatsiya muammolari va dasturdagi uzilishlar.
- Hujjatlarni rasmiylashtirish, operatsiyalar o'tkazish va jarayonlarni boshqarish, ya'ni ma'lumotlarni kiritishdagi xatoliklar, huquqiy hujjatlarning etishmasligi, kredit ta'minotiga tegishli xatoliklar va boshqalar.

Kredit risklari tarkibiga quyidagi risklarni kiritish mumkin:

1. Kreditni uz vaktida qaytarmaslik bilan bog'liq risk. Bu risk qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligi:
2. Likvidlik riski (tulovlarning muddatida utkazmaslik), bu risk kreditni va foizlarni muddatida qaytara olmaslik natijasida bank likvid mablag'larining kamayishiga olib kelishi bilan bog'liq.
3. Kreditni ta'minlash bilan bog'liq risk, bu riskni aloxida kurib bulmaydi, balki bu kreditni qaytarmaslik bilan bog'liq bulgan risk bilan birgalikda urganiladi. Bu risk turi kredit uchun quyilgan garovni sotishdan tushgan mablag' ajratilgan kreditni koplash uchun etarli emasligi bilan bog'liq dir, natijada bank uz talabini tula kondira olmaydi.
4. Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'lik risklar. Bu risk korxonaning ish faoliyati bilan bog'liq bulib (sotib olish, ishlab chikarish va sotish), ammo boshka risklardan farli ularok bu riskka korxona raxbaridan bog'liq bulmagan faktorlar ta'sir kursatadi, masalan tarmokning rivojlanishi va kon'yukturasi. Bu riskning xajmini investitsion dastur va ishlab chikaradigan maxsulot turi va sifati belgilaydi.
5. Kapitalning tarkibiy kismi bilan bog'lik risklar. Bu risklar passivlarning tarkibiy kismi va ishbilarmonlik riski bilan bog'liq.

Bank kredit riskining darajasi quyidagi faktorlarga bog'liq:

- bank kredit faoliyatining ma'lum bir soxada markazlashuvi darajasi;
- uziga xos ma'lum kiyinchiliklarni boshidan kechiraetgan mijozlarga kredit va boshka bank xizmatlarining kancha tugri kelishi;
- kam urganilgan, yangi, noan'anaviy soxalarda bank faoliyatining markazlashuvi;
- kredit berish, kimmatli kogojar portfelini shakllantirish buyicha bank siyosatiga xususiy va jiddiy uzgarishlar kiritish;

- yangi va yakinda jalb kilingan mijozlarning foizi;
- kiska vakt ichida amaliyotga juda kup xizmatlarning kirgizilishi (u vaktida bankda salbiy talablar kupayishi mumkin);
- bozorda sotilishi kiyin bulgan kimmatliklarni g'ki kiymati tez tushadigan narsalarni garov sifatida kabul kilib olish va boshkalar.

Kredit risklarini baxolashning besh asosiy ulchovi mavjud:

a) Reputatsiya. Mazkur jarag'n shaxsiy muomala, xam shaxsiy, xam ish buyicha tajribasidan iborat bulishi kerak (kreditor, maxsulot etishtirib beruvchilar va mijozlarni tekshirish).

b) Imkoniyatlar. karz oluvchining uzining barcha operatsiyalari buyicha (uzining butun faoliyati davomida karz oluvchining olgan pullari) g'ki anik loyixa buyicha mablag olish kobiliyati va pul vositalarini boshkarish kobiliyati (bu avvalgi loyixalardan ma'lum bulishi kerak).

v) Kapital. karz oluvchining kapital bazasi va kredit suralgan loyixa uchun uzining mablaglarini sarflashga doir kat'iyligi. karz oluvchi loyixa xavfi mas'uliyatini kredit beruvchi bank bilan birga uz zimmasiga olishi, uzining xissadorlik kapitalining kabul kilinishi mumkin bulgan kismini takdim etib, uziga tegishli bulgan majburiyatlarni uz zimmasiga olishi kerak.

g) Shart-sharoitlar. Maxalliy, xududiy va umummilliy iktisodning joriy axvoli va tavsifi, shuningdek karz oluvchvi xujaligining soxalari.

d) Garov. Kreditni garov g'ki kafillik shaklida ishonchli ta'minlash boshka tomondan kuchsizliklarni yuka chikarib kuyadi. YAxshi bir koida bor: fakat garov va kafillik asosida xech vakt kredit bermang.

Banklar odatda kredit sifati buyicha uzlarining xususiy reyting sistemalarini ishlab chikadilar, ayrimlari oddiy sxemalardan foydalanadilar, boshkalari murakkab va bulinib ketgan, xamma narsani uz ichiga oladigan sxemalarni ishga soladi.

Shunday bulsa xam maksad doim bir bulishi kerak: kredit berishda xam, uning baxosini belgilashda xam bankning kredit bulimi uchun karor kabul kilish jarayonini

engillashtirish. Odatda bu narsa risk toifalarini rakamlar yoki xarflar bilan atash, ularni klassifikatsiya qilish yuli bilan amalga oshiriladi:

- Kredit risklarini yuzaga keltiruvchi omillar eng avvalo bank tomonidan anik kredit sigʻsatining ishlab chikilmaganligi.
- Kredit siyosatining keragidan ortik agresiv tashkil kilinganligi (kreditlarning aktivlardagi ulushi 65 % dan ortik bulganda).
- Tarmoklar va opreatsiyalar buyicha diversifikatsiyaning tugri tashkil kilinmaganligi.
- Blank (ishonch asosidagi) kreditlarning kredit portfelidagi ulushining kupligi.
- Insayderlar bilan shartnomalar xajmining kupligi.
- Bank mutaxassislarining yuridik jixatdan etarli tajribaga ega bulmaganliklari
- Olinaetgan garovlarning tugri tanlanmasligi. Bu buyicha xam yurist xulosasini olish uta muximdir. Bugungi kunda kredit fakat garov gʻki kafolat xati asosida berish mumkin lekin garovni realizatsiya qilish buyicha etarli mexanizm yukligi bu narsaning yanada riskini oshiradi.
- Kredit talabi bilan kelgan mijozlar xakida maʼlumotlarning yukliga gʻki ularni yigishning kiyinchiliklari xam mavjuddir.
- Kredit olgan mijoz korxonalarda (ayniksa ilgaridan faoliyat kursatib keluvchi korxonalarda) raxbarlarning tez tez almashib turishi xam uziga yarasha riskli xolatlarni yuzaga keltirmokda.
- Bundan tashkari kredit portfelining katta kismini bir tarmok ka tegishli mijozlar tomonidan egallab olishi xolatlari.
- Moliyaviy xujjatlar taxliliga yuzaki gʻndashish.
- Mijoz talab kilgan mablagning tulik asoslanganligini aniklashda kuyilgan xatoliklar.
- Kredit xujjatlari bilan shugullanuvchi mutaxassisning etarli malakaga ega bulmay kolishi (Xozirgi sharoitda koida va talablarning tez uzgarib turishida bulishi mumkin).
- Ilgaridan tajribasi bulmagan faoliyatni boshlagan mijozlarga kredit berish.

- Yangi tashkil etilgan mijozlarning kredit portfelidagi ulushi.
- Ta'minotlarning etarli bulmasligi (garov baxosining assosiz ravishda yukori bulishi).
- Hujjatlarni tag'rlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar (bank manfaatlarini etarli ximoya kilinmasligi).
- Berilgan kredit buyicha muddat aniklashda xatoliklarga yul kuyish.
- karzning sindirilish davrida etarli nazoratning bulmasligi.

Yuqoridagi bag'n kilingan barcha vazifalar xozirgi kunda respublikamizda mavjud bulgan barcha tijorat banklari uchun dolzarb, birlamchi, vazifalar bulib xisoblanadi.

Kredit riskining yuzaga kelishiga quyidagi hollar:

à) turli xil makro va mikroiqtsodiy omillar, iqtisodiy qonunchilik va me'yorlardagi o'zgarishlar;

b) qarz oluvchi o'z faoliyatida bo'ladigan iqtisodiy va siyosiy muxitdagi o'zgarishlar, salbiy hollar tufayli olingan kreditni to'lashga mos pul oqimini tashkil qila olmasligi;

v) kreditning ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo'yicha to'liq ishonchning yo'qligi;

g) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlar

d) qarz oluvchi sub'ektning maxalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatida yuzaga kelgan o'zgarishlar va boshqa sabablar bo'lishi mumkin.

Banklar va bankirlar boshqa kreditorlarga nisbatan riskdan ko'p himoyalanuvchi yoki qochuvchi bo'lishligi kerak. Buning sababi shundaki, bank boshqa kreditorlarga nisbatan o'z mablag'i bilan emas, balki jalb qilingan mablag'lar, ya'ni jismoniy, huquqiy shaxslarning vaqtincha bankda turgan mablag'lari bilan ishlaydilar. Bankning kredit berish qobiliyati u jalb qilgan resurslarga bog'liq bo'ladi. Bank o'z navbatida bu jalb

qilingan mablag'larni talab qilingan vaqtda mijozga qaytarib berish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Kredit riskning yuqori bo'lishi bank tomonidan pul bozoriga murojaat qilish va uning mablag'laridan foydalanishda ehtiyotkor bo'lishga da'vat qiladi. Kredit risklarini tahlil qilish nafaqat qarz oluvchining moliyaviy holatini o'rganish, shuningdek bankning ichki faoliyatini yaxshilash uchun zarur axborotlar yig'ish imkoniyatini yaratadi. Kreditlarni risk bo'yicha jihatlarga bo'lish, ularni minimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish, bank manfaatlarini himoya qilish kredit risklarini kamaytirishga asos bo'lishi mumkin. Kredit risklarning vujudga kelishining asosiy sabablari kreditlarning bir soha, bir tarmoqqa ko'p ajratilishi, bir qarzdorga to'G'ri keluvchi riskka rioya qilmaslik tufayli ham bo'lishi mumkin. Kreditlarni risk darajasi bo'yicha bo'lish kredit qo'yilmalarning qaysi (qancha) miqdori normal risk g'ki yuqorida risk zonasida ekanligini ko'rsatishga mumkin.

Kredit riski likvidlik riskiga va bankning to'lovga noqobilligi riskiga, shuningdek bankning ma'muriy-xo'jalik harajatlarini qoplay olmasligi bilan bo'g'liq risklarga olib kelishi mumkin, foiz stavkasi riski o'zicha mustaqil bo'lsada, u kredit riski va boshqa barcha risklar zanjirini chuqurlashtirib borishi mumkin.

Tijorat banklarimizning dolzarb muammolaridan biri balans ma'lumotlari va kredit portfelining tahlili asosida kredit risklarini boshqarish hisoblanadi. Kreditlarni risk sinflariga guruhlash, ularni tahlil qilish, ularni minimallashtirish va bank manfaatini himoya qilish usullarini ishlab chiqish kredit risklarini kamaytiradi. Ishlab chiqishda pasayish bo'lag'tgan korxona va tarmoqlarda kreditning to'planishidan voz kechish, shuningdek, «hamma tuxumni bir savatga solmaslik kerak», degan donishmandlarning naqliga amal qilgan holda bir qarz oluvchiga to'G'ri keluvchi riskning maksimal miqdoriga rioya qilish kredit riskini engillashtirishga imkon beradi.

Bank risklarini baholashning statistik-ekspert usuli ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar ehtimolini ikkita mezon yordamida baholashga asoslangan:

1. Kutilayotgan o'rtacha qiymat.

2. Ehtimol qilingan natijaning o'zgaruvchanligi.

Kutilayotgan o'rtacha qiymat tushunchasi vaziyatning noaniqligi bilan bog'liq bo'lib, erishilishi mumkin bo'lgan barcha natijalarning o'rtacha qiymatidan iborat va bunda har bir natijaning ehtimolidan tegishli qiymatning tez takrorlanishi yoki salmoq sifatida foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkich biz kutayotgan o'rtacha natijani o'lchaydi.

Diskret tasodifiy miqdor dispersiyasini hisoblab chiqishni ikkitadan ortiq muqobil natija mavjud bo'lganida ham muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. Lekin hisoblashni soddalashtirish maqsadida bo'lajak zararlar darajasining faqat ikkita qiymatidan minimal va maksimal qiymatdan foydalanish mumkin. Bunda qiymatlarning ehtimolligi bir xil bo'lgani holda ular o'rtasidagi oraliq qancha katta bo'lsa, risk darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

O'rtacha miqdor — mavjud miqdorlarga son jihatdan o'rtacha ta'rif beradi va biror bir qo'yilgan kapital tamoniga yoki foydasiga yondashishga yo'l qo'ymaydi. Bu sohada aniq qaror qabul qilishdan oldin ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanlik, aniqrogi olinadigan natijaning o'zgaruvchashsk darajasini aniqlab olish lozim.

Olinishi mumkin bo'lgan natijalarning o'zgaruvchanlik darajasi kutilayotgan natijaning o'rtacha miqdoridan qay darajada farq qilishini ko'rsatadi. Buni aniqlash maqsadida olinayotgan ikki xil matematik mezon qo'llaniladi. Bular dispersiya va o'rtacha kvadratik farqlanishdir.

Variatsiya koeffitsienti bo'yicha farqlanish darajasining kam yoki ko'p bo'lishi bank amalga oshiradigan operatsiyalar bo'yicha risk darajasining past yoki yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Ya'ni bankning operatsiyalari bo'yicha risk darajasi variatsiya koeffitsientiga to'g'ri proporsional. SHuning uchun bank faoliyati davomida riskni kamaytirish va bank likvidligini oshirish maqsadida bank mablag'larini farqlanishi eng kam bo'lgan variant (operatsiya)ga qo'yish bank uchun foydali hisoblanadi.

Bank risklarini baholashning yana bir usuli tahliliy (kompleks) usul bo'lib, bu usul o'yinlar nazariyasi unsurlarining qo'llanishiga asoslanadi. U bank o'zining ham, uning atrofidagi kontragentlarning ham amalga oshirishi mumkin bo'lgan hamma muqobil

harakatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Uyinlar nazariyasi unsurlaridan foydalangan holda vazifalarni hal qilish jarayoni juda katta bo'lib, ko'p vaqt sarflashni talab qiladi.

Shu sababli bu usulni qo'llash hozirgacha iqtisodiy jihatdan maqsadga unchalik muvofiq bo'lmashligi mumkin.

Yuqoridagi usullardan tashqari ko'riladigan taxminiy zararlar darajasiga qarab zahira va sug'urta fondlarini shakllantirish zaruriyati butun bank bo'yicha jami risklar baholashini talab qiladi. Bu o'rinda bank bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasini belgilash hammadan ko'ra qulayroq. Bu ko'rsatkich risk koeffitsienti asosida chiqariladi.

$$K_r \text{ (risk koeffitsienti)} = (\text{Maksimal zararlar}) / (\text{o'z mablaglari})$$

$$\text{Kum } r = \{(R_1 + R_2 + R_3 + \dots + R_n) / s\} * E,$$

bunda:

Kum - bank bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasi;

R - shu bankning barcha operatsiyalari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar;

s - bankning o'z mablaglari ;

E - bank tashqi risklarining me'yoriy koeffitsienti.

Xalqaro amaliyotda tashqi risklarni tahlil qilishning ikki bosqichlik tizimi vujudga kelgan. Birinchi bosqichda mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat tahlil qilinadi, ikkinchi bosqichda mamlakatdagi riskning umumiy darajasi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida hisoblab chiqiladi:

- yalpi milliy mahsulotning o'sishi;
- aholi jon boshiga YAIM ning o'sishi;
- inflyasiya darajasi; ishsizlik darajasi;
- davlat byudjetining taqchilligi;

- investitsiyalarning samaradorligi;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligi;
- savdo va to'lov balanslari; siyosiy xatarning kattaligi va h. k.

Mamlakatdagi risklarni tahlil qilganda jahondagi ko'pgina etakchi mamlakatlarning statistika xizmatlari maxsus e'lon qiladigan ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha ekspert baholari va reytinglaridan ham foydalaniladi.

Bank risklarini tahlil qilishning uchchala usuli o'zaro umumiy asos bilan birlashtirilgan, ular ehtimollik nazariyasi qoidalariga asoslanadi. Ularning asosiy farqi murakkablik darajasidir. Eng oddiy usul statistik usul bo'lib, eng keng qamrovligi taxminiy usuldir. Tahlil qilishning u yoki bu usulini tanlab olish vaqtida banklar zarur axborotni topishning osonlik darajasi, to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlashning oddiyligi va tezligi, olinadigan tahlil natijalarining aniqlik darajasi, tahlilni amalga oshirish uchun qilinadigan moliyaviy xarajatlar miqdori va ularning asosiligi, kadrlarning kasbiy tayyorlanganlik darajasi va boshqa mezonlarga amal qiladilar.

Ana shunga asoslanib, hozirgi sharoitda tijorat banklari uchun eng maqbuli bank risklarini ekspert yo'li bilan baholash usulidir. Garchi hozirgi vaqtgacha mamlakatimizning tijorat banklari qarz oluvchilarning kreditga layoqatligini reyting usulidan foydalanib aniqlab kelayotgan bo'lsa-da, riskni baholashning yuqorida keltirilgan usullarini qo'llash uni minimallashtirish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida bozor o'zgarishlari tobora chuqurlashib borayotganligi va bank sektorida raqobat keskinlashayotganligi munosabati bilan ertami kechmi tijorat banklari riskning turli ko'rinishlari darajalarini har tomonlama baholash masalalari bilan bevosita shug'ullanishga majbur bo'ladilar. SHuning uchun etuk mutaxassis kadrlarga ega bo'lgan tijorat banklari xo'jalik sub'ektlariga kredit berishda qisqa muddatli kreditlash qoidalariga asosan korxonalarning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini aniqlaganlari bilan bir qatorda beriladigan kredit bo'yicha yuqoridagi yo'l bilan amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirning risklilik darajasini ham aniqlab kreditlash jarayonini amalga oshirishsa, banklarga ancha foydali bo'ladi.

Tijorat bankning kredit risklarini boshqarish jarayonida bir nechta umumiy xarakterlovchi bosqichlarni ajratish mumkin. Bular:

- bankning kredit siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish;
- ma'muriy echimlarni qabul qilish tizimini va kredit riskini boshqarish ma'muriy tarkibini tashkil etish;
- qarzdorning moliyaviy holatni tahlil qilish;
- kredit shartnomasini ishlab chiqish va imzolash;
- kreditlarning qaytarilmaslik riskini tahlil qilish;
- barcha ssudalar portfeli bo'yicha qarzdorning kredit monitoringini yo'lga qo'yish va uzluklashtirish;
- muddati o'tgan va shubhali kreditlarni qaytarish va garovni sotish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

Kredit riskini boshqarish uchun bank xodimi ssudalar portfelinin sifatli tarkibi va tuzilishi ustidan doimo nazorat olib borishi kerak. «Foydalilik-risk» munozarasi doirasida bank xodimi o'zini ortiqcha risklardan saqlagan holda foyda normasini cheklashga majbur. U riskni bo'lib-bo'lib qo'yish siyosatini olib borish, hamda kreditlarni bir nechta yirik qarzdorlarda to'planishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Aks holda, qarzdorlardan birining kreditni to'lay olmasligi bankning moliyaviy ahvolini qiyinlashtirishi mumkin.

Kredit riski likvidlik riskiga va bankning to'lovga noqobilligi riskiga, shuningdek bankning ma'muriy-xo'jalik harajatlarini qoplay olmasligi bilan bo'YOliq risklarga olib kelishi mumkin, foiz stavkasi riski o'zicha mustaqil bo'lsada, u kredit riski va boshqa barcha risklar zanjirini chuqurlashtirib borishi mumkin.

Tijorat banklarimizning dolzarb muammolaridan biri balans ma'lumotlari va kredit portfelinin tahlili asosida kredit risklarini boshqarish hisoblanadi. Kreditlarni risk sinflariga guruhlash, ularni tahlil qilish, ularni minimallashtirish va bank manfaatini himoya qilish usullarini ishlab chiqish kredit risklarini kamaytiradi. Kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil qilinadigan rezerv fondlari kredit risklarining o'ziga xos amortizatori bo'lib xizmat qiladi.

Biz halqaro bank amaliyotida va mahalliy bank amaliyotida kreditlash jarayonini tahlil qilib, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning risklilik darajasini aniqlash uchun ba'zi bir ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishni maqsadga muvofiq bo'ladi va ular kredit risklarining oldini olish imkoniyatini tug'diradi degan taklifni bermoqchi edik. Kredit risklarini baholashni tezkorlik usuli bilan har tomonlama kengaytirilgan tahlil asosida olib borish lozim. Hozirgi kunda tijorat banklarimiz faoliyatida qo'llanilayotgan 3-4 koeffitsent asosida kreditga layoqatlilikni aniqlash mijoz oladigan kredit bo'yicha risk darajasini bizning nazarimizda to'liq ifoda qila olmaydi.

Kredit riskining darajasini aniqlashdagi muhim ko'rsatkichlardan biri bu korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligini ifodalovchi koeffitsentdir.

Muxtorlik koeffitsenti hissadorlarning, aksiya egalarining va kreditorlarning manfaatlarini va shu bilan birga moliyaviy mablag'larning tarkibini ham ifodalaydi, ya'ni chetdan jalb qilingan kapital bilan o'z mablag'lari ta'minlanganligining nisbiy darajasini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich depressiya davrida korxonalarni katta yo'qotishlaridan saqlaydi va kredit olish uchun kafolat hisoblanadi. Bu ko'rsatkich orqali korxonaning moliyaviy ahvoriga baho berish mumkin.

Absolyut likvidlilik koeffitsenti qarzдорlik bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlaydi, ishlab chiqaruvchining harakatdagi aktivlar darajasini o'zida ifoda etadi. Absolyut likvidlik koeffitsentining eng mukammal ko'rinishi bu likvidlik koeffitsenti bo'lib, u yuqori va o'rta likvidlik mablag'lar summasi bilan qisqa muddatli qarzдорlik o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

2. Tijorat banklari kredit portfelining tahlili.

Tijorat banklarda muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga asosan bankka bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar ta'sir qiladi.

Amerika tijorat banklari korxonalarning, qarzдорlarning bankrot bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir qilishini ko'rsatib o'tgan:

1. Boshqaruv tizimining yaxshi tashkil etilmagani – agar kompaniya, firmalarda boshqaruv yaxshi yo‘lga quyilmasa, u holda baankrot holatlariga yuz tutishi mumkin.
2. Firmalarda birlamchi kapitalning to‘g‘ri shakllanmagani - kupchilik kompaniyalarda birlamchi kapitalning etarli emasligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Buning asosiy sababi umumiy biznes qiymatini tug‘ri baholay olmaganligidadir.
3. Ishlab chiqarish hajmining yuqoriligi – agar kompaniya ko‘p miqdorda tovar ishlab chiqaraversa, ammo talab bo‘lmasa, u holda risk yuqori bo‘ladi, ya’ni tovarlarning o‘z vaqtida sotilmasligi bankrotlik holatiga olib keladi.
4. Raqobat – yangi kompaniyalarning tashkil etilishi va bozorga kirib borishi raqobat muhitini shakllanayotganligidan dalolat beradi. SHuning uchun ham har qanday korxona avvalambor bozorni har tomonlama o‘rganib chiqishi kerak.
5. Iqtisodiy holatlar – iqtisodiyot yaxshi rivojlanmagan mamlakatlarda kompaniyalarning rivojlanishi ham qiyin kechadi.

Xalqaro amaliyotda bank faoliyatida kredit risklarini baholash uchun bir qancha me‘yorlar qo‘yilgan. Bular quyidagilardan iborat:

1. Bitta qarzdor uchun risk darajasining maksimal qiymati:

$$K = (\text{Bitta qarzdorning kreditlar bo'yicha majburiyatlarining yig'indisi}) / (\text{Bank kapitali}) \\ * 100\%$$

Bu ko‘rsatkichning qiymati 25 % dan oshmasligi kerak.

2. Yirik kreditlar me‘yori:

$$K = (\text{Yirik kreditlar yig'indisining miqdori}) / (\text{Bank kapitali}) * 100\%$$

Bu ko‘rsatkiyaning qiymati o‘z kapitalining 8 barobaridan katta bo‘lmasligi kerak.

2. Xalqaro kreditlarning maksimal miqdori:

$$K = (\text{bank tomonidan berilgan xalqaro kreditlarning umumiy summasi}) / (\text{Bank kapitali}) \\ * 100 \%$$

Bu ko'rsatkichning maksimal qiymati 200 % ga teng.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit risklarini boshqarish bo'yicha bir qancha muammolar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- Kredit siyosatining yaxshi ishlab chiqilmagani
- Kreditlash tarmog'ini to'g'ri tahlil qila olmaganligi
- Qarzdorni etarli darajada urg'anib chiqmagani
- Mijoz bilan muloqotning kamligi
- Qarzlarning ustidan nazoratning kamligi
- Qarzdorning xujjatlari ustidan nazoratning kamligi
- Kreditni rasmiylashtirish bo'yicha xujjatlarning etarli emasligi
- Kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash borasida rezervlarning to'g'ri shakllanmaganligi.

Kredit riskini boshqarish chizilmasi quyidagidan iborat:

Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- Bank kredit siyosatining yaxshi ishlab chiqilishi
- Kredit risklarini boshqarish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish
- Kreditning qaytarilmasligi bo'yicha risklarni tahlil qilish
- Har bir qarzdor ustidan kredit monitoringini olib borish
- Muddati uzaytirilgan va muammoli kreditlar ustidan chora – tadbirlar olib borish.

Balans aktivlari tavakkalchilik darajasi bo'yicha 0, 20, 50, 100 foizli to'rt guruhga bo'linadi. Har xil toifali aktivlar nisbiy tavakkalchiligi o'z zimmasiga majburiyatlarni qabul qilgan shaxs turi va garov yoki kafolat tavsifiga bog'liq. Masalan, naqd pul 0 foizli tavakkalchilik darajasiga ega bo'lsa, tijorat kreditlari 100 foizli tavakkalchilik toifasiga

kiradi. Bu tijorat kreditlari kapitalning muayyan summasi bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerakligini anglatadi.

5.2. Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasi har bir aktiv balans summasini unga tegishli tavakkalchilik miqdoriga ko'paytirish va tavakkalchilik bo'yicha aniqlangan aktivlar yig'indisi orqali topiladi. Quyida bank aktivlari toifalarining ta'rifi keltirilgan.

5.3. Tavakkalchilikdan xolis bo'lgan aktivlar (tavakkalchilik koeffitsienti — 0 foiz) Quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) bankda va uning filiallarida naqd pul ko'rinishida saqlanayotgan milliy va chet el valyutasi (jumladan, yo'ldagi naqd pullar va bank omborlarida yoki Markaziy bank omborlarida saqlanayotgan oltin quymalar);

b) Markaziy bank va uning hududiy boshqarmalaridagi vakillik va zaxira hisob varaqlarida saqlanayotgan mablag'lar;

v) Hukumat va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to'g'ridan-to'g'ri talablar va bu emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

g) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IXTT) kiruvchi mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklariga qo'yiladigan boshqa talablar;

d) aktivlar yoki ularning O'zbekiston Respublikasi va IXTTga kiruvchi mamlakatlar milliy valyutalariga denominatsiya qilinib, naqd pul bilan ta'minlangan hamda bankda alohida cheklab qo'yilgan depozit hisobraqamda saqlanayotgan qismi.

e) gudvill qo'shib olingan nomoddiy aktivlar, hamda shuningdek, 4.8. bandda keltirilgan birlashmagan muassasalar kapitaliga investitsiyalar.

(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan 2000 yil 21 dekabrda 949-1 sonli o'zgartirish va Qo'shimchalarning 6-bandiga asosan kichik band bilan to'ldirildi).

5.4. Eng kam tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik koeffitsienti — 20 foiz) Quyidagilardan iborat:

a) IXTT davlatlarida ro'yxatga olingan depozitar institutlariga nisbatan talablar, shu jumladan, Qarzlar va pul bozori vositalari;

b) IXTT davlatlarida ro'yxatga olingan depozitar institutlari kreditlari bilan ta'minlangan boshqa barcha aktivlar. IXTT davlatlari depozitar institutlarining kapitali bo'lgan Qimmatli Qog'ozlar yuqori tavakkalchilik darajasiga (100 foiz) ega aktivlar qatoriga kiradi;

v) bankning IXTT davlatlari mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari, shuningdek, ular tomonidan kafolatlangan bank aktivlari. Bu talablar va kafolatlar bo'yicha to'lovlar alohida loyihalar bo'yicha tushumlardan emas, balki yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlar byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

g) bankning Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlariga nisbatan talablari, shuningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari;

d) joriy bozor qiymatida baholangan va Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan Qimmatli Qog'ozlar bilan ta'minlangan aktivlar va ularning qismlari;

e) bankning IXTTga a'zo bo'lmagan mamlakatlarning milliy valyutalariga denominatsiya qilingan va milliy valyutadagi majburiyatlar bilan qoplangan, IXTTga a'zo bo'lmagan davlatlar Markaziy Xukumatlari va markaziy banklariga nisbatan talablari. Milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar qismi tavakkalchilik darajasi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar qatoriga kiritiladi.

Gudvill qo'shib olingan nomoddiy aktivlar hamda shuningdek, 4.8. bandda keltirilgan birlashmagan muassasalar kapitaliga investitsiyalar.

j) joriy bozor qiymatida baholangan va O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki IXTTga kiruvchi davlatlar Markaziy Hukumatlari tomonidan emissiya qilingan yoki kafolatlangan Qimmatli Qog'ozlar ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan yoki kafolatlangan aktivlar, ularning qismlari va balansdan tashqari majburiyatlar. Qimmatli Qog'ozlar bank tasarrufida bo'lishi va

belgilangan tartibga muvofiQ unga berilishi lozim. Kafolatlar to'g'ridan-to'g'ri va hech Qanday shartlarsiz, ya'ni ularni Qo'llashni cheklovchi biron-bir Qo'shimcha shartlarni o'zida Qamrab olmagan bo'lishi kerak;

i) o'tkazish jarayonidagi pul hujjatlari (lekin yo'ldagi naQd pullar hisobga kirmaydi).

5.5. O'rtacha tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik koeffitsienti — 50 foiz) Quyidagilardan iborat:

a) jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy (xonadon) sotib olish yoki Qurish uchun berilgan va dastlabki garov (garov predmetiga egalik Qilishning imtiyozli huQuQi) sifatida sotib olinayotgan yoki Qurilayotgan uy-joy (xonadon) bilan ta'minlangan kreditlar. Bunda ssuda miQdorining garov Qiymatiga nisbati 60 foizdan oshmasligi kerak. 60 va undan ortiQ kunga muddati o'tgan, foizlar hisoblash to'xtatilgan yoki restrukturizatsiyalangan kreditlar tavakkalchilik darajasi yuQori (100 foiz) bo'lgan aktivlar toifasiga kiradi. Bir oila uchun uy-joy Qurish maQsadida beriladigan kreditlar shu uy-joyda yashamoQchi bo'lgan xususiy shaxslargagina berilishi kerak. Bank dastlabki garov huQuQiga ega bo'lmasa, bunday kreditlar tavakkalchiligi yuQori (100 foiz) bo'lgan aktivlar hisoblanadi;

b) bankning IXTTga kiruvchi davlatlar mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari yoki bu talablar va kafolatlar bo'yicha to'lovlar mazkur majburiyatlar bo'yicha moliyalashtiriladigan muayyan loyiha tushumlariga bog'liQ bo'lsa, ushbu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan aktivlar. YUQoridagi tashkilotlar tomonidan emissiya Qilingan Qimmatli Qog'ozlar.

5.6. Yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik koeffitsienti — 100 foiz) Quyidagilardan iborat:

a) bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, jumladan, tadbirkorlik tuzilmalari, Qishloq xo'jalik, ishlab chiQarish korxonalariga berilgan kreditlar, shuningdek, iste'mol va ipoteka kreditlari, 5.3, 5.5-bandlarida ko'rsatilgan kreditlar bundan mustasno.

b) bankning asosiy vositalari, inshootlari, jihozlari va shaxsiy ko'chmas mulki;

g) boshqa barcha aktivlar.

4-mavzu: Foiz riski va uni boshqarish usullari

Reja:

1. Foiz risklari: boshqarish va baholash.

2. Foiz stavkasini boshqarish usullari.

1. Foiz risklari: boshqarish va baholash

Foiz riski o'zida foiz stavkalari darajasining o'zgarishi natijasida moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini aks etadi.

Bazel Qo'mitasi foiz riskining paydo bo'lishi quyidagi omilarni aniqladi:

1. Narhlar o'zgarishini riski.

Bunda foiz riski aktiv va passivlarning to'lov muddatlari bo'yicha balanslashtirilmaganligi orqali aniqlandi.

2. Egri daromad o'zgarishi riski.

Aktiv va passivlar bo'yicha foiz stavkalari o'zgarishida vaqtlar bo'yicha mos kelmasligi natijasida olinayotgan daromad tengligining buzilishi.

3. Bazaviy risk.

Moliyaviy instrumentlarni qayta baholash vaqtida olingan va to'langan foizlarni boshqarishda noaniq korrelyasiya o'tkazish.

4. Opsionlar bilan bog'liq risklar.

Aktiv va passivlar muddatlari bo'yicha o'zgarishi opsion bitimlarda foiz risklarini keltirib chiqaradi.

Tijorat banklarida foiz riski deganda bankning sof foydasi qisqarishi riskidan to foiz stavkalari darajasining o'zgarishi natijasida uning kapitali qiymatining yo'qolishigacha, natijada jalb qilingan mablag'larning o'rtacha qiymati joylashtirilgan mablag'lar qiymatidan oshib ketishi holatiga olib kelish jarayonini tushunish kerak. Bunday holatda foiz riski kredit tashkiloti moliyaviy holatining foiz stavkasining salbiy o'zgarishiga duchor bo'lishi darajasini aks ettiradi. Bankning foiz riskini qabul qilish normal holat bo'lib, u qo'shimcha foyda olishda manba sifatida xizmat qiladi. Foiz riski

odatda pul bozorining kelgusi holati haqida noto'g'ri axborot olish, shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi, ya'ni inflyasiya, byudjet defitsiti hajmi, YAIM va boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi natijasida paydo bo'ladi.

Foiz riskini baholashda foiz marjasidan foydalaniladi.

Foiz marjasi daromad keltiruvchi aktivlar bo'yicha foiz daromadlar bilan bankning majburiyatlari bo'yicha foizli xarajatlari o'rtasidagi farq tushuniladi. Foiz marjasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_{\text{faq}} = \frac{D\phi - X\phi}{A_d} \times 100\%$$

bu erda: **Mfaq** - foiz marjasining haqiqiy hajmi;

Df - foizli daromad;

Xf - foiz to'lovlari bo'yicha xarajatlar; keltiruvchi aktivlar;

Ad - foizli daromad keltiruvchi aktivlar;

Foiz marjasi quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinadi:

- haqiqiy foiz marja bilan uning bazasi bilan solishtirish, natijada foizlar bo'yicha daromadning o'sishi yoki kamayishini aniqlash mumkin;
- foiz marjaning standartlarga yoki bank qoidalariga mos kelishini nazorat qilish;
- qaysi turdagi daromad (xarajat) foiz marjasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun uning tarkibini tahlil qilish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foiz marjasining o'zgarishi chegaralarini aniqlash;

Foiz marjasining hajmiga ta'sir qiluvchi omillarga kredit qo'yilmalarining tarkibi va hajmi hamda ularning manbasi, to'lovlar muddati, foiz stavkalarining foydalanilishi va ularning harakati kiradi.

Ta'minlangan va yuqori riskli ssudalarni uzoq va qisqa muddatlarda joylashtirish, shuningdek kreditlash hajmi daromad qo'yilmalarni aniqlaydi. Foiz marjasining hajmiga kredit qo'yilmalari va ularning to'lov vaqtlari bo'yicha manbasi nisbati, shuningdek foiz stavkalarini ko'rib chiqish muddatlari ta'sir qiladi. Bizda asosan o'rnatilgan (kredit to'liq qaytarilmaguncha o'zgarmaydi) foiz stavkalar qo'llaniladi. shu shartlar doirasida aktivlar va passivlar to'rt guruhga bo'linadi:

- bozor shartlarining o'zgarishida foiz stavkalarining to'liq ko'rib chiqilishi bo'yicha aktiv va passivlar;
- uch oy davomida to'liq boshqariladigan aktiv va passiv;
- uch oydan ko'proq muddatda ko'rib chiqiladigan stavkalar bo'yicha aktiv va passiv;
- o'rnatilgan stavkalar bo'yicha aktiv va passivlar.

Birinchi ikki guruh bankning foiz marjasi o'zgarishini sezuvchi majburiyatlar va aktivlarni aks ettiradi. Ularning nisbati foiz riskini aniqlash imkonini beradi (APS). APS quyidagi yondashuvlarda boshqariladi:

- yuqori likvidlikni ta'minlash maqsadida stavkalarining, muddatlarning, aktivlarning diversifikatsiyasini qo'llab-quvvatlash;
- foiz stavkaning o'zgarish bosqichlariga bankning aktiv va passivlarini boshqarish strategiyasini mos tanlash. Masalan, past foiz stavkalarining o'sishi kuzatilganda majburiyatlar bo'yicha mablag'lar muddatini oshirish, o'rnatilgan foiz stavkalardagi kreditlar hajmini kamaytirish, investitsiya muddatlarini qisqartirish, uzoq muddatli qarzlarni jalb qilish va kredit limitlarini yopishga to'g'ri keladi.

Aktiv va passivlar, foiz stavkalarining muddatlariga bog'liq holda foiz marjasining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi:

$$M = APS \times I$$

bu erda: M - foiz marjasi;

I - foiz stavkalarining o'zgarishining kutilishi.

Bankning foiz riskiga tushib qolish darajasini baholashda ko‘yidagi ko‘rsatkich qo‘llaniladi:

$$Fr = APS/Aktivlar \times 100\%$$

Foiz siyosatini erkin yuritilishi uchun bank, uning xizmatlari qiymati koeffitsienti qaysi chegaralarda olib borilayotganligini bilish kerak. Ushbu ko‘rsatkich ta‘minlanmagan xarajalar hajmini aks ettiradi. Bu ko‘rsatkich **minimal foiz marjasi (Mmin)** ko‘rinishida aniqlanadi, ya‘ni xarajatlarni qoplash imkonini beruvchi, lekin foyda olib kelmaydigan aktivlar va passiv operatsiyalar bo‘yicha minimal stavkalarni ko‘rsatadi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{\min} = \frac{X_t - X_b}{A_d} \times \frac{4}{N} \times 100\%$$

bu erda: A_d - harakatdagi bank aktivlari;

X_t - bank faoliyatini ta‘minlovchi xarajalar;

X_b - bankning boshqa xarajatlari;

N - ko‘rilayotgan hisobot davridagi choraklar soni.

Mo‘ljallanayotgan foiz marjasi (Mm) - mazkur ko‘rsatkich orqali bank kredit shartnomasiga kirishdan oldin, xarajatlarni qoplashgina qolmay, balki rejalashtirilgan foydani olish imkoniyatiga ega bo‘ladi, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Mm = 0,1 QR + M_{\min} + P_{\min} ;$$

bu erda: $0,1 QR$ - majburiy zaxiralar fondini shakllantirish bilan bog‘liq jalb qilingan resurslarga qo‘shimcha (jalb qilingan resurslar qiymatining 10% i qo‘shiladi).

$P_{\min}$ - minimal risklar bo‘iyach bankning aktiv operatsiyalarining minimal foydalilik me‘yori.

Bank aktiv operatsiyalarining minimal daromadliligi (Dmin) :

$$D_{min} = QR + 0,1QR + M_{min} + P_{min} .$$

Foiz stavkasini boshqarish usullari

Bank boshqaruvining asosiy maqsadi **foiz marjasini**, ya'ni daromad keltiruvchi aktivlari bo'yicha foizli daromadlari bilan uning majburiyatlari bo'yicha foizli xarajatlari o'rtasidagi farqni boshqarish (nazorat) dan iborat. Undan tashqari **spredga**, ya'ni aktivlar bo'yicha olingan o'rtacha tortilgan stavkalar bilan majburiyatlar bo'yicha to'langan o'rtacha tortilgan stavkalar o'rtasidagi farqga e'tibor qaratiladi. Foiz stavkasini boshqarishda GEP (nomutanosiblik) hisobga olinadi - u bankning fiksirlangan va suzib yuruvchi stavkalardagi aktiv va passivlarining balanslashmaganligini ko'rsatadi - BA/P.

Inflyasiya sharoitida foiz stavkalari prognoz qilish juda qiyin, shuning uchun risklarni boshqarishda bankda aktiv portfellarning muddatlari bo'yicha balanslashtirishga qaratilishi kerak. Bu ham juda mushkul, agar bank aktiv va passiv balanslarida suzib yuruvchi va fiksirlangan stavkalarga ega bo'lsa. SHuning uchun foiz stavkalarni baholash juda muhim. Aktiv va passiv portfellarning muddatlari bo'yicha balanslashtirish foiz spredini, ya'ni foiz riskini aniqlashda yordam beradi. Agar balanslashmagan muddatlar munosabati katta daromadni talab qilsa, bank xodimlari aniqlanmagan risk spredini ma'qul ko'rishadi. Jalb qilingan mablag'larning balanslashganligini balanslashmaganlik bilan solishtirib ko'ramiz.

5-jadval.

I variant (balanslashgan)

Stavkalar	Muddat, kunlarda	Kreditlar bo'yicha foiz stavkasi	Jalb qilingan mablag'lar bo'yicha foiz stavkasi	Spred
Joriy bozor	90 180	20 25	15 20	5 5
Prognoz qilinishi (90 kundan keyin)	90	17	12	5

II variant (balanslashmagan): 180 kunga muqobil kreditlash strategiyasi:

- a. qarzlarni 180 kunga jalb qilish, spread 5%;
- b. qarzlarni 90 kunga jalb qilish (yana 90 kunga uzaytirish sharti bilan) spread $\frac{1}{2}$ (10+13) = 11,5%.

Bizning misolda qisqa muddatli stavkalarni aniq prognoz qilinganligi tufayli 180 kunlik kreditlash uchun balanslashmagan boshqaruvni tashkil etishni taqozo qildi, ya'ni foiz marjasini kengaytirish lozim. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, II variant bo'yicha spread 11,5% ni, I variantdagi 5% lik emas. Bu BA/P ni to'g'ri prognoz qilish hisobiga erishildi. Qarz mablag'larini ikki mustaqil bosqichli shartnoma bo'yicha 180 kunga jalb qilish qaror qilindi: boshida 90 kunga jalb qilish keyin esa uni 90 kunga yana yangilash. Bu holatda spread 180 kunlik balanslashmagan kreditga 11,5% ni tashkil qilib, quyidagi tarzda namoyon bo'ldi:

I bosqich: 180 kunlik kreditlar bo'yicha stavka = 25%;

mablag'larni sotib olish (birinchi 90 kun) = 15%;

spread = 10%;

II bosqich: 180 kunlik kreditlar bo'yicha stavka = 25%;

mablag'larni sotib olish (ikkinchi 90 kun) = 12%;

spread = 13%.

Spread 180 kunlik kreditga 11,5% ni tashkil qiladi.

BA/P ijobiy va salbiy bo'ladi. **Ijobiy BA/P** da o'zgaruvchan stavkalardagi aktivlar o'zgaruvchan stavkalardagi passivlardan yuqori bo'ladi. Ijobiy BA/P da foiz stavkasining pasayishi foiz marjaning pasayishiga olib keladi va aksincha. **Salbiy BA/P** da o'zgaruvchan foiz stavkalardagi passivlar, o'zgaruvchan foiz stavkalardagi aktivlardan oshib ketadi. Bu holatda foiz stavka pasaysa marja o'sadi, foiz stavka oshsa marja kamayadi.

Bankning **foiz siyosatini** amalga oshirish **bosqichlari**:

I bosqich - past foiz stavkalar (o'sish kuzatilmoqda):

- qarz mablag'lari muddatini oshirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlarni qisqartirish;
- portfel investitsiyalar muddatini qisqartirish;
- qimmatli qog'ozlarni sotish;
- uzoq muddatli qarzlarni sotish;
- kredit liniyalarni yopish.

II bosqich - o'suvchi foiz stavkalar (maksimal o'sish kuzatilmoqda);

- qarz mablag'larni muddatini qisqartirish;
- investitsiyalar muddatini uzaytirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushini oshirish;
- fiksirlangan stavkalardagi qarzlarni muddatidan oldin qaytarish.

III bosqich - yuqori foiz stavkalar (pasayish kuzatilmoqda):

- qarz mablag'lari muddatini qisqartirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlarni ulushini oshirish;
- investitsiyalar portfeli muddatlarini oshirish;
- aktivlarni sotish rejasini tuzish.

IV bosqich - kamayuvchi foiz stavkalar (minimal tushish mumkin):

- qarz mablag'lari muddatini uzaytirish;
- investitsiya muddatlarini kamaytirish;
- o'zgaruvchan foiz stavkalardagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni kamaytirish;
- uzoq muddatli qarzlarni oshirish.

5- Mavzu: **Operatsion risk va uni boshqarish usullari**

Bazel II talablari kapitalni banklar faoliyatida yuzaga keladigan risklar turlarining kengaytirilgan shkalasi bo'yicha hisob-kitob qilishni taklif etadi. Ya'ni Bazel qo'mitasi taklif qilingan risk turlarini uchta yirik toifaga ajratdi: kredit riski, bozor riski va operatsion riskga. Bundan tashqari nazorat funksiyalari risklarni tijorat banklari tomonidan ichki uslub asosida nazorat qilish, ma'lumotlarning shaffofligi va bozor intizomi nuqtai nazaridan o'zgartirildi.

Bazel qo'mitasi tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan **kredit risklarini** qarzdor yoki kontragent tomonidan o'z majburiyatlarini kelishilgan shartlarga muvofiq bajara olmaslik extimoli deb baxolaydi. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyati qarzdorning moliyaviy xolatiga bog'liq. Mijozning kredit qobiliyatini va kelajakda kredit bo'yicha foiz to'lovlarini amalga oshirish qobiliyatini baxolash uchun bank mijozning axvoli, xususan oylik pul oqimlari (daromad va xarajatlari) to'g'risida axborotlarini olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Shuni hisobga olgan holda, banklarda kredit risklari bo'yicha aniq ma'lumotlarning etarli emasligi bank aktivlari sifatini baholashda qiyinchilik tug'diradi, bu esa kutiladigan zararlarga qarshi zaxiralarni shakllantirish uchun qo'shimcha mablag'larga ehtiyoj uyg'otadi. Bank kapitali esa ko'zda tutilmagan zararlar uchun himoya vazifasini o'taydi.

Bazel qo'mitasi **bozor riskini** bozor baholarining tebranishiga asoslangan bank balansi va balansdan tashqari moddalari bo'yicha yo'qotish riski deb ta'riflaydi.

Bazel qo'mitasi **operatsion riskni** ichki jarayonlar va tizimlarning nomuvofiqligi, xodimlarning mas'uliyatsizligi yoki boshqa tashqi omillar hisobiga yuzaga keladigan havf-xatar deb baxolaydi. Mazkur tushuncha bank va uning xodimlari tomonidan qonunchilikka, ahloqiy me'yorlarga, shartnoma majburiyatlariga rioya etmaslik hamda sud jarayonining ko'zg'atilishi tufayli yuzaga keladigan huquqiy riskni ham ko'zda tutadi. Operatsion risk turlariga quyidagilardan iborat:

- Ichki bo‘hton va firibgarlik, ya’ni dillerlar tomonidan bank holati buyicha noto‘g‘ri ma’lumotlarning berilishi, xodimlar tomonidan amalga oshirilgan o‘g‘irliklar, xodimlarga berilgan pora evaziga kredit hujjatlarini sohtalashtirish va boshqalar;
- Tashqi bo‘xton va firibgarlik, ya’ni xujjatlarni o‘g‘irlash va soxtalashtirish, kompyuter aloqalariga ruxsatsiz kirish, kredit olish uchun noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etish;
- Mijozlar, xizmatlar va biznes yuritish standartlariga oid ma’lumotlardan ruxsatsiz foydalanish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va xisobvaraqlardan foydalangan holda firibgarlik;
- Moddiy aktivlarga zarar etkazish, ya’ni qo‘poruvchilik, terrorizm, er qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar;
- Ishdagi, axborot va aloka tizimidagi xatolik va uzilishlar, ya’ni texnikaning ishlamay qolishi, telekommunikatsiya muammolari va dasturdagi uzilishlar;
- Xujjatlarni rasmiylashtirish, operatsiyalar o‘tkazish va jarayonlarni boshqarish, ya’ni ma’lumotlarni kiritishdagi hatoliklar, xuquqiy xujjatlarning etishmasligi, kredit ta’minotiga tegishli hatoliklar va boshqalar.

Operatsion risklar bilan ishlash usullari va darajasi turli banklarda risk darajasi va turi, bank operatsiyalarining hajmi va turiga bog‘liq ravishda turlicha bo‘ladi. Ammo Bazel-II talablarida kapitalga nisbatan talabni aniqlashda operatsion risklarni o‘lchashning 3 ta usuli: baza ko‘rsatkichlari asosida yondashuv, standartlashgan yondashuv, rivojlantirilgan yondashuvni keltiradi.

Baza ko‘rsatkichlari asosida yondashuvda bank operatsion risklarni qoplash uchun oxirgi uch yilda o‘rtacha yillik yalpi ijobiy foydaning **15%** iga teng kapitalni ko‘zda tutishi lozim. Kapitalni xisoblash formulasi quyidagicha:

$$K_{BIA} = [\sum (GI_{1...n} * \alpha)] / n$$

Bu erda: **K_{BIA}** - kapitalga qo‘yilgan talab; **GI** - oxirgi uch yilda urtacha yillik yalpi ijobiy foyda; **n** - yillar miqdori (uch yil); **α** - 15% bu kurstakich Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan.

Standartlashgan yondashuvda butun bank faoliyati 8 ta yo‘nalishga ajratiladi: korporativ moliya, oldi-sotdi va sotish, chakana bank xizmatlari, bankning tijorat operatsiyalari, to‘lovlar va xisob-kitoblar, agent xizmatlari, aktivlarni boshqarish va chakana brokerlik operatsiyalari. Xar bir yo‘nalish bo‘yicha yalpi foyda mazkur yo‘nalish uchun foiz me‘yorini aniqlashda asos bo‘ladi. Ushbu foiz me‘yori risklarning har bir yo‘nalish bo‘yicha darajasi va turiga bog‘liq holda 12 dan 18 foizgacha tebranadi. Kapitalni xisoblash formulasi quyidagicha:

$$K_{TSA} = \{ \sum_{yillar1-3} \max [\sum (GI_{1-8} * \beta_{1-8}), 0] \} / 3$$

Bu erda: K_{TSA} - kapitalga qo‘yilgan talab; GI_{1-8} - har yil uchun 8 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yillik yalpi ijobiy foyda; β_{1-8} - 12-18% bu ko‘rstakich Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan.

Rivojlantirilgan yondashuv operatsion riskni qoplash uchun kerak bo‘ladigan kapital miqdorini xisoblashning xususiy usuliga asoslanadi. Ushbu usulni ma’lum bir sifat va miqdor andozalariga javob beradigan banklar ishlatishi mumkin. Bank rahbariyati Markaziy bankni operatsion riskni baxolash tizimi, ma’lumotlar jamlash sifati, nazorat mexanizmini shakllantirilganligiga ishontirishi lozim.

Operatsion riskni to‘g‘ri boshqarish uchun tijorat bankida tegishli kunlik nazorat va ma’lumotlarni jamlash jarayoni tashkil etilgan bo‘lishi darkor. Markaziy bank tijorat banklaridan ular darajasiga, risklar miqdori va turiga, banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligiga mos operatsion risklarni baxolash va boshqarish mexanizmini yaratilishini talab qilishga xaqlidir. Bundan tashqari, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan operatsion risklar bo‘yicha qoida va talablarga rioya etilishi yuzasidan doimiy va alohida nazoratni olib borishi lozim.

Tijorat banklari o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni boshqalarga nisbatan ko‘proq o‘rganishlari talab etiladi. Chunki tijorat banklari o‘z faoliyati bilan bir tomondan o‘z aksiyadorlari oldida javobgar bulsalar, ikkinchi tomondan o‘z mablag‘larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida

majburiyatga egadirlar. 1-jadvalda operatsiyalar o‘tkazganda paydo bo‘ladigan xavf-xatar nuqtai nazaridan bank mahsulotlari xilma-xilligi ko‘rsatilgan.

1- jadval: Bank mahsulotlarini risk darajasi.

	Bank mahsulotlari	Mahsulotlarning tovar-kiymat xususiyati	Xavf-xatar parametralri (potensial)
	Ssuda operatsiyalari	Qarzdorlarga kredit berish	Kredit riski (imkoni bor va ommabop)
	Depozitlarni boshqa banklarga joylashtirish	Moliyaviy resurslar savdosi	Foizli risk (axborotlarga ega bo‘lish saviyasiga ko‘ra)
	Depozitlarni mijozlardan jalb etish	Moliyaviy resurslarni sotib olish	Foizli risk
	Mijozlar talabiga ko‘ra xisob-kitoblarni amalga oshirish	Xizmatlar savdosi	Tijorat riski imkoniyati
	Kapital qo‘yilmalarni bankning shaxsiy mablag‘lari xisobidan moliyalash	Moliyaviy resurslar savdosi	Risklarning yuqori extimolliligi
	Qimmatbaho qog‘ozlarni olish	Qimmatbaxo qog‘ozlar portfelini shakllantirish uchun bank xarajatlari	Tizimli risk imkoniyati
	Kafolatnomalarni berish va kafolatlash	Xizmat ko‘rsatish	Kafolat tasnifiga bog‘liq risk
	Valyuta oldi-sotdisi va uni sotib olish	Oldi-sotdi savdosi	Valyuta riski
	Lizing operatsiyalarini amalga oshirish	Ijara	Axamiyatsiz risk
0	Xizmatlar ko‘rsatish va tovar etkazib berish bazasidan	Oldindan to‘lov, pul mablag‘lari savdosi	Pul mablag‘larini yo‘qotish riski (ahamiyatli)

6-mavzu: Tijorat banklarida portfel riski va uni boshqarish

Reja:

1. Tijorat banklarida portfel riski va uning turlari

2. Tijorat banklarida portfel riskini boshqarish

Portfel riski – bu alohida qimmatli qog‘ozlar turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo‘yicha ziyon ko‘rish ehtimolidir.

Portfel risklari quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Moliyaviy risklar;
2. Likvidlilik risklari;
3. Sistematik risklar;
4. Nosistematik risklar.

Moliyaviy risklar moliyaviy resurslar (ya’ni, pul mablag‘lari)ni yo‘qotish ehtimolligi bilan bog‘liqdir. Moliyaviy risklar deganda, tashkilot moliyaviy faoliyatining oldindan aniq bo‘lmagan shart-sharoitlari holatida ko‘zda kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlar (daromad va foydaning kamayishi, kapital bo‘yicha yo‘qotishlar va boshqalar)ning ehtimolligi tushuniladi. Moliyaviy risklar quyidagi tarzda aniqlanadi: banklar, shu jumladan qo‘shma banklar jalb qilingan mablag‘lari qanchalik yuqori bo‘lsa, aksiyadorlar va muassislar uchun shunchalik risk darajasi yuqori bo‘ladi. Ayni paytda jalb qilingan mablag‘lar moliyalashtirishning muhim va foydali manbaidir, chunki u bankning qimmatli qog‘ozlarini qo‘shimcha tirajlarini chiqarish va sotishdan ko‘ra kamroq xarajat qilishga olib keladi. Qarz oluvchilar uchun belgilangan me‘yorlarga binoan, o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar o‘rtasidagi nisbat, ya’ni qarzdorlik koeffitsienti (Q_k) 0,2-0,3 doirasida tebranib turadi. Bu risk “rychag” riski (leveraj - leverage) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u o‘zgarmas daromad darajasi va o‘zgaruvchan daromad darajasiga ega qimmatli qog‘ozlarga amalga oshirilgan kapital qo‘yilmalarning bankning asosiy va aylanma kapitalining umumiy hajmiga nisbatiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur risk quyidagi formula asosida baholanadi:

$$ROE = ROA \times EM;$$

Bunda:

ROA – aktivlarning daromadliligi, ya'ni bankning barcha mablag'larida foydalanish samaradorligi darajasi;

ROE – aksiyadorlik kapitaldan samarali foydalanish darajasi;

EM – bankning o'ziga tegishli mulki koeffitsienti.

Likvidlilik riski – bu moliyaviy aktivlarning tezlikda naqd pulga aylanish qobiliyati bilan bog'liq risklardir, ya'ni iste'mol qiymati va sifatini baholashda o'zgarishlar ro'y bergani sababli qimmatli qog'ozlar yoki boshqa tovarlarni realizatsiya qilishda yo'qotishlarga uchrash ehtimolligi bilan bog'liq risklar. Jahonning muhim birjalarda aksiyalari muomalada bo'lgan yirik va mashhur banklar va korxonalar mazkur riskka kamroq uchraydi. Kichik firmalar (ya'ni, yangi tashkil qilingan va venchur firmalar) esa ushbu risk bo'yicha xavflidir. Mazkur holatda dallollarni tanlashga alohida e'tibor berish lozim. Moliyaviy dallollarning asosiy turlari, ular huquq va majburiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari bankning ishbilarmonlik faolligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularni to'g'ri tanlash risklarning barcha darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Sistematik risklar - umumbozor tebranishlar tufayli kelib chiqqan aksiyalar baholari, ularning daromadliligi, obligatsiyalar bo'yicha joriy va kutilayotgan foiz, dividendning oldindan kutilayotgan darajasi va qo'shimcha daromadlarning o'zgarishi bilan bog'liq risklardir. Sistematik risklar o'z ichiga foiz stavkalarini o'zgarish riski, umumbozor baholarining o'zgarish riski va inflyasiya risklarini oladi. Ularni oldindan etarli darajada bashoratlash mumkin, chunki aksiyalarning birja kursi va bozorning umumiy holati o'rtasidagi bog'liqlik muntazam va turli birjaviy indekslar bilan etarli darajada real ruyxatga olinadi.

Nosistematik risklar bozor holatiga bog'liq bo'lmasdan, alohida bankning xususiyatidir. Nosistematik risklar tarmoq va moliyaviy turlarga bo'linadi. Nosistematik risklar darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarga moliyaviy resurslarni kiritishning muqobil sohalarining mavjudligi, tovar va fond bozorlarining kon'yunkturasi va boshqalar kiradi.

Sistematik va nosistematik risklarning yig'indisi investitsiyalar riski deb hisoblanadi.

Risk va daromadlilik xarakteristikasini aks ettiruvchi portfelli yondashuv (portfolio approach), korxonaning aktiv va passivlarini (umumiy holda boshqa boyliklarni ham) yagona tizim – portfel sifatida qabul qilishni nazarda tutadi. U quyidagi formulalarga asoslanadi:

1	Aksiyadorlik kapitalining daromadliliigi	=	Sof foyda/ Aksiyadorlik kapital summasi
2	Sof foyda (Ma'lum bir davr uchun)	=	(Ma'lum bir davr uchun barcha foydalarning umumiy summasi + Ma'lum bir davr uchun aktivlar bozor bahosining o'zgarishi)/ Aktivning birlamchi qiymati (bahosi)
3	Aksiyalarning hisob-kitob bahosi	=	Aksiyadorlik kapital summasi/Muomalaga chiqarilgan aksiyalar umumiy summasi
4	Bitta aksiyaga hisob-kitob qilingan daromad	=	Aksiyadorlik kapitalining daromadliliigi x Aksiyalarning hisob-kitob bahosi
	Jami kapital	=	Sof foyda summasi/Barcha aktivlarning qiymati

5	daromadliligi		
6	«Moliyaviy tushag»	=	(Barcha aktivlarning qiymati/Aksiyadorlik kapital summasi) x 0,33

Aksiya riski foiz stavkalarining o'zgarishida o'z aksini topadi va m'lum davrda davlat va bank foiz stavkalari o'zgarishi natijasida sof foydaning kamayishi uchun yuzaga keladi. Bu holatda, odatda, yangiroq aksiyalarning egalari yutuqqa erishadi, biroq boshqa aksiyadorlar ham raqobatga chidamli bo'lib qoladi.

“Portfel nazariyasi” (Portfolio Theory)ning 3ta asosiy konsepsiyasi mavjud. Ular quyidagilardir:

1. Riskdan qochish (Risk Aversion) konsepsiyasida aksiyador va investorlar imkoniyat paydo bo'lishi bilan oq, doimo riskdan qochishga intilishadi. Bu konsepsiya “kamayib boruvchi samara” (Diminishing Utility) qonuni bilan bog'liq, ya'ni kapital summasi qanchalik katta bo'lsa, aksiyadorda uni o'stirish istagi shunchalik kamayib boradi;

2. Koordinata tizimida joylashgan samaradorlik darajasining “mustaqil egri chiziqlari” (Indifference Curves) konsepsiyasi. Mustaqil investitsiyalar (investitsiya portfellari), ya'ni “mustaqil egri chiziqlar” o'zida samaradorlik darajasini aks ettiradi. Ularning yordamida bank tashkiloti rahbariyati daromad va risklar darajasini tartibga solib boradi;

3. “Kapitalni taqsimlash” (Kapital Rationing) konsepsiyasi investitsiyalarni sun'iy ravishda cheklash (shu jumladan, davlat tomonidan ham) mavjud bo'lgan shart-sharoitlarda ishlatilishi mumkin. Bu holatda bank ba'zi-bir loyihalarga, agarda ularni foydali deb topsa ham, o'z pullarini kiritish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Portfel riski darajasi ko'p hollarda umumbozor narxlarning tushishi riski bilan bog'liq. Umumbozor baholarining tushishi riski – bu ba'zi-bir moliyaviy aktivlar bo'yicha daromad olmaslik riskidir. Bu ko'p hollarda bozorda muomalada bo'lgan barcha qimmatli qog'ozlarning baholarini bir vaqtda pasayishi bilan bog'liq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bozorni o'rganuvchi firmalar (masalan, "Standart end Purs") borki, ular turli qimmatli qog'ozlarning portfel riski darajasini tahlil qilib boradilar. Qimmatli qog'ozlar ishonchliligining quyidagi tasnifi mavjud: AAA, AA, A, VVV, VV, V.....D. AAA.....VVV kategoriyaga kirgan qimmatli qog'ozlar kamroq riskka tortilgan bo'lsa, D kategoriya esa nominal qiymatning qaytishini ham kafolatlamaydi, ya'ni asosiy kapital qiymati kelishilgan muddatning oxirida katta savol ostida qoladi.

Albatta, risk va daromadlilik darajalari o'rtasidagi aniq bog'liqlik rivojlangan va barqaror bozorda aniq-ravshan ko'rinadi. Xususiylar firmalar va aksiyadorlik korxonalarining qimmatli qog'ozlari davlat obligatsiyalariga nisbatan riskka ko'proq tortilgan. Davlat nazariy va amaliy jihatdan bankrot bo'la olmaydi, chunki uning qarzi majburiyatlari bo'yicha daromad butun mamlakatning boyligi bilan kafolatlanadi. Ayni paytda, nodavlat, aksioner va venchur korxonalari sharoitlarga tez moslashuvchan va samaralidir, biroq bankrotlik darajasi yuqoriroqdir.

3. Tijorat banklarida portfel riskini boshqarish

Tijorat banklari portfellarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, bank portfellarini bilan bog'liq yo'qotishlarning oldini olish yoki minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Bu riskni boshqarishning strategiyasini yaratishni ko'zda tutadi. Bunda bank rivojlanishining barcha imkoniyatlaridan o'z vaqtida va bosqichma-bosqich foydalanish va ayni paytda risklarni o'ziga qulay va boshqariluvchi darajada saqlab turish ko'zlangan holda qaror qabul qilish siyosatining asoslari ishlab chiqiladi.

Riskni minimallashtirish yo'qotishlarga olib keluvchi voqea va hodisalarning ro'y berish ehtimolligini kamaytirish va potensial zararlarning miqdorini kamaytirish (cheklash)ga qaratilgan tadbirlar majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bank amaliyotida portfel riskini boshqarishning bir nechta usullari ishlab chiqilgan. Ular quyidagilardir:

1. bosh tortish;
2. aktiv va passivlarni boshqarish;

3. diversifikatsiya;
4. sug'urtalash;
5. xedjirlash.

Bosh tortish bank tomonidan riskli tadbirlarni amalga oshirishdan o'zini olib qochishdir. Biroq, odatda, moliyaviy tadbirkorlik uchun riskni qabul qilishdan bosh tortish yaxshigina foyda olish imkoniyatini pasaytiradi. U riskni qabul qilish (yutish) va limitlashtirishni o'z ichiga oladi.

Riskni qabul qilish (yutish)da ziyon tan olinadi, biroq u sug'urtalanmaydi. Riskni qabul qilish (yutish), zarar summasi kam miqdorda bo'lsa va uni hisobga olmaslik imkoniyati bo'lganda qo'llaniladi.

Limitlashtirish – limit belgilash, ya'ni xarajatlar, savdo-sotiq, kreditlarning chegeraviy summasini o'rnatishdir. Limitlashtirish risk darajasini pasaytirishning muhim usuli bo'lib, banklar tomonidan ssudalar ajratish, overdraft shartnomasi tuzish, investitsion faoliyat va boshqa hollarda qo'llaniladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan limitlashtirish tovarlarni kreditga sotish, qarzlar berish, kapital qo'yilmalar summasini aniqlash va boshqa hollarda qo'llaniladi. Bunda risk sohasidagi strategiya xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyat strategiyasi bilan belgilanadi. Strategiya qanchalik agressiv bo'lsa, yo'qotishlarning reja bo'yicha chegarasi shunchalik yuqori bo'ladi. Agressiv siyosatda yo'qotishlarning chegarasi bo'lib korxona kapitali hisoblansa, konservativ siyosatda esa korxona foydasi hisoblanadi.

Limitlarning quyidagi turlari mavjud:

- tuzilmaviy limitlar;
- kontragent limitlari;
- ochiq pozitsiya limitlari;
- bitimni bajaruvchilar va nazorat qiluvchilar uchun limitlar;
- likvidlilik limitlari.

Tuzilmaviy limitlar operatsiyalarning turli shakllari o'rtasidagi nisbatni ta'minlaydi: kreditlash, banklararo kreditlar, qimmatli qog'ozlar va h.k. Jami aktivlar umumiy summasiga nisbatan foizda belgilanadi, ya'ni qat'iy xarakterga ega emas, balki jami aktivlar hajmining o'zgarishida umumiy nisbatlarni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2008 yil 27 dekabrda "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 30/2-sonli Nizomida belgilanishicha, tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni xarid qilish (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) va yuridik shaxslarning ustav kapitalida ulushli ishtirok etishda quyidagilarga rioya etishlari shart:

A) bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga, shuningdek ushbu yuridik shaxsning boshqa qimmatli qog'ozlariga kiritgan investitsiyalari miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak;

B) bankning yuridik shaxslar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalari miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak;

V) oldi-sotdi uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan bank investitsiyalari miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

"A" va "B" bandlarda belgilangan cheklovlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrda "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoniga muvofiq auksion va tanlov savdolarida tijorat banklariga mulk sifatida sotib olingan yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrda F-4010-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan "Auksion va tanlov savdolarida iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibi"ga muvofiq xo'jalik sudlari hal qiluv qarorlariga asosan likvidatsion qiymati bo'yicha kreditor bank balansiga olingan bankrot ishlab chiqarish korxonalari mulklari negizida tashkil etilgan korxonalar hamda bank investitsiyalarini boshqarish uchun ta'sis etiladigan boshqaruv kompaniyalari ustav kapitalida ishtirok etishini istisno qilgan holda hisoblanadi.

Tijorat bankining boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirok etishi (chet el kapitali ishtirokidagi banklar va sho'ba banklarini tashkil etish hollari bundan mustasno),

shuningdek tijorat bankining o'z ustav kapitalining 10 yoki undan ortiq foiz ulushiga ega bo'lgan yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etishi taqiqlanadi.

Tijorat banki bevosita yoki bilvosita (sho'ba korxonalar orqali) boshqa yuridik shaxs ustav kapitalining 26 foizidan ortiq qismiga egalik qila olmaydi, biroq quyidagi holatlar bundan mustasno:

- a) banklarning sug'urta va lizing tashkilotlari ustav kapitalidagi ishtiroki;
- b) banklarning nobank kredit tashkilotlari ustav kapitalida, shuningdek moliyaviy bozor infratuzilmasining bir qismi bo'lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar ustav kapitalidagi ishtiroki;
- v) banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat yuritadigan yuridik shaxslar (tijorat banklarining ustav kapitalidagi ishtiroki bundan mustasno) ustav kapitalidagi ishtiroki;
- g) xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarining 50 foizgacha miqdorini o'rnatilgan tartibda birlamchi bozordan xarid qilishdagi ishtiroki;
- d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoniga muvofiq auksion va tanlov savdolarida tijorat banklariga mulk sifatida sotib olingan yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi F-4010-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan "Auksion va tanlov savdolarida iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibi"ga muvofiq xo'jalik sudlari hal qiluv qarorlariga asosan likvidatsion qiymati bo'yicha kreditor bank balansiga olingan bankrot ishlab chiqarish korxonalari mulklari negizida tashkil etilgan korxonalar hamda bank investitsiyalarini boshqarish uchun ta'sis etiladigan boshqaruv kompaniyalari ustav kapitalidagi ishtiroki.

Tijorat banklari muayyan yuridik shaxs ustav kapitalining 26 foizidan ortiq ulushini sotib olishda yoki bankning bevosita yoki bilvosita mazkur yuridik shaxs faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi shartnoma tuzishda, Markaziy bankka yozma

xabar berishlari shart. Tijorat banklariga, emitent - aksiyadorlik jamiyatlari bilan ushbu jamiyat aksiyalari bo'yicha "repo" bitimlarini amalga oshirish ta'qiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 9 noyabrdagi "Tijorat banklarining ko'chmas mulkka qilingan investitsiyalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 427-sonli Nizomda qayd etilishicha, tijorat banklari faqat quyidagi hollarda ko'chmas mulkka egalik qilishlari, uchinchi shaxslarga egalik qilish uchun berishlari va sotib olishlari mumkin:

A) me'yordagi bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'chmas mulkni;

B) avval berilgan kreditlar qaytarilishini ta'minlash yoki boshqa o'xshash bitimlar bo'yicha garovga olingan mulk sifatida;

v) sotib olish oqibatida ilgari berilgan kreditlar va boshqa shunga o'xshash aktivlarning to'liq yoki qisman qoplanishi hisobidan berilgan mulkka egalik qilish huquqi asosida.

Banklarning ko'chmas mulkka qilgan jami investitsiyalarining miqdori Markaziy bankning oddindan beradigan rozilgisiz chiqarishlarni hisobga olgan holda 1-darajali reguliyativ kapital miqdoridan oshib ketmasligi lozim.

Banklar, faoliyati ko'chmas mulk operatsiyalarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan kompaniyalarga "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasida hamda Markaziy bankning qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga bo'lgan talablarida bayon etilgan meyorlardan ortiq miqdorda mablag'larni investitsiya qilishi mumkin emas.

Kontragent limitlari 3 shaklga ajratiladi: bir kontragent (o'zaro bog'liq kontragentlar guruhi)ga to'g'ri keluvchi chegaraviy risk limiti, alohida qarz oluvchi yoki qimmatli qog'ozlar emitenti (o'zaro bog'liq qarzdorlar guruhi)ga to'g'ri keluvchi limit, dallol (xaridor-sotuvchi, broker, savdo maydonlari)ga nisbatan o'rnatilgan limit.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 25 sentyabrda qabul qilingan "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi 422-sonli Nizomida quyidagilar keltirilgan:

- Bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi 1-darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak;

- Ishonchli (ta’minotsiz) kreditlar uchun tavakkalchilikning eng yuqori darajasi 1-bosqichli bank kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur;

- Bankning barcha yirik kreditlarining umumiy hajmi 1-darajali bank kapitalidan 8 martadan ortiq oshib ketishi mumkin emas;

- DAK "O‘zbekengilsanoat" tarkibiga kiruvchi korxonalar uchun bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor bo‘lgan qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi 1-darajali bank kapitalining 40 foizidan oshmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrda qabul qilingan “Banklar va ularga daxldor shaxslar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar to‘g‘risida”gi 423-sonli Nizomida qayd etilishicha, bankka daxldor shaxslarga beriladigan bitta kreditning umumiy hajmi bir yoki o‘zaro daxldor qarz oluvchilar guruhiga beriladigan bitta kredit tavakkalchiligining maksimal miqdoriga nisbatan tartibga solinadi. Bundan tashqari, bankning barcha daxldor shaxslarga bergan kreditlarining umumiy summasi bankning 1-darajali (asosiy) kapitalining 100 foizidan oshmasligi kerak.

Ochiq pozitsiya limitlari valyuta va qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq risklarni oldini olish maqsadida o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2005 yil 28 mayda qabul qilingan 610-sonli “Ochiq valyuta pozitsiyalarini yuritish” Qoidalarida quyidagilar qayd etilgan:

- Har bir operatsion kun oxirida alohida xorijiy valyuta turi bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyasi bank regulyativ kapitalining 10 foizidan oshmasligi kerak;

- Har bir operatsion kun oxirida barcha valyutalar bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyalarning umumiy miqdori bank regulyativ kapitalining 20 foizidan oshmasligi kerak;

- Ochiq valyuta pozitsiyalarining o‘rnatilgan cheklovlardan oshiq qismi bank tomonidan keyingi operatsion kunga o‘tkazilishi mumkin emas. Agarda, valyuta pozitsiyalarning o‘rnatilgan cheklovlardan oshiq qismi mavjud bo‘lsa, bank ochiq valyuta

pozitsiyalarni belgilangan cheklovlarga mosligini ta'minlash uchun joriy kunning oxiriga qadar balanslashtiruvchi bitimlar (masalan, xorijiy valyutalarni sotish)ni amalga oshirishi zarur.

Bitimni bajaruvchi va nazorat qiluvchi uchun limitlar operatsiyalarni bevosita amalga oshiruvchi, rasmiylashtiruvchi va nazorat qiluvchi shaxslar vakolatlarining chegaralarini cheklaydi. Pul mablag'larining yirik summalari joylashtirilganda, zarar ko'rish va xato qilish risklari darajasi oshadi. Kontragentlar va ochiq pozitsiya limitlariga amal qilinganda ham risk mavjud bo'lib qoladi. SHuning uchun yirik summadagi bitimlarni tuzish va rasmiylashtirish yuqori lavozimga ega xodimlar tomonidan amalga oshirishlari lozim. Bu qoida ochiq pozitsiya (valyuta operatsiyalari, aksiyalar) bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirishda juda muhimdir. Bunda dilerning malakasi va tajribasi birinchi o'ringa chiqadi. Operatsiyalarni bajaruvchilar va nazoratchilarga nisbatan belgilangan limitlar yig'indisi vakolatlar matritsasi deyiladi. Bu tijorat banklar kredit siyosatida o'z aksini topadi, ya'ni kredit siyosatida vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taqsimlash ishlari alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 22 fevralda qabul qilingan "Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 429-sonli Nizomga muvofiq, tijorat banklar o'zlarining kredit siyosatini ishlab chiqishi va uning bank Kengashi tomonidan tasdiqlanishi, uni amalda joriy etishi qayd etilgan. Kredit siyosati kredit berish jarayoniga jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga qarab, ularning har biri uchun kreditlash to'g'risida qaror qabul qilish va kredit miqdorini cheklash tartibini belgilab beradi. Kreditlash uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida qayd etiladi.

Kredit qo'mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berishi davriyligi ham kredit siyosatida belgilanadi.

Likvidlilik limitlari alohida operatsiyaga emas, balki jami operatsiyalarga tegishlidir. Ularning vazifasi – ham joriy faoliyatda, ham istiqbolda majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish uchun pul mablag'lari etmaslik riskini cheklashdir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrda qabul qilingan "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi 421-sonli Nizomda qayd etilishicha, barcha tijorat banklari joriy likvidlilik me'yorlarini bajarishlari lozim. Joriy likvidlilik ko'rsatkichi to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvidli aktivlarning (bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan va/yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlarning umumiy summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Aktiv va passivlarni boshqarish naqd pul mablag'lari, qo'yilmalar va majburiyatlarni balanslash maqsadini ko'zlab amalga oshiriladi. Bunda sof qiymatning o'zgarishini minimallashtirish asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Nazariy jihatdan bu holda rezervlarni tashkil qilish uchun resurslarni aylanmadan chiqarish, sug'urta to'lovini amalga oshirish, ya'ni risklarni boshqarishning boshqa shakllaridan foydalanish zaruriyati kelib chiqmaydi.

Aktiv va passivlarni boshqarish portfel yoki loyihaning asosiy parametrlarini dinamik tartibga solish orqali haddan oshiq riskdan qochishga yo'naltirilgan. Boshqacha aytganda, bu usul faoliyat yuritish jarayonining o'zida riskka tortilganlik darajasini tartibga solishga qaratilgan.

Shunisi aniqki, aktiv va passivlarni dinamik boshqarish qaror qabul qilish markazi va boshqarish ob'ekti o'rtasida samarali faoliyat ko'rsatuvchi va operativ teskari aloqa mavjudligini taqozo etadi. Aktiv va passivlarni boshqarish bank amaliyotida ko'p hollarda bozor, bundan tashqari, valyuta va foiz risklarini nazorat qilish uchun qo'llaniladi.

Diversifikatsiya pul mablag'larni bahosi va daromadliligi bevosita bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan turli aktivlar o'rtasida taqsimlash hisobiga umumiy riskka tortilganlik darajasini kamaytirishning usulidir. Diversifikatsiyaning mohiyati bir voqea bo'yicha yo'qotishlarni maksimal darajada pasaytirishda yotadi, biroq ayni paytda nazorat qilish

lozim bo'lgan risklar turlari oshib boradi. SHunday bo'lsa ham, diversifikatsiya risk darajasini pasaytirishning eng asoslangan va xarajati nisbatan kamroq bo'lgan usul bo'lib hisoblanadi.

Diversifikatsiya kapitalni turli faoliyat shakllari o'rtasida taqsimlash jarayonida riskning bir qismidan holi bo'lish imkonini beradi. Masalan, investor tomonidan bir aksiyadorlik jamiyati aksiyalari o'rniga 5ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari sotib olinishi, u tomonidan o'rta darajadagi daromad olish ehtimolligini 5 marta oshiradi va shunga muvofiq risk darajasini 5 marta pasaytiradi. Diversifikatsiya moliyaviy aktivlar portfeli va bank ssudalari portfelini shakllantirishda tegishli holda bozor va kredit risklarini pasaytirishning eng mashhur mexanizmlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Biroq, diversifikatsiya investitsion riskni to'liq yo'q qilish imkonini bermaydi. Bu tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi sub'ektning investitsion faoliyatiga tashqi omillar ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Tashqi omillar kapital qo'yilmalarning alohida ob'ektlarini tanlash bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli, diversifikatsiya ularga ta'sir ko'rsatmaydi.

Tashqi omillar moliyaviy bozorni to'liqligicha qamrab oladi, ya'ni ular alohida xo'jalik sub'ektlarigagina emas, balki barcha investitsion muassasalar, banklar, moliyaviy kompaniyalarning moliyaviy faoliyatiga ta'sir qiladi. Tashqi omillarga umuman mamlakatning iqtisodiyotida ro'y berayotgan jarayonlar, harbiy harakatlar, inflyasiya va deflyasiya, Markaziy bank hisob stavkasining o'zgarishi, tijorat banklarida depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarishi va h.k. kiradi. Mazkur jarayonlar bilan vujudga kelgan risklarni diversifikatsiya orqali kamaytirib bo'lmaydi.

SHunday qilib, risk 2 qismdan iborat: diversifikatsiya qilinadigan risk va diversifikatsiya qilinmaydigan risk.

Diversifikatsiya qilinadigan, ya'ni nosistematik riskni taqsimlash orqali, ya'ni diversifikatsiya qilish yo'li bilan oldini olish mumkin.

Diversifikatsiya qilinmaydigan, ya'ni sistematik riskni diversifikatsiya orqali kamaytirib bo'lmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kapital qo'yilmalar ob'ektlarining kengayishi, ya'ni riskni taqsimlash, risk hajmini osonlikda va sezilarli darajada pasaytirish imkonini beradi. SHuning uchun, diversifikatsiya qilinmaydigan risk darajasini pasaytirishga alohida e'tibor berish zarur. SHu maqsadda, xorijiy amaliyotda "portfel nazariyasi" ishlab chiqilgan. Mazkur nazariyaning bir qismi bo'lib, sistematik risk va qimmatli qog'ozlar daromadlilikini bog'lash modeli (Capital Asset Pricing Model – SARM) hisoblanadi.

Riskni sug'urtalash risk darajasini pasaytirishning eng keng tarqalgan va muhim usulidir.

O'z mohiyatiga ko'ra sug'urtalash, turli risklarning kutilayotgan ta'sirida yuzaga keladigan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan resurslarni oldindan zahiralashning shakli bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalashning iqtisodiy mohiyati shundaki, unda alohida sug'urta qildiruvchi tomonidan kutilayotgan zarardan sezilarli darajada kam summada belgilangan badalni o'tkazish orqali zahira (sug'urta) fondi yaratilishi va sug'urta hodisasi ro'y berishi bilan sug'urta qoplamasini olishdadir. SHunday qilib, riskning katta qismini sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchiga o'tkazish jarayoni amalga oshiriladi.

Riskni sug'urtalash mohiyati bo'yicha belgilangan to'lov evaziga ma'lum darajadagi risklarni sug'urta kompaniyasiga o'tkazishdir. Bu holatda, foydalilikning ma'lum darajada kamayishi hisobiga ko'zda tutilmagan holatning mavjud bo'lmaydi.

Sug'urtaga yaratilgan pul fondining maqsadlilik, uning resurslarini oldindan kelishilgan hollarda faqatgina yo'qotishlarni qoplash uchun sarflanishi, munosabatlar xarakterining ehtimolli, mablag'larning qaytarishlilik xosdir.

Riskni boshqarish usuli sifatida sug'urtalash chora-tadbirlarning 2ta shaklini anglatadi:

- 1) sug'urta kompaniyasiga yordam so'rab murojaat qilish;
- 2) bir turdagi riskka uchragan tadbirkorlar guruhi o'rtasida zararni taqsimlash (o'z-o'zini sug'urtalash).

Kredit bozori xizmati sifatida sug'urtalash ishlatilganda, bu moliyaviy menedjerni o'ziga qulay bo'lgan sug'urta mukofoti va sug'urta summasi o'rtasidagi nisbatni aniqlashga majburlaydi. Sug'urta mukofoti – bu sug'urta riski uchun sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchiga to'lovidir. Sug'urta summasi – moddiy boyliklar va sug'urta qildiruvchining aktivlari bo'yicha riski sug'urta qilingan pul summasi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolar o'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoya qilish uchun o'zaro sug'urtalash jamiyatlari tashkil etishlari mumkin.

Loyiha rejasi va shartnomaviy hujjatlar tayyorlanishi jarayonida riskni taqsimlash amalga oshiriladi. Alohida risk bo'yicha javobgarlik aybdor tomon yoki javobgarligi doirasida yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hodisa ro'y bergan tomonga yuklatiladi. Albatta, bu holda tomonlarning har biri o'z yo'qotishlarini minimallashtiradi.

Odatda, yirik firmalar o'z-o'zini sug'urtalashdan foydalanishadi, ya'ni bu shunday jarayonki, unda ko'p hollarda bir turdagi riskka uchrab turadigan tashkilot oldindan mablag'larni ajratib qo'yib, ularni yig'ib boradi va natijada ulardan zararlarni qoplaydi. Bu orqali, sug'urta firmasi bilan tuziladigan qimmatbaho bitimdan qochish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'z-o'zini sug'urtalash shuni anglatadiki, tadbirkor sug'urta kompaniyasidan sug'urta polis xarid qilish o'rniga, u o'zini-o'zi sug'urtalashni ma'qul ko'radi. Bu orqali u sug'urtalash bo'yicha kapital xarajatlari iqtisod qiladi.

Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarish-savdo jarayonidagi ehtimoliy zararlarni qoplash bo'yicha alohidalashgan fondning yaratilishi o'zini-o'zi sug'urta qilishning mohiyatini aks ettiradi. O'zini-o'zi sug'urtalashning asosiy vazifasi bo'lib, moliyaviy-tijorat faoliyatdagi muvaqqat qiyinchiliklarni operativ tarzda engib o'tishdir.

O'zini-o'zi sug'urtalash jarayonida turli zahira va sug'urta fondlari yaratiladi. Ushbu fondlar o'zining yaratilish maqsadiga bog'liq tarzda pul va natural shaklda tashkil etilishi mumkin. Masalan, eng avvalo, fermerlar va qishloq xo'jaligining boshqa sub'ektlari

natural sug'urta fondlari (urug'li, donli va h.k.) yaratadilar. Ularning tashkil etilishi noqulay iqlim va tabiiy sharoitlarning ro'y berishi ehtimoli bilan zaruriyatga aylangan.

Eng avvalo, pul shaklidagi zahira fondlari ko'zda tutilmagan xarajatlar, kreditorlik qarzdorliklar, xo'jalik sub'ektini likvidatsiya qilish bo'yicha xarajatlarni qoplash ehtimoli uchun tashkil qilinadi.

Ularning yaratilishi aksiyadorlik jamiyatlari uchun majburiydir. Jahon amaliyotida aksiyadorlik jamiyatlari va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qonunchilikda belgilangan tartibda ustav kapitalning 15 foizidan kam bo'lmagan va 25 foizidan oshmagan miqdorda zahira fond tashkil etishga majburlar.

Aksiyadorlik jamiyati zahira fondiga emission daromad, ya'ni aksiyalarni realizatsiya qilishda ishlab topilgan, nominal bahodan yuqori bo'lgan, aksiyalarning sotuv va nominal qiymati o'rtasidagi farq summasini qo'shadi. Ushbu summani turli maqsadlarda ishlatish yoki taqsimlash mumkin bo'lmaydi, faqatgina aksiyalarning o'z nominal qiymatidan past bahoda sotish hollari bundan mustasno.

Aksiyadorlik jamiyatining zahira fondi kutilmagan xarajatlar, shu jumladan obligatsiyalar bo'yicha foizlarni va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lashni (agarda, foyda mazkur maqsadlar uchun etarli bo'lmagan hollar uchrasa) moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Risk ta'sirining oqibatlarini kamaytirish maqsadida kompaniya faoliyatida noqulay o'zgarishlar ehtimoli uchun moliyaviy resurslarni zahiralashdan foydalaniladi. Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash bo'yicha zahiraning tashkil etilishi risklarni boshqarishning usullaridan biri bo'lib, u aktivlar qiymatiga ta'sir ko'rsatuvchi potensial risklar va risklar ta'sirining oqibatlarini yo'q qilish uchun zarur bo'lgan mablag'lar miqdori o'rtasidagi nisbatni o'rnatishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 9 noyabrda qabul qilingan "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zahiralarini

shakllantirish va ulardan foydalanish” 242-sonli Tartibida belgilanishicha, ssuda (aktiv)lar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira - bu bank kredit portfeli (yoki aktivlari) va balansdan tashqari majburiyatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki mavjud zararlarni qoplash uchun qiymat summasini o'zida aks ettiradigan bankning barcha kreditlari (yoki boshqa aktiv hisobvaraqlari) bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zahiralar kontr-aktiv hisobvarag'i.

Maxsus zahira - "standart", "substandart", "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan kreditlar va lizing yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo'yicha yuzaga kelish mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahiradir. Ushbu Tartibga binoan "standart" deb tasniflangan kreditlarga - 10 foiz, "substandart" kreditlarga – 25 foiz, "shubhali" kreditlarga - 50 foiz va "umidsiz" kreditlarga - 100 foiz miqdorida tijorat banklari tomonidan zahiralar tashkil etish talab qilinadi.

Aktiv bir toifadan ortiq toifalarda tasniflanishi mumkin.

Umumiy zahira - bank faoliyati bo'yicha umuman yoki biror-bir faoliyat turi (kreditlash, investitsiyalash va h.k.) bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan. Alohida muayyan operatsiyalarga doir zararlar bundan mustasno. "YAxshi" kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga qarshi yoki milliy valyuta devalvatsiyasi bo'yicha zahiralar bunga misol bo'la oladi.

Xedjirlash bank, birja va tijorat amaliyotda qo'llaniladi. “Xedjirlash” termini keng ma'noda kelajakda tovar va xizmatlarni sotish (etkazib berish)ni ko'zda tutuvchi muayyan tovar-moddiy boyliklar bo'yicha shartnomalar va tijorat operatsiyalarda noqulay tarzda baholarning o'zgarishi bilan bog'liq risklarni sug'urtalashni anglatadi.

Xedjirlash bozor riski va undan kamroq holda kredit riski ta'siri oqibatida qo'yilmalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun mo'ljallangan. Xedjirlash balanslashtiruvchi (tenglashtiruvchi) bitim tuzish orqali ehtimoliy yo'qotishlarni sug'urtalashning shaklini o'zida aks ettiradi. Sug'urtalash kabi, xedjirlash qo'shimcha resurslarni bank aylanmasidan band qilishni talab qiladi.

Amalga oshirilgan xedjirlash, mazkur pozitsiya bo'yicha qarama-qarshi yoki qoplovchi pozitsiya ochilishi sababli, muayyan daromad yoki zarar ko'rish imkoniyatini to'liq inkor etadi.

Ham daromad olmaslik, ham zararlar ko'rmaslik bo'yicha ushbu "ikkiyoqlama kafolat" amalga oshirilgan xedjirlashning klassik sug'urtalashdan farqidir.

7-mavzu: Tijorat banklari passivlari va aktivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish
Reja:

- 1. Tijorat banklari kapitali va uni tashkil qilish bilan bog'liq risklar.**
- 2. Tijorat banklari tomonidan resurslarni jalb qilish va u bilan bog'liq risklar.**
- 3. GEP va uni boshqarish.**
- 4. Tijorat banklarining aktiv va passivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish.**

1. Tijorat banklari kapitali va uni tashkil qilish bilan bog'liq risklar.

Bankning o'z kapitali - bank vaqtincha jalb qilgan qarz mablag'laridan farqli o'laroq, bevosita bankning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'lardir. Bank kapitalining boshqa korxonalar kapitalidan farqi shundaki, bankning o'z kapitali aylanma mablag'larining 10 foizini, korxonalarda esa u taxminan 40 - 50 va undan ortiq foizni tashkil qiladi.

Bank kapitaliga bankning o'z mablag'larining asosiy elementlari kiradi, ya'ni qonunchilikka muvofiq tashkil topgan asosiy fondlar, bank faoliyatini ta'minlash maqsadida ichki manbalar hisobiga tashkil topgan rezervlar kiradi. Ular quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- bank faoliyatining barqarorligi;
- kreditor xuquqlari bo'yicha subordinatsiyalanganlik;
- qayd qilib yozilgan daromadlarning yo'qligi.

Bankning o'z kapitali deganda, bankning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga qaratilgan maxsus tashkil qilinadigan

fond va rezervlarni tushunishimiz kerak. Bank kapitaliga ustav kapitali, rezerv kapitali, ta'sis foydasi, bank ixtiyorida qoldirilgan o'tgan va joriy yilda taqsimlanmagan foydasi, turli risklarni qoplash uchun tashkil qilingan rezervlar kiradi va u bank faoliyatida muhim funksiyalarni bajaradi.

Bank kapitali I va II darajali kapitaldan iborat bo'lib.

I darajali kapital quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) to'liq to'langan va muomalaga kiritilgan oddiy aksiyalar;

b) nokumulyativ imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar muayyan sotib olish sanasi va shartlariga, egasining xohishiga ko'ra sotib olinish imkoniyatiga ega emas. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq, ular bo'yicha dividendlar to'lanmasligi mumkin;

v) qo'shimcha kapital - oddiy va imtiyozli aksiyalar bozor narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi;

g) taqsimlanmagan foyda:

kapital zaxiralar;

avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi;

joriy yil zararlari.

d) aksiya egalari kamchiligining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisobvaraqlarida o'sishi. Bu ulush shu'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.

II darajali kapital quyidagilardan iborat:

a) joriy yildagi sof foyda;

b) riskni hisobga olgan holda aktivlar summasining 125 foizi va hisob - kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdoridagi umumiy zahiralar. Nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar muayyan sotib olish sanasi va shartlariga,

egasining xohishiga ko'ra sotib olinish imkoniyatiga ega emas. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq, ular bo'yicha dividendlar to'lanmasligi mumkin;

v) hisob - kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar;

g) subordinar qarz bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob - kitoblardan so'ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to'lash muddati etib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 30 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarzlarga garov ta'minotiga ega bo'lmasligi, bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitlar talablari qondirilganidan so'ng amalga oshirilishi, boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan ortiq bo'lishi lozim.

Rezerv kapitali - bankning umumiy va maxsus maqsadlari uchun (masalan, devalvatsiya uchun zaxira, trust operatsiyalari buyicha biznes uchun zaxira, ko'zda tutilmagan xarajatlar, tabiiy ofatlar natijasidagi zararlar uchun zaxira va boshqa maqsadlar uchun) yaratgan zaxirasining hisobi 30903 - 30906 balans hisobvaraqasida olib boriladi. Ushbu zaxira bankning taqsimlanmagan foydasi hisobiga tashkil etiladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng sof foyda hisobiga shakllangan zahiralaridir.

Ushbu zahiralariga ajratiladigan chegirmalar miqdori ochiq e'lon kilinadigan hisobotda ko'rsatilishi lozim. Zahiradan bank faoliyatida vujudga keladigan turli zararlarni ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashlarsiz qoplash uchun foydalaniladi. Bundan mazkur zaxiralar hisobiga qoplanadigan barcha zararlar foyda va zararlar hisobida aks ettiriladi. 30903 - umumiy zaxira fondi bo'lib, bu hisobvarag'i bankning taqsimlanmagan foydasi hisobidan umumiy maqsadlar (masalan, bank faoliyatini kengaytirish, bank uchun zaruriy vositalarni sotib olish va ko'zda tutilmagan xarajatlar, tabiiy ofatlar natijasidagi zararlar uchun va hokazo) uchun tashkil etgan zahirasi hisobini yuritish uchun mo'ljallangan.

30906 - Devalvatsiya uchun zaxira bo'lib, bu hisobvaraqda milliy valyutaning devalvatsiyasi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yaratilgan zaxiraning hisobi yuritiladi. Ushbu zaxira mablag'lari bankning taqsimlanmagan foydasining ma'lum qismidan va valyutadagi bank aktivining ustav kapitaliga tegishli ekvivalentini qayta baholash natijasida hisoblangan mablag'lardan tashkil topgan.

Maxsus zaxiralar - "Standart", "Substandart", "SHubhali" va "Umidsiz" deb tasniflangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar buyicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun uchun zaxira tashkil qilinadi.

Taqsimlanmagan foyda. Bu hisobvarag'i bankning butun faoliyati davomida olgan foydasining taqsimlanmagan qismi hisobini yuritish uchun mo'ljallangan.

Bank kapitalining uchta asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bular: ***himoya, operativlik va tartibga solish funksiyalaridir.***

Bank omonatchilari manfaatlarini himoya qilish bankning o'z kapitalining asosiy funksiyasi bo'lib xizmat qiladi. CHunki bank aktivlarining asosiy qismi omonatchilar hisobiga tashkil topadi. Bundan tashqari bank kapitali aksionerlar risklarini kamaytiradi.

Himoya funksiyasi zarar ko'rish xavfi tug'ilganda aktiv rezervlar shakllantirish yo'li orqali bankning to'lov qobiliyatini saqlab qolish, mabodo bank tugatilganda omonatchilarga kompensatsiya to'lash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bankning keyingi faoliyat ko'rsatishiga keng yul ochib beradi. Lekin shuni e'tiborga olishimiz kerakki, tijorat banklari ko'pgina korxonalardan farqli o'laroq o'zlarining to'lovga qobiliyatligini joriy bank daromadi hisobiga ta'minlaydilar va faqatgina zararining bir qismi kapital hisobiga qoplanadi.

Kapital o'ziga xos himoya yostig'i rolini o'ynab, yirik ko'zda tutilmagan xarajatlar sharoitida bank o'z operatsiyalarini davom ettirish imkoniyatini beradi. SHu kabi chiqimlarni moliyalashtirish uchun bankning o'z kapitali ichiga kiruvchi turli xil rezerv fondlar mavjud. Lekin mijozlarning ssudalarni ommaviy qaytarilmasligi yuz berganda, zararni qoplash uchun aksionerlik kapitali bir qisminigina ishlatish maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Bank o‘z kapitalining mavjudligi uning ishonchligi va likvidligining birinchi shartidir.

Bank o‘z kapitalining himoya funksiyaga qaraganda operativlik funksiyasi ikkinchi darajali bo‘lib hisoblanadi. U bankning o‘z mablag‘larini er, bino, inshoot jihozlarni qoplash uchun moliyaviy rezervlarni shakllantirishga ajratishni o‘z ichiga oladi. Bu moliyaviy resurslar manbai bank ishi faoliyatining birinchi bosqichlarida, ta’sischi bilan bir qatorda birinchi navbatdagi xarajatlarni amalga oshirishlarida juda keraklidir. Bank rivojlanishining keyingi bosqichlarida bank kapitalining roli muhim bo‘lib, bu mablag‘larning bir qismi to‘g‘ri rezervlarni tashkil qilish uchun uzoq muddatli aktivlarga sarflanadi. Garchi zararni qoplashning asosiy manbai foyda jamg‘arish bo‘lsa ham zararni qoplash uchun yangi aksiyalar chiqarishadi yoki uzoq muddatli qarz olinadi.

Bankning o‘z kapitali tartibga soluvchi funksiyani ham bajaradi. Bank kapitali ko‘rsatkichi yordamida davlat organlari bank faoliyatiga baho beradilar va nazorat qiladilar. Odatda, bank o‘z kapitaliga uning minimal miqdori, aktivlar me‘yori va boshqa bank aktivini sotib olish shartlari bo‘yicha talab qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bank tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy meyorlar, asosan, bankning o‘z kapitali hajmidan kelib chiqadi. Tartibga soluvchi funksiyaga kapitalni ssuda va investitsion operatsiyalarni chegaralash maqsadida ishlatish ham kiradi.

Bankning ustav fondini o‘zgarishi ustav fondi miqdorining oshirilishi va kamaytirilishi shakllarida amalga oshirilishi mumkin.

Bank ustav kapitali qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yoki aksiyalarni nominal qiymatini ko‘tarish yo‘li bilan oshirishi mumkin.

Aksiyalarni nominal qiymatini oshirish yo‘li bilan bank ustav fondini oshirish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

moliyaviy yil yakuni bo‘yicha ko‘rilgan foydaning bir qismini yoki hammasini aksiyalar nominal qiymatini oshirishga yo‘naltirish;

aksiyadorlar tomonidan aksiyalar nominal qiymatini oshirilgan qismini to‘lanishi.

Ustav fondini oshirish uchun qilingan o'zgartirishlarni bank ustaviga kiritish to'g'risida ta'sischilar qaror qabul qiladilar.

Qo'shimcha aksiyalarni chiqarish yoki aksiyalar nominal qiymatini oshirish uchun tijorat banklari Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish departamentiga quyidagilarni topshiradi:

- qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yoki aksiyalar nominal qiymatini oshirish to'g'risida bank vakolatli organining qarori;
- agar aksiya ochiq obuna yo'li bilan tarqatilsa, bank vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan emissiya prospekti;
- aksiya yopiq holda taqsimlansa, aksiyalarni chiqarish to'g'risida axborot beriladi;
- bank kengashi raisi imzolagan ustav kapitalini oshirish va aksiyalar emissiyasiga rozilik berish to'g'risida Markaziy bank nomiga berilgan iltimosnoma. Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish va rozilik berish bir oy muddat ichida amalga oshiriladi.

Bank ustav kapitali aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki aksiyalar umumiy sonini qisqartirish, jumladan, keyinchalik ularni to'lash sharti bilan sotib olish orqali kamaytirilishi mumkin.

Agar bank ustavida ko'zda tutilgan bo'lsa, aksiyalarni bir qismini sotib olish va ularni to'lash yo'li bilan bank ustav kapitalini kamaytirishga ruxsat beriladi.

Agar kamaytirish natijasida ustav kapitalining eng kam miqdoridan kamayib ketsa bank ustav kapitali miqdorini kamaytirishga ruxsat berilmaydi.

Aksiyalarni nominal qiymati pasaytirilganda aksiya narxi va yangi nominal qiymat o'rtasidagi farq aksiyadorlarga qaytariladi.

Ustav kapitalini kamaytirish uchun tijorat banklar faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish departamentiga iltimosnoma va ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori topshiriladi. Rozilik bir oy muddatda beriladi.

Ustav kapitalining kamaytirilishi yoki oshirish omonatchilar manfaatlariga va bank moliyaviy ahvoliga xavf solsa yoki bir aksiyador ulushi belgilangan normadan oshib ketsa, Markaziy bank ustav kapitalini kamaytirishga ruxsat bermaydi.

Markaziy bank o'z xulosasini asoslagan holda bir oy ichida yozma ravishda tijorat bankiga yuboradi.

Shuni aytish kerakki, *bank kapitalining asosiy maqsadi - riskni kamaytirish va kapitalning moliyaviy resurslar bozoriga kirish yo'lini ta'minlashidir.*

Bank kapitali operatsion xarajatlarni moliyaviy bozorlarga erkin kirib borishini ta'minlash orqali kamaytiradi. Bank kapitali doimiy manbalardan odatdagi stavkalarda qarz olishga imkon beradi. Katta miqdordagi kapital bankning barqaror obro'sini va omonatchilar ishonchini ta'minlaydi.

Bank kapitalining aktivlarga nisbati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan normativlar bilan o'zaro yaqindan bog'liq. YA'ni, kapital qarz olish bilan yangi aktivlar jalb qilinishini choralash orqali riskni oshib ketishini to'xtatadi va kamaytiradi. Agar banklar ssuda miqdorini oshirmoqchi yoki boshqa aktivlarni sotib olmoqchi bo'lsalar, yuqorida keltirilgan yo'llar bilan ular aksioner kapitalini qo'shimcha moliyalashtirish bilan olinishini ta'minlashlari kerak. Bu aktivlarning spekulyativ o'sishini oldini oladi. Chunki banklar o'z aktivlarini samarali boshqarish imkoniyatlarini saqlab qolishlari kerak.

Yuqorida aytilgan bankning o'z kapitalining funksiyalaridan xulosa qilib aytsek, bankning o'z kapitali - bank tijorat faoliyatining asosidir. U bank mustaqilligini va turli risklar bo'yicha salbiy oqibatlarni oldini olish manbai bo'lib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

2. Tijorat banklari tomonidan resurslarni jalb qilish va u bilan bog'liq risklar.

Jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning roli juda katta bo'lib, bank resurslarining 70%dan ortig'ini tashkil qiladi. YUridik va jismoniy

shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo'jaligining va aholining qo'shimcha aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi.

Banklar mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag'lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me'yorlar yordamida tartibga soladi. Bu quyidagi normativlar: kapital etariligi, bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk miqdori, aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo'riqnomasiga muvofiq, aholidan pul omonatlarini jalb qilish miqdori bankning o'z kapitali miqdori bilan chegaralanadi.

Rejali iqtisodiyot davrida banklarda bo'sh turgan mablag'larini jalb qilishdan manfaatdorlik yo'q edi, chunki banklarning aktiv operatsiyalari miqdori jalb qilingan mablag'lar miqdoriga qarab emas, balki kredit qo'yilmalar bo'yicha o'rnatilgan limitga qarab aniqlanar, jalb qilingan mablag'lar bo'yicha rag'batlantirish bilan banklar shug'ullanmas edilar. Aksariyat hollarda yirik loyihalarni amalga oshirish uchun bank ssudalari o'rniga ko'proq byudjet mablag'lari jalb qilinardi. SHu bois muddatli omonatlarni o'rta va uzoq muddatli kredit manbalari sifatida jamg'arishga ehtiyoj bo'lmagan.

Ikki pog'onali bank tizimiga o'tilishi, iqtisodiy mustaqil tijorat banklarining tashkil topishi, banklarning o'z - o'zini moliyalashtirish tamoyiliga o'tishi, passivlar va aktivlar muvofiqligiga erishish muammosi bank faoliyatida dolzarb masalalarga aylandi. Bozor munosabatlarining rivojlantirish bank resurslarining ham turli - tumanlashuviga olib keldi.

Banklar jalb qiladigan mablag'lar tarkibi turlicha bo'ladi. Ularning asosiy turlariga quyidagilar kiradi: bank mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb qilgan mablag'lar (depozitlar), o'z qarz majburiyatlarini chiqarish yo'li bilan mablag'larni to'plash (depozit

va jamg'arma sertifikatlarini, vekselar, obligatsiyalar) va banklararo kredit vositasida boshqa kredit tashkilotlaridan olinadigan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinadigan ssuda mablag'lari va boshqalar kiradi. Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig'ish usuliga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- depozitlar;
- nodepozit resurslar.

Jalb qilingan mablag'larni asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi.

Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi.

Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi (mukofoti) bo'lib hisoblanadi.

Bankning "Oltin qoidasi"ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy schetlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin. Vaholanki, mijozlar, odatda, o'z mablag'larining hammasini birdaniga olishmaydi, shuning uchun, bankning naqd pul rezervi omonatlarga nisbatan shakllanadi.

Bundan tashqari, aksariyat bank operatsiyalari naqd pulsiz ko'rinishda amalga oshiriladi. Kassa zahiralari ko'rinishida bo'lmagan naqd pullar bank likvidligini oshiradi va u boshqa mijozlarga yoki bankka kredit sifatida yo'naltirilishi mumkin. Kassa zahiralariidan tashqari tijorat banklari tomonidan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanishda boshqa cheklovlar bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatiladigan majburiy zaxiralar shaklida ifodalanadi.

Depozit hisobvaraqlari turlicha bo'lishi mumkin va ularning tasniflanishi asosida qo'yilmalar manbai, ularning maqsadli yo'naltirilganligi, daromadlilik darajasi va boshqa

shu kabi mezonlar etadi, ammo aksariyat hollarda mezon sifatida pul qo'yuvchi toifasi va qo'yilmani olish shakllari inobatga olinadi.

Pul qo'yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda, depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar);

jismoniy shaxslar;

Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- * muddatli depozit mablag'lar;
- * talab qilib olingunga qadar depozit mablag'lar;
- * aholining jamg'arma qo'yilmalari.

O'z navbatida bu guruhlarning har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi. Muddatli depozit mablag'lar ularning muddatidan kelib chiqib tasniflanadi:

3 oy muddatgacha depozitlar;

3 oydan 6 oygacha depozitlar;

6 oydan 9 oygacha depozitlar;

9 oydan 12 oygacha depozitlar;

12 oydan yuqori bo'lgan depozit mablag'lar.

Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning yuqori likvidlik darajasini ushlab turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqib turli aktivlarga joylashtiriladi.

Talab qilib olinguncha qadar depozitlar - bu bankni oldindan ogohlantirmay mijoz tomonidan xohlagan vaqtda talab qilib olinadigan mablag'lardir.

Ularga joriy, hisob - kitob, byudjet va hisob - kitoblarni amalga oshirishi yoki mablag'lardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq hisob - varaqalardagi mablag'larni,

boshqa banklarning vakillik hisobvarag'idagi qoldiqlarni kiritish mumkin. Talab qilinguncha depozitlar joriy hisob - kitoblar uchun mo'jallangan. Bu hisobvaraqdagi mablag'lar harakati naqd pul, pul o'tkazish, boshqa hisob - kitob hujjatlari bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bank likvidligini boshqarish nuqtai nazaridan qaraganda joriy va byudjet hisobvaraqlari, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bo'yicha hisobvaraqlar, maxsus hisobvaraqlar banklar uchun foydaliroq hisoblanadi. Chunki bu mablag'lar yuqori likvidlikka ega. Bu depozit turining asosiy kamchiligi - ular bo'yicha juda kam miqdorda foizlarning to'lanishi yoki umuman to'lanmasligidir. Bundan tashqari joriy va byudjet hisobvaraqa egalari o'zlarining statuslaridan kelib chiqib kredit olmaydilar, bu esa banklarga mablag'larni o'z rejalari asosida ishlatishga imkon beradi. Talab qilib olguncha bo'lgan depozitlarga banklarning korrespondent banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'larini ham kiritish mumkin. Bu hisobvaraqlar ular hisob kitoblarni va to'lovlarni bir tomonlama tartibda yoki bir birlarining topshiriqlari bo'yicha amalga oshirish maqsadida ochilgan. Mazkur bankning boshqa bankda ochilgan vakillik hisobvarag'i "Nostro" scheti, mazkur bank boshqa bank uchun ochgan vakillik hisobvarag'i "Loro" scheti deb yuritiladi va bunday hisobvaraqlarini ochish banklararo imzolangan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi. Bu hisobvaraqlardan to'lovlar, qoidaga ko'ra, ulardagi mablag'lar hajmi chegarasida amalga oshirilishi kerak. Ular bo'yicha mavjud mablag'lardan ko'proq operatsiyalar o'tkazish zaruriyati tug'ilganda, vakilga alohida balans hisobvarag'idan overdraft krediti berilishi mumkin.

Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarga kontokorrent hisobvarag'i mablag'larini ham kiritish mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida talab qilib olinguncha yuqoridagi depozitlardan tashqari nau - hisobvaraqlar (uchinchi shaxs foydasiga hisob hujjatlarini yozib berish), bank tomonidan belgilanadigan hisob cheklari ham kiritiladi.

Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

depozitning bu turida xohlagan vaqtda, xohlagan summada mablag'ni qo'yish yoki olishi mumkin;

depozit muddati chegaralanmagan;

kam miqdorda foiz to'lanadi;

bu turdagi depozitlar bo'yicha Markaziy bankka o'tkaziladigan majburiy rezervlar salmog'i yuqori va h.k.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar turlicha hajmga ega. Bu odatda, bank resurslarini shakllantirishning eng arzon manbaidir. Mablag'larning yuqori harakatchanligi tufayli talab qiluvchi hisobvaraqlardagi qoldiq doimiy emas, ba'zida juda o'zgaruvchan. Hisobvarag'i egasi istagan paytda mablag'larni olish ehtimoli bank oborotida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko'proq bo'lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlika ega bo'lgan, biroq yuqori daromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. SHu sababli banklar talab qilgungacha hisobvarag'i egalariga past foiz to'laydilar yoki umuman to'lamaydilar. Biroq, talab qilguncha hisobvaraqlardagi mablag'larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan, ularning minimal, doimiy qoldig'ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo'lmog'i lozim.

Muddatli depozitlar - bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlar qo'yilgan muddatda o'zgarmas bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi.

Muddatli qo'yilmalar mablag'larni shartnoma bo'yicha muddat va shartlarda to'liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo'yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo'yilma bo'yicha to'lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo'yuvchi tomonidan bajarilishiga bog'liqdir. o'qo'yilmaning muddati va summasi qanchalik katta bo'lsa, foizi ham shunchalik yuqori bo'ladi. YUqorida ta'kidlaganimizdek amaliyotda asosan 1, 3, 6, 9, 12 oy yoki yanada uzoqroq muddatga qo'yilmalar rasmiylashtiriladi. Bunday aniq chegaralar pul qo'yuvchilarni o'zlarining mablag'larini ratsional tashkil qilish va qo'yilmalar qo'yishga rag'batlantiradi, shuningdek banklarga o'zlarining

likvidliklarini boshqarish uchun sharoit yaratadi. Pul qo'yuvchi tomonidan qo'yilma bo'yicha mablag'larni muddatidan oldin olinganda u shartnomada ko'rsatilgan foizlardan to'liq yoki qisman mahrum bo'lishi mumkin. Odatda bunday hollarda foizlar talab qilgungacha qo'yilmalarga to'lanadigan foizlar hajmigacha pasaytiriladi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. SHu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas (depozit siyosatida ko'rsatilgan) foiz to'lanadi;
 - joriy hisob - kitoblar uchun foydalanilmaydi;
 - mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;
 - mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo'naltiriladi;
- majburiy rezerv normasi nisbatan past bo'lishi mumkin va h .k.

3. GEP va uni boshqarish.

Foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan aktiv va passivlar o'rtasidagi miqdorning uzilishi pullik GEP (yoki bankning sof bahosi) deb nomlanadi va u quyidagi formula orqali nomlanadi:

$$GEP = ATF - PTF,$$

Ushbu ko'rsatkich foiz riski darajasini baholash imkoniyatini beradi. Foiz riskini baholovchi boshqa ko'rsatkich GEP munosabat deb nomlanadi (yoki foizli GEP, yoki GEPning ta'sirchanligi):

$$GEP(\%) = \frac{AC\Phi}{\Pi C\Phi},$$

Ko'rsatkichning kamchiliklari: birinchidan, foiz stavkalarining o'zgarishi bilan bog'liq daromadning o'zgaruvchanligini ko'rsatib bermaydi, ikkinchidan esa bank kattaligini hisobga olmaydi.

GEPni quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Manfiy GEP bank passivlarining foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan bo'lgan aktivlariga nisbatan ko'proqligini anglatadi.

Bank mablag'larni qisqa muddatga olib, uni uzoq muddatga joylashtirgan holatlar rentabellik hisoblanadi. SHuningdek, bank past narxlardan olib, uni daromadliroq uzoq muddatli bozorda kreditga qo'yadi. Manfiy GEP holatidagi bank foiz stavkalarining tushishidan foyda ko'radi. Stavka oshganda, manfiy GEP sezilarli darajadagi foiz riskini vujudga keltiradi, chunki narxlar daromadli aktivlardan ko'riladigan foydaga nisbatan tezroq osha boshlaydi. Inflyasiya holatlarida manfiy GEP moliyaviy fojealarga olib keladi: daromadlar o'rnini zararlar egallaydi, bankning moliyaviy barqarorligi buziladi, bu esa to'lovga layoqatsizlikka olib keladi.

2. Nolli GEP bankning aktiv va passivlarini muddatlar bo'yicha moslashtirishni anglatadi. Ushbu holatni odatda neytral risk deb nomlashadi. Nolli GEP holatli bank foiz stavkalari o'zgarish jarayonida o'zining portfelida "sarf qilinmaydigan" ssudalarni saqlaydi. SHuni inobatga olish kerakki, aktiv va passivlar bo'yicha foiz stavkalarining bir xilda o'zgarishi sof foiz daromadiga ta'sir qilmaydi. Lekin, ushbu nolli GEP holatida foiz stavkalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan riskning paydo bo'lish imkoniyati yo'q degani emas. Muammo shundan iboratki, aktiv va passivlar bo'yicha stavkalarining o'zgarishi sinxronlanmagandir. Ssudalar bo'yicha foiz stavkalar bank rahbariyati tomonidan shartnoma asosida belgilanadi, ular esa bozor stavkalari o'zgarishidan orqada qoladi, ayniqsa foiz siklining burilish nuqtalarida (4-rasmga qarang). "Nolli qirqilish" taktikasi bankning mohirlik (manyovrchanlik, harakatchanlik) sifatini kamaytiradi, bu esa yuksalish paytlarida bank foydasining o'sishini to'xtatadi va tushish (spad) paytlarida esa uning tushishini yumshatadi.

3. Musbat GEP bank aktivlarining foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan bo'lgan passivlariga nisbatan ko'proqligini anglatadi. Agar foiz stavkalarining darajasi kamayish

tendensiyasiga ega bo'lsa, bankning foiz daromadi foiz qaytarish to'lovlari xarajatlariga nisbatan tezroq kamayadi. SHu tariqa musbat GEP holatiga ega bo'lgan bank foizlar tushishidan zarar ko'radi va uning oshishidan daromad oladi.

Bankning daromadlilik ko'rsatkichi – spread tushunchasini kiritamiz. Spread – aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalari o'rtasidagi tafovutdir.

$$Spread = \bar{i}_a - \bar{i}_n,$$

Bu erda i_a – daromad keltiruvchi aktivlardan olingan foizning o'rtacha darajasi;

i_n – bank majburiyatlari bo'yicha to'langan foizning o'rtacha darajasi.

Foiz risklarini boshqarishda bankning foiz siyosati ishlab chiqilishi jarayonida foiz stavkalarining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan o'zgarishini hisoblashning boshqa yondashuvlari ham mavjud:

$$Spread = i_{AC\Phi} - i_{PC\Phi} = \frac{\sum AC\Phi \cdot i_a}{\sum AC\Phi} - \frac{\sum PC\Phi \cdot i_n}{\sum PC\Phi},$$

Bu erda, $i_{ASF(PSF)}$ – bozor kon'yukturasi ta'siriga yo'liqqan aktivlar (passivlar)ning o'rtacha foiz stavkasi.

Foiz riskini minimallashtirish uchun bankning aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha siyosati o'zaro bog'liq bo'lishi zarur. Ushbu moslashtirilgan darajani quyidagi spread koefitsienti orqali hisoblash mumkin:

Spread koefitsientining normativ darajasi 1.25%. SHuni nazarda tutish kerakki, bu normativ ko'rsatkich inflyasiya sur'atini hisobga olmaydi. Banklarni kredit va depozit operatsiyalarining asosiy vazifalaridan biri spreadni boshqarishdir. Bank filiallariga qaytarib berish sharti bilan ko'rsatiladigan pul mablag'i ko'rinishidagi moliyaviy yordamdan olinadigan foydani baholashda spread modeli qo'llaniladi. Bankning sof daromadini spread modeli yordamida baholash bankning ichki oborot hisobini va o'z mablag'larini kreditlash, ya'ni bruttoni anglatadi.

Turli GEP (aktiv va passivlar o'rtasidagi farq) holatlaridagi foiz stavkalarini o'zgarishini hisobga olgan holda quyidagi bank daromadining egri chizig'ini tahlil qilamiz.

Bu holat aktivlar va passivlarning muddatlari to'g'ri kelmasligi hamda daromad egri chizig'ini siljish tezligining nomutanosibligidan dalolat beradi. Agar foiz stavkalarining o'zgarish yo'nalishi bankning GEP pozitsiyasiga qarama-qarshi bo'lsa, bank bozor talablariga moslashish uchun etarli darajada egiluvchan bo'lishi kerak.

Egiluvchanlik – o'zgarishlarga bo'lgan ta'sirchanlik ko'rsatkichi. Moliyaviy aktivlarga aloqador holatlarda, narx egiluvchanligi uning foiz o'zgarishini foiz o'zgarish stavkasiga bo'lgan nisbati bilan ifodalanadi, ya'ni

Foiz stavkalari o'sishidan kelib chiqqan ssudaga bo'lgan talab manfiy kattalik hisoblanadi ($E < 0$), chunki aktivlar bahosining o'zgarishi va foiz stavkalari qarama-qarshi bog'liqlikka ega. Egiluvchanlikni modul qiymatining oshishi bank riskini o'sishiga olib keladi. Egiluvchanlikning manfiy qiymatining oshishi bilan ssudalar berish ehtimoli kamayadi. Agar elastiklikni modul qiymati narx oshgan holatlarda uncha katta bo'lmasa, u holda ushbu risk darajasi bilan ko'zda tutilgan natijaga erishish mumkin, ya'ni

$$So's(b) = So's(fs) * E$$

Ushbu ifoda elastiklikning foiz stavkalari o'sishining sur'ati uchun to'g'ri keladigan narx o'sishining ushbu sur'atiga ta'sirini ifodalaydi. Foiz stavkalarining ko'rsatilgan o'zgarishlarida aktivlarning egiluvchanligi qancha katta bo'lsa, ular narxining tebranishi shuncha katta bo'ladi. Foiz stavkalarining o'zgarish tezligi to'g'risidagi prognozga asoslanib bankning GEPni tartibga solish qobiliyati foiz stavkalarida "o'ynashga" imkon beradi. Ushbu o'yin GEPni yoki aktiv va passivlarni boshqarishga tegishli. GEP-usuli bankka foiz riskini minimallashtirishga imkon beradi (1-jadval). Musbat GEPdan manfiy GEPga o'tish holati daromadlar egri chizig'ining eng egilgan nuqtasiga to'g'ri keladi va egiluvchan balansni talab qiladi. Ushbu holatda bankning asosiy vazifasi foiz stavkasini o'zgarishidan samarali foydalanishdir. Foiz stavkalarining o'zgarishida "o'ynash"ni istamagan bank GEPni nolli holatga keltirib foiz riskini kamaytirishi mumkin.

Shu bilan aktiv va passivlarni boshqarish maqsadi ko‘rsatilgan risk darajasida foiz daromadlarini maksimallashtirishdan iborat yoki berilgan foiz daromadi darjasida riskni minimallashtirishdan iboratdir. Bank menejmenti sohasidagi maslahatchi D.Keyts shuni tasdiqlaydiki, bankning ideal holati-bu potensial balanslangan holatda bo‘lishi kerakki, bu holat foiz stavkasi dinamikasiga mos kelishi kerak. Ushbu ta’rif bozor o‘zgarishini prognoz qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan yirik bo‘lgan banklar uchun mos keladi. Aks holda bank katta zararlar ko‘rishi mumkin.

1-Jadval

GEP	Foiz stavkasi ning kutilayotgan o‘zgari shi	Hisoblash formulasi	Aktivlar portfeli	Mablag‘lar bilan ta’minlanishi	1-passivlar va 3-aktivlarga ta’sirchanligi	Ban k ning foyd a si
Manfiy	O‘shish	ASF<PSF	Qisqa muddatli (uzoq muddatli) aktivlar	Qisqa muddatli (uzoq muddatli) passivlar	1 Passivlar aktivlarga nisbatan oldin qaytabahol anishi kerak	Passivlar bahosining tushishidan
	Kamayish		Uzoq muddatli aktivlar	Uzoq muddatli passivlar		
Nolli	O‘shish yoki kamayish	ASF=PSF	Muvozanatlangan aktivlar	Muvozanatlangan passivlar	2 Neytral pozitsiya	-
Musbat	O‘shish		Uzoq muddatli (qisqa	Uzoq muddatli (qisqa	1 Aktivlar passivlarga	Mavjud qim

			muddatli) aktivlar	muddatli) passivlar	nisbatan oldin qaytabahol anishi kerak	mat bo‘l maga n passi v lar hisob iga
	Kamayish	ASF>PSF	Uzoq muddatli aktivlar	Qisqa muddatli passivlar		

Aktivlar va passivlarning to‘lov muddati va strukturasining GEP tahlili.

GEP tahlili orqali foiz riski darajasini tahlil qilish mumkin. Lekin uni tahlil qilish jarayonida quyidagi keltirilganlarga e‘tibor berish lozim:

1. kelgusidagi foiz stavkalarining yo‘nalishini aniqlash maqsadida prognozlashning zamonaviy usullaridan foydalanish zarur;
2. foiz stavkalarining darajasini aniq hisoblab chiqish mumkin emas. SHuning uchun tahlilning variantli usulidan foydalanish zarur.
3. GEP tahlili aktiv va passiv operatsiyalar bo‘yicha pul oqimlari harakati vaqtini hisobga olmaydi. SHundan kelib chiqib, GEP tahlil va davomiylik tahlilini birgalikda qo‘llash tavsiya qilinadi.

GEP ko‘rsatkichi yordamida aktiv va passivlarning to‘lov muddatlari hamda strukturasini tahlil qilamiz. Bizda bank balansining quyidagi ko‘rsatkichlari mavjud:

Aktiv va passivlarni muddatlar bo'yicha tahlili**(shartli sonlar, mlrd.rub.)**

Muddatlar	ASF	PSF	GEP	Yig'ma GEP	
A	1	2	3=1-2	hisoblash	natija
1 kun	10	50	-40		-40
30 kun	20	40	-20	-40+(-20)	-60
60 kun	25	30	15	-60+(-5)	-65
91 kun	30	25	+5	-65+5	-60
182 kun	35	20	+15	-60+15	-45
365 kun	45	10	+35	-45+35	-10
Jami:	165	175	-10	-10	
qisqa muddatli					
1 yildan ortiq	60	25	+35	+25	
	—	Bank kapitali 25	-25	0	
Jami:	225	225	0	—	

Umuman olganda bankning ish faoliyatini barqaror deb baholash mumkin. Lekin to'lovlar strukturasi alohida davrlar bo'yicha oladigan bo'lsak, u holda bank faoliyatida ba'zi bir salbiy holatlarni aniqlash mumkin. 1 yildagi aktiv va passivlar miqdori o'rtasidagi farq sezilarli darjada emas. Bank manfiy GEPga ega va u 10 mlrd.rublni tashkil etadi.

Yil davomida yig'ma manfiy GEP 10 mlrd.dan 65 mlrd.rublgacha o'zgargan, bu esa kelgusi davrga potensial chiqimlarning bahosidir. 30 kunlik (60 mlrd. rub.), 60 kunlik (65

mlrd. rub.), 91 kunlik (60 mlrd. rub.) majburiyatlarni so'ndirish muddatlarida GEPning maksimal qiymati o'z o'rniga ega. 1 kunlik majburiyatlar bo'yicha GEP 40 mlrd. rublga teng bo'lib bank zahirasiiga jiddiy havf tug'diradi. SHunga ko'ra, bank balansining strukturasini mufassal ko'rib chiqilganda uning faoliyatini barqaror deb bo'lmaydi. Bank amaliyotida aktiv va passiv operatsiyalar o'tkazish bilan bog'liq foiz riski darajasini hisoblash uchun amerika iqtisodchilari quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanadilar:

A) foiz riskining darajasi:

$$\delta = \overline{D_a} - \overline{D_n}$$

bu erda, D_a, D_p -muddatlari bo'yicha tortilgan aktivlar (passivlar);

$$\overline{D} = \frac{\sum D_{C_i} \cdot D_i}{\sum D_{C_i}},$$

Bu erda, DS_i -to'lagunga va olingunga qadar pul mablag'larining oqimi.

DS_i -vaqt oralig'i.

O'rtacha davomiylik – boshlang'ich bahoni qaytadan olish uchun kerak bo'lgan o'rtacha muddat.

B) bank mablag'larini jalb qilish va joylashtirish muddatlari o'rtasidagi farqning integral ko'rsatkichi:

$$K_t = \frac{\overline{D_a}}{\overline{D_n}},$$

Maksimal qo'yilishi mumkin bo'lgan qiymat 1.75ga teng, optimali esa 1.25ni tashkil qiladi.

V) sof kapital indeksi (NCR) riskni o‘lchash nuqtai nazaridan muammoli banklarni aniqlash imkoniyatini beradi:

NCR	=	Kapital + Zahiralar – Zararli aktivlar
		O‘rtacha aktivlar

Minimal qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qiymat 2.74%ni tashkil etadi.

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha qisqa muddatli operatsiyalar uchun risk darajasini hisoblab chiqamiz:

$$\delta = 37,5 - 17,9 = 19,6;$$

o‘zgarishning integral ko‘rsatkichi $K_t = 37.5/17.9 = 2,09$, bu esa maksimal yuqilishi mumkin bo‘lgan kattalikdan anchagina baland.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, ushbu bankning foiz riski baland degan xulosaga kelish mumkin.

Sof foiz daromadi o‘zgarishining GEP – tahlili.

GEP usuli sof daromad foizi yordamida foiz riskini kamaytirishda qo‘llaniladi. Ushbu usul qisqa vaqt oralig‘i uchun ishlatiladi, chunki foiz stavkalarini uzoq muddatga aniqlashda ba’zi bir qiyinchiliklar mavjuddir. Sof foiz daromadi quyidagicha aniqlanadi:

Sof foizli daromad (SFD)	=	Foizli daromadlar (FD)	-	Foizli xarajatlar (FX)	-	Ssudalar bo‘yicha zararlar (SZ)
--------------------------	---	------------------------	---	------------------------	---	---------------------------------

Ushbu ko‘rsatkichning optimal qiymati 1-3% miqdorida belgilangan.

Bankning sof daromadining o'zgarishi quyidagilarga bog'liq:

- Foiz stavkalari darajasining o'zgarishi;
- Foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan bo'lgan aktiv va passivlar o'rtasidagi uzilish, qir qilish.

Bundan

$$\text{SFD} = \text{GEP} * \Delta I$$

yoki

$$\Delta \text{SFD} = (\text{ATF} - \text{PTF}) * \Delta I = \text{ATF} * \Delta I - \text{PTF} * \Delta I.$$

Foiz riskining darajasini baholovchi ko'rsatkichni keltirib chiqaramiz. Uning uchun ushbu formulani quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

$$\Delta \text{SFD} / \text{SFD} = \text{GEP} * \Delta I / \text{SFD}.$$

Har bir ko'rsatkichni daromad keltiruvchi aktivlar summasiga bo'lamiz va sof foiz marjasi (SFM) degan tushunchani kiritamiz:

$$\Delta \text{SFM} / \text{SFM} = (\text{GEP} * \text{daromad keltiruvchi aktivlar}) * (\Delta I / \text{SFM}).$$

yoki

$$\text{GEP} / \text{daromad keltiruvchi aktivlar} = \Delta \text{SFM} / \Delta I ,$$

bu erda

$$\text{SFM} = \text{SFD} / \text{daromad keltiruvchi aktivlar}$$

SHu formula orqali foiz riski darajasini yanada aniqroq baholovchi formula ko'rsatkichiga ega bo'lamiz (foiz riski koeffitsienti):

$$K_p = \frac{\Gamma \text{ЭП}}{\text{Даромадли активлар}} = \frac{\text{СФМнинг куйилиши мумкин булган киймати} - \text{СФМнинг кутилаётган кимати}}{\text{фоиз ставкалари буйича кутилаётган узгаришлар}}$$

Sof foiz daromadining GEPning turiga qarab o'zgarishining variantlari 3-Jadvalda keltirilgan.

Sof foiz daromadi o'zgarishining variantlari

GEP turlari	Foiz stavkasining o'zgarishi Δi	Sof foiz daromadining o'zgarishi ΔSFD
Manfiy (-)	O'sish (+)	Kamayish (-)
Manfiy (-)	Kamayish (-)	O'sish (+)
Musbat (+)	O'sish (+)	O'sish (+)
Musbat (+)	Kamayish (-)	Kamayish (-)
Nolli (0)	O'sish (+)	O'zgarmaydi
Nolli (0)	Kamayish (-)	O'zgarmaydi

Foiz stavkasining bankning samarali ish faoliyatiga ta'sirini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Misol. Bank ish faoliyatining quyidagi ko'rsatkichlariga egamiz:

Ko'rsatkichlar	Umumiy miqdor	Salmog'i, %	Foiz stavkasi, %		
			Haqiqatdagi qiymati	YAngi shartlar	
				1- variant	2- variant
Foiz stavkasi o'zgarishiga ta'sirchan aktivlar	3 600	51.43	13	16	10
Qayd etilgan foiz stavkadagi aktivlar	1 200	17.14	16	16	16
Daromad	2 200	31.43	0	0	0

keltirmaydigan aktivlar					
Jami	7 000	100	9.43	—	—
Foiz stavkasi o‘zgarishiga ta’sirchan passivlar	4 000	57.14	10	13	7
Qayd etilgan foiz stavkadagi passivlar	800	11.43	12	12	0
Foizsiz majburiyatlar	1 200	17.14	0	0	0
SHaxsiy kapital	1 000	14.29	dividentning 15%li stavkasi		
Jami	7 000	100	9.23	—	—

Bankning o‘rtacha tortilgan foydasi 9.43%ni, o‘rtacha tortilgan xarajatlari -9.23%ni tashkil etadi. Bu esa bank foiz daromadiga ega ekanligini anglatadi.

Echimi. Bank siyosatining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqamiz.

1. Sof foiz daromadi (foizli daromad)

$$\text{SFD} = \text{FD} - \text{FX};$$

$$\text{SFD} = (3600 * 0,13 + 1200 * 0,16) - (4000 * 0,1 + 800 * 0,12) = 660 - 496 = 164 \text{ (mln.rub.)}.$$

2. Sof foiz marjasi

$$\text{SFM} = 164 / (3600 + 1200) = 0,0342 \text{ (3,42\%)}, \text{ natija normativ qiymatga to‘g‘ri keladi.}$$

3. $\text{GEP} = 3600 - 4000 = -400$

Tahlil qilayotgan bankimizning GEPning qiymati manfiy.

YAngi shartni kiritamiz, ya’ni foiz stavkasi 3%ga oshgan bo‘lsin.

U holda

$$SFD=(3600*0.16+1200*0.16)-(4000*0.13+800*0.12)=768-616=152 \text{ mln.rub.};$$

$$SFM=152/(3600+1200)=0,0317 \text{ (3,17\%)}$$

Cof foiz daromadining o'zgarishi quyidagi faktorlarga bog'liq:

$$\Delta SFD=GEP* \Delta I, \text{ ya'ni } \Delta I, \text{ ya'ni } \Delta SFD =152-164=-12 \text{ mln.rub.}$$

$$\text{Boshqa tomondan, } GEP* \Delta I=-400*0,03=-12 \text{ mln. rub.}$$

SHu yo'sinda, musbat GEP holatida foiz stavkasining oshishi natijasida SFD va SFM kamaydi. SFMni formula orqali aniqlaymiz.

$$T_{f(SFM)}=(GEP/\text{daromad keltiruvchi aktivlar})*(\Delta i/ SFM)=(-400/4800)*(0,03/0,0342)=-0,073 \text{ (-7,3\%)}$$

SFM, foiz stavkasi kattalashgani hisobiga 7.3%ga kamaydi.

Ushbu holatda bank balansini foiz stavkalarini o'zgarishi bilan bog'liq korrektlash zarur.

Bank balansiga quyidagi o'zgarishlar kiritilgan:

Ko'rsatkichlar	Miqdori mln.rubl	Salmog'i	Foiz stavkasi, %	
			Variant 1	Variant 2
Foiz stavkasi o'zgarishiga ta'sirchan aktivlar	4 000	57.14	16	10
Qayd qilingan foiz stavkalaridagi aktivlar	1 000	14.29	16	16
Daromad keltirmaydigan	2 000	28.57	0	0

aktivlar				
Jami	7 000	100		

Asosiy ko'rsatkichlar korrektlangandan keyin quyidagicha:

$$SFD=(4000*0.16+1000*0.16)-(4000*0.13+800*0.12)=800*616=184 \text{ mln. rub.}$$

$$SFM=184/(4000+1000) =0.0368 (3.68\%)$$

2-shartni kiritamiz, ya'ni foiz stavkasi 3%ga kamaydi.

$$U \text{ holda, } SFD=(4000*0.1+1000*0.16)-(4000*0.07+800*0.12) =560-376=184 \text{ mln.rub;}$$

$$SFM=184/(4000+1000) =0.0368 (3.68\%)$$

4. Tijorat banklarining aktiv va passivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy - iqtisodiy tus olib bormoqda. Chunki, tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbasidir.

Bank foydasining o'sib borishiga bir necha xil omillar mavjud bo'lib, bular: bankning rentabelligi, vaqtincha bo'sh mablag'larning samarali ishlatilishi, turli xil pulli xizmatlar ko'rsatish doirasini kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish va boshqa omillar hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri - yuqori darajada foyda olishga yo'naltirilgan, qaratilgan bo'ladi. Biroq, bularning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular foyliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda, ularning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. Yuqorida aytilgan foyda keltiruvchi rezervlarni amalda tadbiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan risk bilan bog'liq bo'ladi.

Aktivlarni boshqarish deganda o'z va jalb qilingan mablag'larni joylashtirish tartibi va yo'llari tushuniladi. Tijorat banklariga qo'llanilsa - bu naqd pullar,

investitsiyalar, ssudalar va boshqa aktivlarga taqsimlashdir. Mablag'larni joylashtirishda asosiy diqqat qimmatli qog'ozlarga, investitsiyalar va ssuda operatsiyalariga qaratiladi. Mablag'larning aniq echimi shunday aktivlarni "sotib olish" kerakki, u bankka eng ko'p daromad olib kelsin. Biroq, tijorat banklarida fondlarni boshqarish qator omillar orqali qiyinlashmoqda.

Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning ko'pchilik qismi mijozlarning birinchi talabi bilan to'lanishi kerak yoki ogohlantirish muddati juda qisqa bo'ladi. SHuning uchun bankni oqilona boshqarishni birinchi darajali shartlaridan biri bu jamg'armachilar talablarini qondirish xususiyatini ta'minlash hisoblanadi. Ikkinchi shart - bank mijozlarining kreditga bo'lgan talabini qondira oladigan etarli mablag'larga ega bo'lish. Bunday kredit bera olish bank tijorat faoliyatining asosiy turidir. Mijozlarning kreditga bo'lgan talablarini qondira olmaslik bank tomonidan foydali operatsiyalarni yo'qotishiga, pirovardida esa sinish ehtimoliga olib keladi.

Banklarning mamlakatning asosiy pul massasini etkazib beruvchi sifatidagi roli ularga jamiyat oldida katta mas'uliyat yuklaydi. Jamiyatning bank sistemasining to'lovga layoqatliligi, likvidliligi va barqarorligi to'g'risida ishonchsizlikka sababi bo'lmashligi kerak, jamg'armachilar esa istalgan bank ishonchli ekanligiga imoni komil bo'lishi kerak, Bank jamg'armachilari va uning aksiya ushlovchilari maqsadlarini bir - biriga taqqoslab bo'lmaydi. SHuning uchun bank o'z mablag'larini joylashtirayotganida hal etadigan asosiy masalalardan biri bu likvidlilik va foydalilik o'rtasidagi munosabatdir. Bir tomondan bank boshqaruv mablag'larni qimmatli qog'ozlarga joylashtirish orqali yuqori daromad olishga ko'z tutayotgan aksiyadorlarning bosimini his etsa, ikkinchi tomondan bank boshqaruvi bunday faoliyat bank likvidliligini sezilarli darajada yomonlashtirishini, bu esa jamg'armachilarga o'z mablag'larini ololmasligini va eski mijozlarning kreditga bo'lgan talabini qondira ololmasligini aniq biladi.

Bank mablag'larini turli aktivlarga joylashtirish yuqori likvidlilik darajasini ushlab turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqadi. "Likvidlik - daromadlilik" dillemmasini echishga urinishlari aktivlarni boshqarishda 3 usulni keltirib chiqardi. Bu metodlardan

birortasini ham etuk deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning har birining diqqatga sazovor va kamchilik tomonlari mavjud. Har bir metodda alohida tijorat bankining aniq muammolarini echish uchun qo'llash mumkin bo'lgan elementlar mavjud. Qo'llanish nuqtai - nazaridan sodda bo'lgan metod - bu umumiy fond mablag'lari metodidir. (pool - of-funds approach). Bu metodni ko'pgina banklar mablag'lar ko'p bo'lgan davrda qo'llaydilar. Tijorat bank boshqaruvchisi joylashtirilishi uchun javobgar bo'lgan mablag'lar turli manbalardan: talab qilib olinguncha qo'yilmalar, jamg'arma, muddatli qo'yilmalar, shuningdek bank o'z kapitalidan kelib tushadi. Ko'rib chiqilayotgan metod asosida bu resurslarni birlashtirish g'oyasi yotadi. So'ngra mablag'lar to'plami mos hisoblangan aktivlar turlari (ssudalar, davlat qimmatli qog'ozlari, kassadagi naqd pul va hokazo) o'rtasida taqsimlanadi. Umumiy fond mablag'lari metodida ma'lum aktiv operatsiyani amalga oshirishda mablag'lar qaysi manbadan kelib tushganligi ahamiyat kasb etmaydi, agarda ularning joylashtirilishi bank o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishga yordam bersa. Bu metod sxematik ravishda 1 - rasmda ko'rsatilgan.

Bu metod bank boshqaruvidan likvidlilik va daromadlilik prinsiplarini teng amal qilishini talab etadi. Shuning uchun mablag'lar shu prinsipga mos keladigan aktiv operatsiyalar turlariga joylashtiriladi.

Mablag'larni joylashtirish orqali operativ bo'lim boshliqlariga likvidlilik va daromadlilik nisbatlari muammolarini hal etishga ko'mak beruvchi ma'lum prioritetlar asosida amalga oshiriladi. Bu prioritetlar bank ixtiyoridagi mablag'ning qaysi qismi daromad keltirish uchun birinchi yoki ikkinchi galdagi rezervlarga joylashtirilish, ssuda yoki qimmatli qog'ozlar sotib olishga ishlatilishini ko'rsatib beradi. Mablag'larni er uchastkalariga, imorat va ko'chmas mulkka investitsiyalash odatda alohida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi metodning vujudga kelishi - aktivlarni taqsimlash yoki mablag'larni konversiyalash (asset allocation or consersion of funds approach) - birinchi metod ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq. YUqorida ko'rsatib o'tilganidek, umumiy fond mablag'lari pozitsiyasidan mablag'larni joylashtirishda haddan ziyod diqqat likvidlikka berilib, talab qilinguncha qo'yilmalar va asosiy kapital bo'yicha likvidlikka

bo'lgan talab hisobga olinmaydi. Ko'pgina namoyondalar fikrlari bo'yicha, bu kamchilik Amerika tijorat banklarining foyda normasi qisqarishining o'sib borishiga sabab bo'ldi.

Bu vaqt ichida talab qilinguncha qo'yimalarga nisbatan kamroq likvidlilikni talab etuvchi muddatli va jamg'arma qo'yimlar yuqori templar bilan o'sib bordi. Aktivlarni taqsimlash metodi umumiy fond mablag'lari metodi kamchiligini engish imkonini berdi. Bu metod bankka zarur bo'lgan likvid mablag'lar miqdori fondlarni jalb qilish manbalariga bog'liqligini belgilab berdi.

Bu metod orqali mablag'lar manbalarini majburiy rezervlar va ularning aylanish tezligi normalariga mos chegaralashga harakat qilinadi. Bu metodning asosiy ustun tarafi bu likvid mablag'lar va ssudalar hamda investitsiyalarga qo'shimcha mablag'lar qo'yish qismining qisqartirilishi va bu natijada foyda normasining ko'tarilishiga olib kelishidir. Aktivlarni taqsimlash metodi - ning tarafdorlari foyda normasining oshishi oshiqcha likvid aktivlarni bartaraf etish hisobiga amalga oshiriladi.

Lekin, bu metod ham uning samaradorligini pasayishiga olib keladigan kamchiliklarga ega. Uning kamchiliklaridan biri, bu metod mablag'lar manbalari ularni qaysi yo'lda qo'llashdan qat'iy nazar mstaqil deb taxminlaydi, amalda esa bunday emas. Masalan, bankir amaliyotchilar ishchan firmalardan ko'p qo'yilma jalb qilishga harakat qiladilar. Chunki, bu firmalar odatda shu bankdan qarz oladilar. Bundan shu kelib chiqadiki, yangi qo'yimlarni jalb qilish bilan birgalikda bank yangi qo'yilmachilar tomonidan bo'lgan kredit zayavkalarining bir qismini qoniqtirish majburiyatini oladi. Bu esa, yangi qo'yimlarning bir qismi shu qo'yilma egalarini kreditlash uchun yo'naltirilishi kerakligini anglatadi.

Ko'rib chiqilgan 2 metod bir muncha soddalashtirilgandir. Ularning qaror qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiluvchi normativ yo'riqnomalar kompleksi sifatida emas, balki aktivlarni boshqarish bilan bog'liq muammolarni echish usullarini aniqlashda bank boshqaruviga yordam beruvchi umumiy sxema chegarasida qarash kerak. Ko'rib chiqilgan 2 metod aktiv va passivlar turli moddalari o'rtasidagi bog'liqlikni analiz qilishning ilmiy boshqarish soddas usullariga to'g'ri keladi.

Boshqarish va tahlil qilishning 3 usuli ilmiy metod, shuningdek EHMni qo'llash bilan bog'liq. Bu metod nisbatan murakkab matematik metodlar va EHM orqali boshqarish muammolariga yondashishni kasb etadi.

Endi tijorat banklarini *passiv operatsiyalarini* ko'rib chiqamiz. Passiv operatsiyalar tijorat banklari uchun muhim rol o'ynaydilar. Ular yordamidagina banklar pul bozorlarida kredit resurslariga ega bo'ladilar:

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to'rtta shakli mavjud:

- Qimmatbaho qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslarni yig'ish;
- Foyda hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
- Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish;
- Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lari va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi. YUqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o'z mablag'lari yuzaga keladi.

Banklarning o'z mablag'lariga bankning ustav kapitali, rezerv kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Banklarni tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil topadi. Agar, bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, ustav kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmaydi.

Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklarining kredit resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. Ularning asosiysi talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli va jamg'arma qo'yilmalarga bo'linuvchi depozitlardir.

Muddatli depozit schyotlar qat'iy o'rnatgan muddatga ega bo'lib, u bo'yicha egalariga o'rnatilgan foiz to'lanadi. Muddatli depozit schyotlarida saqlanuvchi pul mablag'lariga talab qilinguncha depozitlarga nisbatan majburiy rezervlarga pastroq norma belgilanadi. Mijozlar uchun muddatli depozit schyotlarining yaxshi tomoni ular bo'yicha yuqori foiz olinishidir, bank uchun esa - likvidlilikni kam rezerv bilan ushlab turish mumkinligi. Muddatli depozitlarning mijozlar uchun kamchiligi, uning past likvidliliigi va muddatli depozit schyotlaridagi mablag'larni hisob - kitob va joriy to'lovlariga ishlatib bo'lmazligidir. Talab qilib olinguncha depozitlar schyotlarida saqlanuvchi mablag'lar xarakteridan kelib chiqib tasniflanadi: turli mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning hisob - kitob, joriy, byudjet schyotlaridagi mablag'lar; turli fondlarni saqlash bo'yicha maxsus schyotlardagi mablag'lar, kapital qo'yilmalar uchun mo'ljallangan korxonalarning o'z mablag'lari; boshqa banklar bilan hisoblashish bo'yicha korrespondentlik schyotlaridagi mablag'lar, mahalliy byudjet mablag'lari.

Jamg'arma qo'yilmalar ularning hisoblash xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagilarga bo'linadi: muddatli, qo'shimcha qo'yish bilan muddatli, yutuqli, pul buyum yutuqli; shartli; jamg'arma sertifikatlar va boshqalar.

Bank aktivlarining qiymatini to'g'ri hisoblash va ulardan keladigan daromadlarni to'g'ri hisob - kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunga kelib banklar mablag'larni shakllantirish va daromadni ortishining yangi manbalariga murojaat qilmoqdalar, ya'ni aktivlarni sek'yuritizatsiyalash va kafolatli kredit xatlarini chiqarishdir. Banklar bunday daromad va rezervlar manbalariga asosan ular banklar faoliyatini tartibga solish va jahon moliya bozoridagi investorlar muomalasini o'zgartirishga yordam berganligi uchun murojaat qiladilar. Bunday tartibga solishning yangi normalari uzoq muddatli kapitalining pozitsiyasini mustahkamlashni talab etadi. Ko'pgina bankirlar shuni angladilarki, "kapital - aktivlar" munosabatini samarali yaxshilash vositasi bo'lib balansdan tashqari aktivlarni sotish hamda aktivlarni qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali paketlashtirish va aktivlarni o'zini rezervda saqlash hisoblanadi.

9-mavzu: Tijorat banklarida likvidlik riski va uni boshqarish

1. Tijorat banklari tomonidan likvidlik ko'rsatkichlariga rioya qilishning zarurligi va u bilan bog'liq risklar

Tijorat bankining likvidligi tushunchasi - bu bankning barcha mijozlari oldidagi qarz va moliyaviy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olishidir. Bank likvidligi bank o'z kapitalining etarliligi, uning optimal joylashtirilganligi va balansning aktiv va passiv qismlaridagi mablayolarning vaqt oraliyoida muvofiqligi bilan aniqlanadi.

Tijorat bankining likvidligi uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch asosiy qism o'rtasidagi doimiy sub'ektiv mutanosiblikni saqlashdan iboratdir. Bular bankning xususiy kapitali, jalb qilingan mablayolar va joylashtirilgan mablayolardir. Bu mutanosiblik esa, yuqoridagilarning tarkibiy elementlarini operativ boshqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining moliyaviy holatiga baho berishda ularning foydaliligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatligiga e'tibor qaratiladi. Aynan shu omillar bankning ahvoli qay darajada ekanligini belgilaydi. Banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi nafaqat bitta bank yoki bank tizimining muvozanatligini, balki butun bir iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlaydi. Bank faoliyati tizimida, eng avvalo, banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi ko'rib chiqiladi, chunki, foydalilik faqatgina bankning o'z manfaatini ifodalasa, likvidlik va to'lovga qobiliyatlik kengroq, ya'ni jamiyatning ko'pchilik qatlami manfaatlarini ko'zlaydi.

Bank likvidligi uning omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'la-to'kis bajara olish qobiliyatidir.

"Likvidlik" atamasi lotincha "Liquidus" - oquvchan, suyuqlik ma'nosini anglatadi. SHularni hisobga olgan holda jahon banki nazariyasi va amaliyotida likvidlikni "zahira" yoki "oqim" deb tushuniladi. Likvidlik zahira shaklida tijorat bankining mijozlari oldidagi o'z majburiyatlarini belgilangan vaqt mobaynida aktivlar tarkibini ularning hali ishlatilmagan rezervlariga aylantirish yo'li bilan qoplashni ko'zda tutadi.

Likvidlikning "oqim" shakliga dinamik nuqtai nazardan qaraladi, ya'ni tijorat bankining ma'lum vaqt mobaynida yuzaga kelgan noqulay tushib ketishdan aktiv va passivlarning mos moddalarini, qo'shimcha zayom mablayolarini jalb qilish va bank moliyaviy barqarorligini daromadlarni o'stirish yo'li bilan saqlash yo'llari qo'llaniladi. Shunday qilib, har bir tijorat banki o'z likvidliligini saqlash uchun o'zi harakat qilishi kerak. Bu bank faoliyatini tahlil qilish, prognoz qilish va ustav kapitali, maxsus fondlar va zaxiralar, jalb qilingan mablayolar, aktiv kredit operatsiyalarini amalga oshirishni tashkil qilishda ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosat olib borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tijorat banki faoliyati davomida uning aksionerlari bo'lgan keng doiradagi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning mulk va boshqa iqtisodiy manfaatlarini ko'zda tutilgan uchun tijorat banki faoliyatini yuritishga litsenziya bergan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki banklar ishining barqarorligini iqtisodiy hamda ma'muriy usullar yordamida boshqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli ***"Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"***gi nizomida likvidlikka bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablayolari darajasining pasayishini samarali boshqarish deb ta'rif berilgan.

Tijorat banklarining likvidligi uning balans tuzilmasi bo'yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni qoplash uchun o'z qiymatini tushirmagan holda yo'qotishlarsiz pul mablayolariga aylantirilishi lozim. To'lovga layoqatsizlik esa, faqat balans likvidligiga boyoliq bo'lib qolmasdan, balki boshqa bir qator omillarga ham boyoliqdir.

1983 yilda qabul qilingan va 1993 yilda o'zgartirishlar kiritilgan bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tashabbusi bilan yuzaga kelgan Bazel bitimi bank likvidligi bo'yicha umumiy qoidalarini belgilab berdi. Ushbu bitimga muvofiq, likvidlikni tahlil qilish banklarning o'z majburiyatlarini muddatidan va zarar ko'rmagan holda bajarish

qobiliyatini aniqlash zaruratini ko'zda tutadi. Banklarning likvidligi hamda to'lovga qobiliyatligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashga asos hisoblanadi. Bazel bitimi standartida ko'plab davlatlar o'z banki tizimi uchun likvidlilik me'yorlarini ishlab chiqqan.

O'zbekiston bank tizimida likvidlilikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklar vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari shaklida saqlash hisoblanadi. Jahon banki materiallariga ko'ra to'lovga qobiliyatlilik o'z kapitalining ijobiy kattaligiga boyoliqdir. Bunga muvofiq to'lovga qobiliyatlilik bank kapitaliga asoslanadi, ya'ni bank kapitali majburiyatlarni to'lash kafolatiga ega fond hisoblanadi.

Umumiy likvidlilikni baholashda tijorat banklari asosiy likvidlilik, joriy likvidlilik va istiqbolli likvidlilikni bir tizimda tahlil qilishlari lozim.

Bank zarur bo'lganda yoki moliyaviy bozorda qarzlar olish yoki banklararo bozordan kreditlar olish hisobiga likvidlilikni ta'minlashi mumkin. Ba'zi hollarda tijorat banki balansi likvid bo'la turib, mijozlar talablari bajarilmasligi mumkin. SHuning uchun e'tiborni balans likvidligiga emas, ko'proq bank likvidligiga qaratish o'rinli bo'ladi.

Tijorat banki barqaror holatining asosi bo'lib, uning moliyaviy barqarorligi xizmat qiladi. Bankning moliyaviy barqarorligiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida bankning moliyaviy bozordagi raqobatdoshligi, doimiy mijozlarning mavjudligi va bank amaliyotlarini o'tkazish hamda hisobini rasmiylashtirishda ilyoor texnologiyalarni qo'llash omillari muhim o'rin tutadi. Bu esa, samaradorlikni oshirishga va bankning ishonchli hamkor sifatida obro'sining mustahkamlanishiga imkon beradi.

Bankning ichki barqarorligi - bu tijorat banki faoliyatining barqaror, yuqori natijalarni ta'minlovchi passivlar va aktivlar tarkibining holati va moliyaviy natijalar dinamikasidir. Ichki barqarorlikka erishish asosida ichki va tashqi omillar o'zgarishiga faol javob berish tamoyili yotadi.

Tijorat bankiga nisbatan tashqi barqarorlik, ushbu bank faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilanadi. Tashqi barqarorlikka butun mamlakat miqyosidagi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan boshqarish tizimi orqali erishiladi.

Bankning moliyaviy mustahkamliligi tahlili asosida bank moliyaviy mustahkamligi belgilari, holati o'zgarishining izchilligini o'z ichiga olgan trendni tadqiq qilish, uning turli belgilari o'zgarishlari o'rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini aniqlash yotadi. Bu moliyaviy mustahkamlik trendini tadqiq qilish uchun bank moliyaviy holatining bir necha yillik ko'rsatkichlarini taqqoslash lozimligini bildiradi.

Bu retrospektiv tahlil bilan birgalikda perspektiv tahlilni amalga oshirish mumkinligi va zarurligini, jumladan, moliyaviy holatning keyingi davrdagi prognoz qilishni va moliyaviy mustahkamlik rivojining umumiy trendini aniqlash lozimligini yuzaga keltirdi.

Banklarning moliyaviy mustahkamligini o'rganishdagi boshlanyoich jihat Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatiga qo'yadigan tartibga soluvchi talablaridir.

Banklarning moliyaviy mustahkamligini oshirishga yo'naltirilgan ushbu talablarning samaradorligi mazkur mamlakat iqtisodiyoti, ishlab chiqarish va xizmat sohasining, jumladan, bank infratuzilmasining rivojlangan mamlakatlarda shakllangan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tartiblarini o'rganish, O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tartibini takomillashtirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Bankning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

Retrospektiv tahlil. Tahlilning ushbu yo'nalishida Markaziy bank tomonidan banklar uchun o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga tijorat banklari tomonidan rioya qilinishini nazorat qilishga asoslangan moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari va belgilarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning ushbu yo'nalishi quyidagi sohalar: likvidlilik, foydalilik, aktivlar sifati, kapitalning etarliligi va boshqarishning sifati tahlillaridan iborat.

Perspektiv tahlil. Moliyaviy barqarorlikni perspektiv tahlil qilishning maqsadi tijorat banki faoliyati samaradorligini prognoz qilish hisoblanadi.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligini baholash moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayonida namoyon bo'luvchi moliyaviy holatni tahlil qilishdan boshlanadi. SHunga muvofiq, moliyaviy tahlilning ketma - ketligi, barcha jarayonlarni bosqichma-bosqich ko'rib chiqishni, jumladan, moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

To'lovga qobiliyatlikni nafaqat tashqi ko'rinish, balki ma'lum bir vaqtda va moliyaviy mustahkamlikning barcha omillari ta'sirida hosil bo'lgan ma'lum moliyaviy holatning natijasi deb qarash lozim.

Likvidlik keng ma'noda qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi hisoblanadi. Likvidlik iqtisodiyotning barcha sohalari uchun xarakterli bo'lib, shu bilan birga o'ziga xos bank muammosi hisoblanadi. CHunki, pul bir vaqtning o'zida bankning ham aylanma kapitali, ham faoliyati mahsuli bo'lib, korxonalar aktivi esa asosan natural buyum shaklida mavjud bo'ladi.

Bank likvidligi bu bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini bajara olishi, mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi va omonatchilarning depozitlarni qaytarib olish bo'yicha talablarini qondira olish qobiliyatidir. Bundan tashqari likvidlik bankning bozorda xavfsizligi va qarzlarini o'z vaqtida qaytara olishga qodirligini oshkor qiladi, bankka aktivlarni foydasiz sotish yoki banklararo bozorda mablayolarni jalb qilish bilan boyoliq bo'lgan foydani yo'qotish xavfidan qutulish imkonini beradi.

Bank likvidligining asosiy sharoitlaridan biri, uning aktivlari likvidligidir.

Likvid aktivlar - ularning yaxshi ma'lum bo'lgan bozor narxining shakllanishini ta'minlaydigan doimiy ravishda sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlarning alohida turi bo'lib, banklar ularni qisqa muddat ichida sotib olishga tayyor bo'lgan xaridorni topishi mumkin. Bunday aktivlar qatoriga naqd pullar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, qisqa muddatli (etti kungacha) banklararo kreditlar kiradi. Iqtisodiy hamkorlik va

rivojlanish tashkiloti (OESR) davlatlari hukumatlari hamda fond bozori rivojlangan davlatlarining mashhur transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari ham yuqori likvidlikka egadir.

Nolikvid aktivlar deb, bozor narxini kotirovka bo'yicha aniqlash mumkin bo'lmagan va bu turdagi aktivlarning xarid narxi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuv natijasida xususiy tarzda aniqlanadigan aktivlarga aytiladi. Bunday aktivlarning qiymati katta miqdordagi o'zgarishlarga uchrab turishi taqqoslashni qiyinlashtiradi. Bu turdagi aktivlarga, masalan, kreditlar, qimmatli qog'ozlar bozorida kotirovkaga ega bo'lmagan yoki kotirovkasi qiyin bo'lgan qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar va boshqalar kiradi. Tezda naqd pul miqdorini oshirish uchun nolikvid aktivlarni sotish zarur bo'lganda bank ularni zarar ko'rgani holda sotishi mumkin.

Bank likvidligining yana bir jihati bankning to'lovga qobiliyatlilik bo'lib, uning asosiy belgisi bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini o'z vaqtida qondira olish qobiliyatidir.

Likvidlik nafaqat to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishni nazarda tutadi, balki o'zining tijorat manfaatlari bilan birga omonatchilar tomonidan ishonch bildirilgan mablayolarning saqlanishini ta'minlaydi.

Bankning to'lovga qobiliyatlilik bankka qo'yilgan to'lovlar bo'yicha talablar ayni vaqtda qondira olish qobiliyatini bildiradi. To'lovga qobiliyatlilikni ma'lum moliyaviy holatning natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga, to'lovga qobiliyatlilik likvidlikka nisbatan ikkilamchidir. Chunki, bankda to'lovga qobiliyatlilik muammosi sodir bo'lishi mumkin, ammo uning likvid balansi, bankning majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishini ta'minlovchi qobiliyatini tiklash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligi ko'proq bank balansining likvidligi bilan belgilanadi va uning mazmuni, mohiyati aktiv va passiv operatsiyalarning muddati bo'yicha mos kelishidan iborat. Bank balansining likvidligi ssuda va fond operatsiyalariga yo'naltirilgan

mablayolarning xatarlilik darajasi, pul bozorining rivojlanish darajasi va boshqa omillarga boyoliq bo'ladi.

Bundan tashqari, passivlarning qisqa muddatliligi uzoq muddatli qo'yimalarga ham sarflanishi imkoniyatlarini cheklab qo'ymaydi. Bankning har doim o'z tasarrufida ma'lum miqdorda "begona" pullari bo'ladi. Omonatlarning bankka doimiy oqib kelishi bilan birga ularning qaytarilib olinishi ham doimo sodir bo'lib turadi va bunda bank hisobvaraqlarida doimiy turib qoladigan qarz mablayolari miqdori barqaror hisoblanadi.

Tijorat banki likvidligini saqlab turish muammosini hal qilish uchun passivlar oqimi harakatchanligi va muddatiga ko'ra aktivlar oqimiga mos kelishi lozim.

Shunday qilib, tijorat banki likvidligi bankning ma'lum vaqtdagi to'lovga qobiliyatliligini ta'minlovchi va bank likvidligining asosiy omili bo'lgan bank aktivlari va passivlarining nisbati bilan belgilanadi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank passivlarining sifatidir. O'zlik va jalb qilingan mablayolar nisbati bankning ishonchliligi va faoliyati rivojlanishining istiqbolini xarakterlab beradi. Jalb qilingan mablayolar oqimining barqarorligi likvidlik muammosini hosil qilmasdan turib, qisqa muddatli resurslarni uzoq muddatli qo'yimalarga yo'naltirish imkoniyatini beradi. Depozitlar bo'yicha ijro muddatining aniqligi balansning likvidligini boshqarish va likvid vositalarga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish imkoniyatini beradi. Bu esa bank barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank tomonidan qarz olish, o'z aktivlarini sotish yo'li bilan yoki o'z majburiyatlarini bajarish uchun mablayo topa olish imkonini beradigan pul bozorining mavjudligidir. Asrimizning 60-yillarida bu omilning roli nihoyatda ortdi. Bunga sabab, erkin muomalada bo'lgan federal depozit sertifikatlari, federal fondlarning qisqa va uzoq muddatli qimmatbaho qoyoozlari, REPO bitimlarining keng qo'llanilishi va buning natijasida balansda foyda keltirmaydigan va kam daromadli aktivlarning to'planishi bilan boyoliq bo'lgan foyda yo'qotilishini minimallashtirish imkoniyatiga ega bo'linganligidir.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligining yana bir komponenti bank faoliyatining foydaligidir.

Bank foydasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, agar ishlab chiqarish sohasida xarajatlar o'zgaruvchan kapital va qisman qo'shimcha qiymat hisobidan qoplansa, banklarda esa muomala xarajatlari to'la, faqatgina qo'shimcha qiymat qismidan qoplanadi.

Foyda olish - bank faoliyati ko'lamini kengaytirish manbalaridan biridir. Agar, bank ishida kapitalga daromad boshqa tijorat tashkilotlariga nisbatan past bo'lsa, kapital qo'llash foydaliroq bo'lgan boshqa sohalarga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, foyda rahbariyat faoliyatini rayobatlantiradi, chunki ular operatsiyalar hajmini oshirish va takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirganliklari uchun foydaning bir qismini mukofot shaklida olishlari mumkin.

Bank foydasining eng muhim funksiyalaridan biri ko'zda tutilmagan yo'qotishlar holati uchun zahiralar shakllantirishdir.

Tijorat bankining zararsiz faoliyati uning moliyaviy asosini mustahkamlaydi va aksincha uzoq muddat mobaynida zarar bilan faoliyat ko'rsatish bankni bankrotlikka olib borishi mumkin.

Banklar muomala sohasi korxonasi sifatida o'z foydasini bank operatsiyalarining natijasi bo'lgan bank mahsulotini sotish asosida shakllantiradi. Bank faoliyatining foydalilik darajasi bank faoliyati xarakteri, ixtisoslashuvi, uning kapitalining kattaligi, strukturasi va filiallarining mavjudligi hamda mustaqillik darajasiga boyoliq.

Bank faoliyatining foydaliligi rentabellikning muhim ko'rsatkichlari majmui bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarga: kapitalga foyda me'yori, yalpi aktivlarning daromadliligi va foydaliligi, sof foiz marja, foizsiz yuk, aktivlar tizimi va "ishlovchi" aktivlar salmoyoi, passivlar tizimi va to'planadigan passivlar salmoyoi, ishlovchi aktivlarning daromadliligi, foizli tashlanma kiradi.

Ichki tahlil nuqtai-nazaridan faoliyatning moliyaviy ishonchliligi va rentabellik tahlili juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiyotida mavjud bo'lib turgan ma'lum darajadagi inflyasiya sharoitida foydalilik tahlilining dolzarbligi yanada oshadi.

Foydani kamaytirishga sabab bo'luvchi omillarga quyidagilar: balansning nolikvidligi, bunda likvidlik kamomadini to'ldirish uchun qo'shimcha kredit resurslarini jalb qilish zarurati tuyoiladi; depozitlarning barqaror emasligi; inflyasiyaning o'sishi va bu orqali tartibga soluvchi talablar, jumladan, yuqori majburiy zaxiralar talabi ta'siri ostida bo'lgan foiz marjasining pastligi; daromad keltiruvchi aktivlarning noqulay strukturasi, jumladan, kam daromad keltiruvchi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, foizsiz ssudalar salmoyoining yuqoriligi va to'lovli passivlar. Masalan, resurslar tarkibida bahosi yuqoriroq bo'lgan kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar salmoyoining yuqoriligi; foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlarning salbiy nisbati; ma'muriy-xo'jalik xarajatlarining maqsadga muvofiq bo'lmagan yuqori darajasi; kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar salmoyoining yuqoriligi va berilgan kreditlarning foydalanish hamda qaytarilish muddatlarini uzaytirish bilan boyoliq yo'qotishlar; qimmatbaho qoyoozlar qiymatining tushishi; soliqlar darajasining yuqoriligi; muvozanatlashtirilmagan foiz siyosati; hajmi va miqdori jihatidan o'z kapitali miqdorini chegaralovchi asoslanmagan yuqori darajada xatarli bo'lgan bank faoliyatini yuritish kiradi.

Tijorat banklari uchun quyidagi likvidlilik koeffitsientlari belgilangan:

lahzali (mgnovenny) likvidlilik koeffitsienti likvid shaklidagi balans aktivlari, ya'ni ekstremal vaziyatlarda tez sotiladiganlari bilan bankning muddatsiz depozit hisobvaraqlari bo'yicha majburiyatlar summasi orasidagi nisbatni bildiradi,

$$H3K = \frac{JA}{OB}$$

Bunda: LA - bankning pul shaklidagi aktivlari,

OV - bankning muddatsiz depozit hisobvaraqlariga doir majburiyatlari.

N3 - me'yorining yo'l qo'yiladigan eng kam alomati 0,25 qilib belgilangan. Mazkur me'yor Markaziy bank tomonidan kunlik balans asosida tezkor (operativ) tarzda nazorat qilib boriladi.

Lahzali likvidlik ko'rsatkichi - iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ushbu normativ bankning omonatchilar oldidagi majburiyatlarini shu lahzada bajara olish qobilayatini anglatadi.

Joriy likvidlik ko'rsatkichi likvid shakldagi bank aktivlarini 30 kungacha bo'lgan muddatda yo'qlab olingungacha turadigan qisobvaraqlari bo'yicha majburiyatlari summasi orasidagi nisbatni bildiradi.

$$H4k = \frac{JA(1)}{OB(1)}$$

Bunda: LA - qaytarish muddati 30 kungacha muddatda berilgan bankning likvid aktivlari va kreditlar,

OV - qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan yo'qlab olingungacha turadigan majburiyatlari.

N4 - me'yorining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 0,3 ga teng.

Tajribadan shu narsa ma'lumki, ayrim tijorat banklari o'rtasida yuqori daromadni ko'zlagan holda talab qilib olgunga qadar va qisqa muddatda quyilgan omonatlar hisobidan kredit berish va boshqa aktiv operatsiyalarga uzoq muddatli tartibda joylashtiradilar. Jalb etilgan mablag'larning muddati kelgan paytda esa bank omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini muddatida bajarish imkoniga ega bo'lmaydi. Buning natijasida bank o'z to'lov qobiliyatini yo'qotadi. Bunday holat bankning o'z faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, balki omonatchilarning moliyaviy ahvoliga qolaversa, bank tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bank operatsiyalarini bajarish bo'yicha litsenziyasi qaytarib olingan banklar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mazkur holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida bank amaliyotida aktiv va passiv mablag'larning miqdori va muddatlarini balanslash talablari o'rnatildi. Bu to'g'rida jahon bank tajribasining "bankning oltin qoidasi" deb nomlanuvchi qoidasi amal qiladi. Unga

binoan bankning moliyaviy talablari miqdori va muddati uning majburiyatlari miqdori va muddatlariga muvofiq kelishi shart.

N4 - normativining iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, qay darajada jami balans aktivlarining likvid qismi talab qilib olingunga qadar bo'lgan majburiyatlarni bir vaqtning o'zida qaytarishi mumkinligidir. Madomiki bunday muddatli omonatchilar har qanday vaqtda bankdan o'z omonatlarini talab qilishlari mumkin.

Yuqoridagi shartlardan kelib chiqqan holda, mazkur normativ bank tomonidan omonatchilardan jalb qilingan mablag'lar muddati bilan ularning aktiv operatsiyalarga joylashtirish muddatlariga qat'iy muvofiq kelishini talab etadi.

Shuning bilan bir qatorda mazkur me'yorning buzilishi xalq xo'jaligida bo'ladigan hisob - kitoblarni sekinlashtirishga olib kelishi mumkin.

Qisqa muddatli likvidlik ko'rsatkichi bankning qaytarish muddati 30 kundan to 1 yilgacha bo'lgan depozitlar, olingan kreditlari va boshqa qarz majburiyatlariga nisbati bilan xarakterlanadi.

$$H5_K = \frac{A}{D_K K}$$

Bunda: A - 30 kundan 1 yilgacha muddatga berilgan kreditlar.

D - 30 kundan 1 yilgacha muddatga jalb qilingan mablag'lar va depozitlar.

K - Bank sarmoyasi.

Mazkur me'yorning eng yuqori o'rnatilgan miqdori 1 ga teng.

10-mavzu- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatidagi risklarni nazorat qilishdagi o'rni

Reja:

- 1. Tijorat banklari kapitalini tashkil qilida Markaziy bankning talabi.**
- 2. Tijorat banklari tomonidan likvidlik ko'rsatkichlariga rioya qilishning zarurligi va u bilan bog'liq risklar**

3. Tijorat banklari tomonidan yirik kreditorlar va bir jamg'armachiga to'g'ri keluvchi risklarning tijorat banklari tomonidan rioya qilinishi

1. Tijorat banklari kapitalini tashkil qilida Markaziy bankning talabi.

Bankning o'z mablag'lari uning faoliyatining asosini tashkil qiladi, chunki ular jalb qilayotgan depozitlar, ya'ni real kredit resurslari hajmini pirovard natijada aktiv amaliyotlar hajmini belgilab beradi. Bankning o'z mablag'lari tijorat banklarining faoliyatini boshqaruvchi va ular ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Markaziy bank uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi.

Bankning o'z mablag'lariga ustav fond (kapital) rezerv fondi va bank foydasi hisobiga tashkil topadigan bank fondlari, hamda yil davomida taqsimlanmagan foyda kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag'lariga to'g'ri keladi. Bankning o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni ustav kapitali egallaydi.

Bankning ustav kapitali - bu bank ishini tashkil qilishning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Markaziy bankning me'yoriy talablariga muvofiq bank kapitali asosiy (birinchi daraja kapital) va qo'shimcha (ikkinchi daraja) kapitalidan iborat. Birinchi daraja kapital hisob - kitob qilingan kapital yig'indisining 50 foizidan kam bo'lmashligi lozim. Tartibga solish funksiyasini asosan, birinchi daraja kapital bajaradi, chunki u doimiyroq hisoblanadi.

Bank kapitali uning faoliyat yuritish chegaralarini belgilab beradi, investorlar hamda aksiyadorlar va qolaversa, bankning o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy barqarorlik darajasini ko'rsatib beradi.

Bankning tashkil topish shakliga qarab, ustav kapitalining shakllantirilishi turlicha bo'ladi. Agar bank aksionerlik jamiyati ko'rinishida shakllanayotgan bo'lsa, ustav fondi aksiyalarining nominal qiymati ko'rinishida tashkil topadi. Bunda aksiyalar ochiq obuna qilish yo'li bilan yoki ta'sischilarning ustav fondidagi ulushlariga qarab tarqatilishi mumkin.

Agar bank ma'suliyati cheklangan jamiyat ko'rinishida tuzilgan bo'lsa, ustav fondi ulushlarga bo'lingan holda bo'ladi. Ularning hajmi ta'sis hujjatlari bilan aniqlanadi. Bunda bank ishtirokchilari o'zlarining ulushlari me'yori chegarasida majburiyatlarni o'z zimmlariga oladilar.

Bankning tashkiliy - huquqiy shakliga qaramay, uning ustav fondi huquqiy va jismoniy shaxslarning to'lovlari orqali shakllanadi va ta'sischilarning majburiyatlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ustav fondi faqat bank ishtirokchilarining xususiy mablag'lari hisobiga tashkil topishi mumkin. Jalb qilingan kredit, garovga olingan, boshqa yo'llar bilan jalb qilingan mablag'lar hisobidan ustav fondini shakllantirishga yo'l qo'yilmaydi. Bankning ustav fondi faqat pul mablag'lari va moddiy aktivlar hisobiga tashkil topishi mumkin.

Respublika byudjeti mablag'lari, davlat nobyudjet fondlari mablag'lari va O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv va mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoridagi bo'sh pul mablag'lari va boshqa ob'ektlar banklarning ustav kapitali shakllanishida qatnashmaydi. Qonunda ko'rsatilgan xolatlarda bank ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanish mumkin.

Agar aksiyadorlar ustav kapitalini shakllantirishda qarz mablag'idan foydalansa, ustav fondiga qo'shilgan mablag' aksiyadorga qaytarib beriladi va aksiyalar kelgusida sotish uchun bankka qaytariladi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalini eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy bank faoliyat shartlari, biznes - rejada ko'rsatilgan operatsiyalar turi va hajmiga qarab, bank ustav kapitali miqdoriga qo'shimcha talablar qo'yish mumkin. Ustav fondining minimal miqdori bankning barqaror faoliyatini ta'minlash uchun o'rnatiladi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining etarlilik darajasini belgilashda quyidagi asosiy talablarga rioya qilinadi.

- Markaziy bank belgilagan ustav kapitalining eng kam miqdori yuzasidan talablarga muvofiqligi;

- Ko‘zda tutilayotgan o‘shishni qo‘llab - quvvatlash darajasi;
- Ko‘zda tutilayotgan daromadlar va asosiy foizlar darajasi;
- Muassislarning zarur hollarda qo‘shimcha kapitallar kirita olish qobiliyati va boshqalar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan banklar ustav kapitaliga talablar iqtisodiy ahvol va bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bank ustav kapitali miqdorini o‘zgarishi va o‘zgarishni ro‘yxatga olish tartibi Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Banklarni ustav kapitalining minimal miqdorini belgilanishi banklarni har xil risklardan saqlash maqsadida belgilanadi. Chunki bank ustav fondi qancha katta bo‘lsa, uning resurslari ham ko‘p bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi xududida o‘z shu‘ba bankini ochish yoki bu erdagi bank ustav kapitalida ishtirok qilish istagini bildirgan norezident bank ustav kapitali 30 mln. AQSH dollari ekvivalentiga teng summadan kam bo‘lmasligi kerak.

Bankning tashkiliy shakliga qarab, ustav kapitali oshishi mumkin. Aksionerlik jamiyati ko‘rinishidagi tijorat banklar o‘z ustav kapitalini oshirishlari uchun qo‘shimcha miqdorda aksiyalar chiqarishlari va ularni yuridik va jismoniy shaxslar orasida tarqatishi mumkin. Qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilishda bu banklarga o‘z qarz majburiyatlari - obligatsiyalar chiqarish xuquqi berilgan. Obligatsiyalar barcha aksiyalar to‘la to‘lanib bo‘lgach, ustav fondining 20% dan oshmaydigan qiymati hajmida chiqarilishi mumkin.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat ko‘rinishida tashkil topgan banklar o‘zlarining ustav kapitallarini yoki qo‘shimcha ishtirokchilarni ulushini oshirish orqali ko‘paytirishlari mumkin.

Har yili har bir bank aksioneri (ishtirokchisi) o‘zining ustav kapitalidagi ulushiga mos ravishda bank foydasining bir qismini dividend ko‘rinishida oladi.

Devidendlar hajmi va uni hisoblash tartibi aksiya turi va chiqarilishi shartlariga bog‘liq bo‘ladi (oddiy yoki imtiyozli aksiyalar).

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari natijasi bo'lmish rezerv fondlar bank etarli foyda olmagan paytda bank obligatsiyalari bo'yicha foiz bo'lib xizmat qiladi. Rezerv fond foydadan ajratmalar hisobiga shakllanadi.

Rezerv fond bilan bir qatorda tijorat banklarda ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish fondlari foyda hisobiga tashkil topish mumkin. Ularni shakllantirish va ishlatish tartibi tijorat hisob - kitoblari to'g'risidagi bank yo'riqnomalarida belgilanadi.

Bankning mijozlari oldidagi majburiyatlarini ta'minlash - bank mablag'larining asosiy funksiyasi bo'lib hisoblanadi. Ularga o'z majburiyatlari bo'yicha javobgarlikni ta'minlovchi kattalik sifatida qaralishi mumkin. Bank amaliyotida kapital resurslarni yo'qotish natijasida zarar ko'rilganda bank to'lov qobiliyatini saqlab qolish uchun resurslar rezerv bo'lib hisoblanadi. Chunki bank kapitali aksionerlarga qaytarilmasligi ham mumkin. Bankning o'z resurslari miqdori uning faoliyat qo'lamiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki mablag'lari hajmidan kelib chiqadi. Bankning o'z mablag'lari uning moddiy bazasini rivojlantirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bank amaliyotida o'z kapitalning netto va brutto turlari farqlanadi. Bankning o'z kapitali - brutto - bankning barcha fondlari va balans bo'yicha taqsimlanmagan foydasi yig'indisiga teng. Bankning o'z kapitali - netto - bu kapital bruttodan o'z mablag'laridan kapital harajatlarning oshgan qismini, yo'l qo'yilgan va potensial zararlar, sotib olingan xususiy aksiyalar va muddati 30 kundan ortiq bo'lgan debitor qarzlarni chegirib tashlangandan qolgan summaga teng. Shunday qilib, kapital - netto naqd mavjud bo'lgan bank o'z kapitalini o'zida aks ettiradi.

Tijorat bankning o'z kapitali miqdori ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risidagi qonunga muvofiq, bankning o'z kapitali hajmi uning aktiv operatsiyalarini chegaraviy hajmini belgilab beradi. Shuning uchun ma'lum miqdor mijozlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan bank (misol uchun, tarmoq banki) belgilangan normativlarga rioya qilgan

holda, o'zlik kapitalining shunday miqdoriga egalik qilishlari kerakki, o'z doimiy mijozlarining asoslangan qarz mablag'lariga bo'lgan talablarini qondirishlari lozim.

Ikkinchidan, bank uchun zarur bo'lgan o'zlik kapitalining miqdorining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Mayda, lekin son jihatdan ko'pchilikni yirik kredit oluvchi korxonalarni tashkil qiluvchi bankda o'z mablag'lari nisbatan ko'p miqdorda kerak bo'ladi. Chunki yirik mijozlarga xizmat qiluvchi banklarda kreditning qaytarilmaslik riski katta bo'ladi.

Uchinchidan, tijorat bankining o'z kapitali miqdori, uning aktiv operatsiyalari xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bank olib borayotgan operatsiyalari katta risklar bilan bog'liq bo'lishi, o'z mablag'larining nisbatan ko'p bo'lishini taqozo etadi. Bu hol, xususan, innovatsion banklarga tegishlidir. Agar bankning kredit portfelida minimum riskli ssudalar ko'pchilikni tashkil qilsa, bankning mablag'lari nisbatan kam bo'lishi mumkin.

Bankning aktiv operatsiyalari xarakteriga qarab, bank kapitali va uning turli darajadagi riskli aktivlari o'rtasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki o'rnatgan normativlari bankning o'z kapitali miqdorini aniqlashga bir qancha yo'nalishlar belgilab beradi.

Bank kapitali hajmini aniqlayotganda banklar bu mablag'lar olinadigan foyda miqdorini aniqlanmasligini ham e'tiborga olishadi. Bu faqatgina, bankning aniq mijozlar doirasiga xizmat ko'rsatish imkonini ochib beradi.

To'rtinchidan, bankning zaruriy xususiy kapital miqdori kredit resurslari bozorining rivojlanganlik darajasiga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki olib borayotgan pul - kredit siyosatiga bog'liq. Rivojlangan bozor sharoitida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining erkinlashtirilgan kredit siyosatini olib borishga yo'l ochib berishi natijasida tijorat bankining kredit resurslariga talabini qondirish osonlashadi va bankning zaruriy o'z mablag'lari darajasi kamayadi. Etarli darajada moliya bozorining rivojlanmaganligi, kredit siyosatining qattiq qo'lligi banklarning o'z mablag'larini doimiy tarzda oshirishni talab etadi.

Banklarning o'z mablag'lari miqdorini oshirishda 2 - usul ishlatilishi mumkin: qo'shimcha aksiyalar chiqarish va ularni joylashtirish yoki chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini oshirish. Birinchi usul bilan foydani jamg'arish bankning rezerv va boshqa fondlarini jadallashtirilgan tarzda shakllantirish va ularni keyinchalik kapitalga aylantirish shaklida ro'y beradi. Bunda yil oxirigacha foydaning bir qismi to'g'ri kapitalga aylanishi ham mumkin. Bu usul ancha arzon, yangi paychilar jalb qilish yoki aksiya chiqarish borasidagi qo'shimcha harajatlarni talab etmaydi. Lekin foydani jamg'arish joriy yilda aksionerlarga to'lanadigan dividendlar miqdorini kamayishiga olib keladi. Bu esa bankning bozorda tutgan mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan bank ustav kapitalini oshirish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- ➡ moliyaviy yil yakuni bo'yicha ko'rilgan foizning bir qismini yoki hammasini aksiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish;
- ➡ aksiyadorlar tomonidan aksiyalar nominal qiymati oshirilgan qismining to'lanishi;
- ➡ moliyaviy yil yakuni bo'yicha ko'rilgan bank foydasini aksiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish va aksiyadorlar tomonidan aksiyalar oshirilgan nominal qiymatining etishmaydigan qismining to'lanishi hisobidan amalga oshiriladi.

Bankning ustav kapitali aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki aksiyalar umumiy sonini qisqartirish, jumladan, keyinchalik ularni to'lash sharti bilan sotib olish orqali kamaytirilishi mumkin.

2. Tijorat banklari tomonidan yirik kreditorlar va bir jamg'armachiga to'g'ri keluvchi risklarning tijorat banklari tomonidan rioya qilinishi

Bir qarz oluvchiga va muassisga, bank aksiyadorlariga moliyaviy jihatdan bankning qurbi etmaydigan darajada katta miqdorda kreditlar berilishi tijorat banki uchun juda risklidir. SHuning uchun "Bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan riskning eng katta hajmi" me'yori o'rnatiladi va mazkur me'yor ustidan qattiq nazorat o'rnatish talab etiladi.

$$H6_k = \frac{K_p}{K}$$

Bunda: K_r - bank riskining bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan jami summasi qo'shilgan depozitlardan tashqari 75% balansdan tashqari majburiyatlar.

K - bank sarmoyasi.

Bu me'yor hukumat kafolati bilan ta'minlangan kreditlarga, jumladan, xalqaro qarzlar bo'yicha takror moliyalanadigan kreditlarga taalluqli emasdir, qolgan kreditlar uchun qarz oluvchi majburiyatlarining umumiy summasidan respublika davlat qimmatli qog'ozlarni garovga olib, garov summasini 90% hajmda berilgan qarzlar chegirib qolinadi.

Ushbu me'yorga o'rnatilgan eng yuqori chegara 0,25 ga teng.

Bir qarz oluvchiga berilgan kreditlar qo'shilgan (q) shu qarz oluvchiga nisbatan bergan, bank sarmoyasidan 15% ortiq bo'lgan balansdan tashqari majburiyatlar summasining 75% jamlangan qarz "katta" kredit hisoblanadi. "Katta" kreditlar tijorat banki Kengashi bir ovozdan qabul qilgan qarori asosida beriladi va bu qarzlar boshqaruv tomonidan alohida nazorat qilib boriladi. Lekin bank Kengashining bunday kreditlar berish to'g'risida qaror qabul qilish bilan bog'liq vakolati Boshqaruvga berilishga ruxsat etilmaydi.

Bundan tashqari shuni ta'kidlash lozimki, bank uchun "katta" toifaga kiradigan va bir qarz oluvchiga beriladigan kreditlar summasini shu qarz oluvchining o'z mablag'lari summasidan oshirmaslik tavsiya etiladi.

"Katta" kreditlarning hammasiga to'g'ri keladigan riskning eng yuqori miqdori "katta" kreditlar jami miqdorining o'z mablag'lari, ya'ni bank kapitali nisbati bilan aniqlanadi.

$$H7_k = \frac{CK}{K}$$

Bunda: SK - balansdan tashqari majburiyatlarning 75% bilan hisoblangan "katta" kreditlarning jami summasi.

K - bank sarmoyasi.

Mazkur me'yor miqdori balansdan tashqari majburiyatlar bilan hisoblanib berilgan "katta" kreditlarning jami miqdori bank kapitalining 5 barobaridan oshmasligi kerak.

Bir omonatchiga (kreditorga) to'g'ri keladigan riskning eng yuqori me'yori olingan kredit yoki omonatning eng yuqori miqdori va bitta depozitorning depozit hisobidagi qoldiq qiymatini bankning o'z mablag'lari miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

$$H8_K = \frac{O}{K}$$

Bunda: O - olingan kredit yoki omonatning eng yuqori miqdori va bitta omonatchining hisobraqamidagi, joriy raqamidagi va qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar qoldiqlari.

K - bank sarmoyasi.

Qimmatli qog'ozlar bilan bo'lgan operatsiyalarda o'z mablag'idan foydalanish ko'rsatkichi bankning oldi - sotdi uchun xarid qilgan nodavlat qimmatbaho qog'ozlari miqdorini o'z mablag'lariga nisbati bilan belgilanadi.

$$H9_K = \frac{II}{AK}$$

Bunda: S - oldi - sotdi maqsadida qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan bankning o'z mablag'lari.

AK - aksioner kapitali.

O'rnatilgan me'yorning eng yuqori darajasi 0,25 ga teng.

Bankning investitsiya uchun ishlatilgan o'z mablag'lari me'yori jami investitsiya miqdorini bank sarmoyasiga nisbati orqali hisoblanadi.

$$H10_K = \frac{CH}{AK}$$

Bankning boshqa banklar, korxonalar tashkilotlar ustav fondiga qo'yadigan jami investitsiya summasi miqdorining ulushi bank sarmoyasining 20% dan va Nizom fondining 10% dan oshirmaslik uqtirilgan.

Mazkur me'yor uchun o'rnatilgan miqdor 0,5 ga teng.

Bank nazoratining yana bir muhim sohalaridan biri bog'liq shaxslar bilan bank operatsiyalarini o'tkazish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining 26 - moddasiga asosan bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan bankka bog'liq bo'lmagan shaxslarga nisbatan qulayroq shartlar asosida bitim tuzishni ta'qiqlaydi va Markaziy bankka bunday bitimlar bo'yicha cheklashlar belgilash yuzasidan vakolatlar berilgan.

Bankning asosiy aksiyadorlari, uning rahbarlari, xodimlari va ular bilan bog'liq shaxslar bank xizmatlaridan imtiyozli asosda foydalanmasliklari va amaldagi qonunlarga rioya qilishlari kerakdir.

Daxldor shaxslar - bank bilan alohida munosabatda bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, xususan:

bank Kengashi, bank boshqaruvi, taftish komissiyasi tarkibiga kirgan barcha shaxslar, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari.

bank nizom fondinining 10 foizidan ko'proq qismiga ega bo'lgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslar, yoxud shu yuridik shaxslarning har qanday rahbarlari, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari.

qonunga ko'ra bank faoliyatini nazorat qiluvchi yuridik shaxslar va ularning boshqaruvchilari.

"Yirik" hissador - bu, bank nizom jamg'armasidagi ulushi 10 foizdan ortiq shaxslardir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tijorat banklari daxldor shaxslarga imtiyozli sharoit yaratib bermasligi lozim. Imtiyozli sharoit deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

boshqa mijozlardan talab qilinadiganidan kam hajmda foizlar, badallar, boshqa to'lovlarni undirish yoki ta'minotni kam qabul qilish;

kreditni qaytarish muddatini etarli asoslarsiz o'zgartirish;

o'z tabiatiga, maqsadiga va yo'l qo'yiladigan riskga ko'ra bank daxldor bo'lmagan mijozlar bilan tuzmaydigan bitimlarni tuzish.

Tijorat banklari tomonidan ularning faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida daxldor shaxslarga kredit berish ta'qiqlanadi.

$$H11_k = \frac{KC \cdot 100}{AK}$$

Bunda: KS - bitta daxldor shaxsga berilgan kredit miqdori.

AK - aksioner kapital.

Bankning har bir daxldor shaxsga beradigan kredit umumiy summasi bank sarmoyasining 20 foizidan oshmasligi belgilangan, ya'ni:

$$H12_k = \frac{CKC}{AK}$$

Bunda: SKS - daxldor shaxslarga berilgan jami kreditlarning jami miqdori.

AK - aksioner kapital.

Bank barcha daxldor shaxslarga beradigan kreditlar umumiy summasi bank nizom fondining 100 foizidan oshmasligi lozim.

Bizning nazarimizda, tijorat banklari yuqorida sanab o'tilgan iqtisodiy me'yorlarning belgilangan miqdoriga har doim amal qilib borishni ta'minlashlari uchun quyidagi sohalarda samarali ishni tashkil etishlari lozim bo'ladi, ya'ni bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Bank portfeli;
- Bank portfeli bilan bog'liq risk;

- Bank balansi likvidligi;
- O'z sarmoyasi adekvat ta'minlanishi;
- Zararlar o'rni qoplash zahirasi vujudga keltirish.

Iqtisodiy me'yorlarning belgilangan miqdorlariga amal qilmagan banklarga nisbatan Markaziy bank tomonidan jarimalar solish va boshqa tegishli iqtisodiy jazo choralari ko'rib boriladi.